

O.S. ABLYALIMOV

TERMODINAMIKA

I QISM

**«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TEMIR YO'L MUHANDISLARI INSTITUTI**

O.S. ABLYALIMOV

TERMODINAMIKA

5310600 – Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (lokomotivlar), 5111000 – Kasb ta'limi (5310600 – Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (lokomotivlar) ta'lim yo'nalishlari 2, 3 - bosqich bakalavriat talabalarini uchun masalalar to'plami

I QISM

**«O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2020**

UO'K: 621.43.016(075.8)

KBK: 31.31ya73

A 17

Ablyalimov, O.S.

Termodinamika [Matn] : o'quv qo'llanma / O.S.Ablyalimov. – Toshkent : «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 192 b.

UO'K: 621.43.016(075.8)

KBK: 31.31ya73

Taqribchilar:

Bazarov B. I. – *texnika fanlari doktori, professor,
Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurilish va
ekspluatatsiya instituti «Ekologiya va IYOD» kafedrasi mudiri*

Rizayev A. N. – *texnika fanlari doktori, professor,
Toshkent temiryo'l muhandislari instituti
«Muhandislik kommunikatsiyasi va tizimlari» kafedrasi mudiri*

O'quv qo'llanmada texnik termodinamika asoslari va issiqlik almashinuvni nazariyalari haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Shuningdek, olingen mavzular bo'yicha formulalar va ularga doir misollar ko'rsatilgan. Barcha misollar yechimga ega va namunaviy misollar yechimi bilan ko'rsatilgan. Misollarni yechish uchun kerakli materiallar berilgan, bu materiallar amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydali bo'lishi mumkin, shuningdek oraliq va yakuniy nazorat ishi singari imtihonlarda va talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil loyiha hisob ishlariда qo'llanilishi mumkin.

O'quv qo'llanma oliv o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, issiqlik energiyasiga doir bo'Imagan mutaxassislikda o'qiyotgan, shuningdek, temiryo'lchilar va issiqlik energiyasini o'rganayotganlar uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari oliv texnik o'quv yurtlari o'qituvchilariga, muhandislarga, texnik ishchilarga va ilmiy xodimlarga, shuningdek, issiqlik energiyasi mutaxassislari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim va-zirligining 2020-yil 30-iyundagi 359-sonli buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-6529-6-5

© «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi»

nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020.

© O.S. Ablyalimov, 2020.

2493611

SO'Z BOSHI

«Texnikaviy termodynamika» va «Issiqlik va massa uzatish asoslari bo'limlari uchun vazifalar to'plami «Termodinamika» 5310600 – «Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (lokomotivlar va vagonlar)» va 5111000 – Kasbiy ta'lim (5310600 – «Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (lokomotivlar va vagonlar)») va oliy o'quv yurtlurining nodavlat-ixtisosliklari talabalari uchun o'qitish vositasi niftalda mo'ljallangan.

Texnikaviy termodynamika, issiqlik va massa o'tkazish, issiqliklarni olinish va konvertatsiya qilish usullari, shuningdek, issiqlik va elektr stanasiyalarining ishlatish va loyihalash tamoyillarini o'rganish bo'yicha umumiy texnika qo'llanmasi bo'lib foydalilanadi. Ushbu kursning maqsadi sanovat, transport va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan issiqlik va energetika uskunalarini yetkazib berish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashdir.

Bu masalalar to'plami (o'quv qo'llanma) noenergetik mutaxassislikda tashqil oluvchi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari oliy texnik o'quv yurtlari o'quvchilariga, muhandislariga, texnik ishchilarga va ilmiy xodimlarga, shuningdek, issiqlik energiyasi mutaxassislari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Tekshirish vazifalaridan tashqari darslik qisqacha nazariy fonnini tavsiflaydi va ular uchun asosiy hisoblash formulalarini va tushuntirishlarini beradi. Tekshirish vazifalari javoblarga ega va tipik, odatiy va murakkab vazifalar batafsil yechimlar bilan berilgan. Muammoni hal qilish uchun SUV va SUV bug'larining jadvallari, ma'lumotlar va grafik bog'liqliklar shaklidagi termal xususiyatlariga oid materiallar berilgan.

Texnika fanlari doktori, professor B. I. Bazarov (TAYLQ va El), texnika fanlari doktori professor A. N. Rizayev (TTYMI), PhD, dotsent, ToshDTU «Termodinamika va issiqlik texnikasi» kafedra mudiri A. S. Inaxojayev, ToshDTU «Termodinamika va issiqlik texnikasi» kafedrasini katta o'qituvchisi L. O. Alimova qo'lyozmani diqqat bilan o'qiganligi, foydali maslahatlar va qo'lyozmani ko'rib chiqishda ular tomonidan tuzilgan o'quv qo'llanmaning tarkibi va mazmunini yaxshilash bo'yicha qimmatli izohlari va o'quv ustasi V. V. Agapovga ushbu jarayonda ku'matgan yordami uchun minnatdorlik bildiramiz.

Muallif

ASOSIY SHARTLI BELGILAR

- T – absolyut harorat, (K) °K;
t – muzning erish nuqtasidan hisoblanadigan harorat, °C.
 Δt – haroratlar farqi, °C;
 ρ – zichlik, kg/m³;
 ν – solishtirma hajm, m³/kg;
V – hajm, m³;
m – massa, kg;
p – bosim, Pa (N/m²), kPa, MPa; bar;
 Δp – bosimlar farqi, Pa (N/m²), kPa, MPa;
R – gaz doimiysi, /(kg·°K);
 μ – molekulyar massa, kg/kmol;
c – solishtirma issiqlik sig‘imi, kJ /(kg·°K);
 c^1 – solishtirma hajmiy issiqlik sig‘imi, kJ/(m³·°K);
 μc – molyar issiqlik sig‘imi, kJ /(kmol·°K);
q – solishtirma issiqlik miqdori, J/kg;
Q – issiqlik miqdori, J;
 ℓ – ish, J/kg;
u – ichki energiya, J/ kg
 Δu – ichki energiyaning o‘zgarishi, J/kg;
 i – solishtirma entalpiya, J/kg;
 Δi – entalpiyaning o‘zgarishi, J/kg;
s – entropiya, J/(kg·°K);
 Δs – entropiyaning o‘zgarishi, J/(kg·°K);
 r – bug‘ hosil qilish issiqligi, kJ/kg;
d – namlik miqdori, g/kg quruq havo;
 ϕ – nisbiy namlik, %;
B – yoqilg‘i sarfi, kg/ik;
b – yoqilg‘ining solishtirma sarfi, kg/(kVt·s);
D – bug‘ unumdorligi, kg/ik (ik – ikkita);
 Q_q, Q_{yu} – yoqilg‘ining quyi va yuqori yonish issiqligi, kJ/kg;
 ε – sovutish koeffitsiyenti, siqilish darjası;
 η_t – termik f.i.k.;
 χ – issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/(m·°K);
 α – issiqlik berish koeffitsiyenti, Vt/(m²·°K);
k – issiqlik uzatish koeffitsiyenti, Vt/(m²·°K);
N – quvvat, kVt.

I-BOB. TEKNIK TERMODINAMIKA

1.1. Ishchi jism holatining termik parametrlari. Ideal gazlar holatining asosiy qonunlari va tenglamalari

Termodynamik holat parametrlari tushunchasiga mutlaq (absolyut) bosim (p), solishtirma hajm (v) va mutlaq harorat (T) kiradi.

Termodynamik parametrlar holatning $f(p, v, T) = 0$ ko‘rinishdagi termik tenglamasi tarkibiga kiradi va bevosita o‘lchanishi mumkin.

Mutlaq bosim

Bosim – yuzaga tik ta’sir qilayotgan kuchning (uning normal tarkibiy qismi) ana shu yuza maydoniga nisbati bilan belgilanadigan kattalikdir.

$$p = \frac{F}{S} \quad (1.1)$$

bu yerda p – bosim, Pa; F – kuch, N; S – maydon, m^2 .

Hisob-kitoblarda bir paskalga karrali (bo‘linadigan) kattalikkardan foydalanadilar:

$1\text{ kPa} = 10^3 \text{ Pa}$; $1\text{ MPa} = 10^6 \text{ Pa}$; $1\text{ GPa} = 10^9 \text{ Pa}$;

$1\text{ bar} = 10^5 \text{ Pa} = 100 \text{ kPa}$,

bu yerda bosimni o‘lhash birliklari quyidagi tarzda o‘qiladi: kPa – kilopaskal; MPa – megapaskal; GPa – gigapaskal.

Bosimni o‘lhash texnikasida 1 sm^2 maydonga ta’sir qilayotgan $1\text{ kgs kuchga teng bo‘lgan}$ texnik atmosferani qo’llaydilar.

$$1\text{ at} = 1\text{ kgs / sm}^2.$$

Kichik bosimlarni o‘lhash uchun suyuqlik (suv, simob, spirt va sh.k.) ustuni balandligidan foydalanadi. Suyuqlik ustuni o‘z og’irligi bilan asosga bosim o’tkazadi:

$$p = \rho \cdot g \cdot h, \quad (1.2)$$

(1.2) formuladan quyidagisi kelib chiqadi:

$$h = p / (\rho \cdot g) \quad (1.3)$$

bu yerda p – bosim, Pa;

ρ – suyuqlik zichligi, kg / m³;

$g = 9,80665 \approx 9,81 \text{ m} / \text{s}^2$ – erkin tushish tezlanishi.

Masalan, suv uchun ($\rho_{H_2O} = 1000 \text{ kg} / \text{m}^3$) 1 Pa quyidagi teng:

$$h_{H_2O} = \frac{P}{\rho_{H_2O} \cdot g} = \frac{1}{10^3 \cdot 9,81} = 1,02 \cdot 10^{-4} \text{ m suv ust.} = 0,102 \text{ mm suv ust.},$$

Bu yerda bosim o‘lchov birliklari belgilari quyidagi tarzda o‘qiladi:
m suv ust. – suv ustuni metrlari;
mm suv ust. – suv ustuni millimetrlari.

Bosim p ni yoki bosimlar farqi Δp ni aniqlashda modda zichligining haroratga bog‘liqligini hisobga olish va suyuqlik ustunining 0 °C haroratga balandligini quyidagi formula bo‘yicha keltirish bo‘ladi:

$$h_0 = h \cdot (1 - \beta \cdot t) \quad (1.4)$$

bu yerda h_0 – asbob ko‘rsatkichlari, 0 °C ga keltirilgan, m yoki mm ;

h – ushbu haroratda suyuqlik ustuni balandligi, m yoki mm ;

β – suyuqliknинг hajmiy kengayish koeffitsiyenti, K⁻¹ (simob uchun $\beta = 0,000172 \text{ K}^{-1}$);

t – suyuqlik harorati, °C.

Bosim o‘lchov birliklarini o‘tkazish 1.1-jadvalda keltirilgan.

Termodinamik hisob – kitoblarda atmosfera bosimi, ortiqcha (manometrik) bosim, siyraklashish (vakuum) va mutlaq bosimni farqlaydilar. Bunda normal atmosfera bosimi sifatida dengiz sathi darajasidagi $t = 0$ °C haroratdagи havo ust. 760 mm sim. ust. ga teng bo‘lgan havo bosimini qabul qiladilar.

Bosim o'Ichov birliklarini o'tkazish

Mirlit	Bar	Paskal, Pa (N / m ²)	Fizik atmosfera, atm	Mexanik atmosfera, at (kg / sm ²)	Simob ustuni mil- limetrlari, mm sim. ust.	Suv ustuni mil- limetrlari, mm suv ust.
1 bar	1	10 ⁵	0,987	1,02	750	10200
1 Pa	10 ⁻⁵	1	-	-	-	0,10
1 atm	1,013	101300	1	1,033	760	10330
1 nt	0,981	98100	0,968	1	735,6	10000
1 mm sim. ust.	0,00133	133,3	0,001316	0,00136	1	13,6
1 mm suv. ust.	9,81 · 10 ⁻⁵	9,81	9,68 · 10 ⁻⁵	10 ⁻⁴	0,0736	1

Termodinamikada holat parametr bo'lib, asosan, mutlaq bosim ishlataladi p , Pa.

Texnikada qo'llanadigan asboblar, odatda, mutlaq bosimni emas, balki bosimlar – idishdagi bosim va atmosfera havosi bosimi o'rtasidagi farqni o'Ichaydilar.

Idishdagi bosim atmosfera bosimidan katta bo'lsa, mutlaq bosim quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$p = p_{\text{bar}} + p_m, \quad (1.5)$$

bu yerda p_{bar} – barometrik bosim;

p_m – manometrik bosim yoki ortiqcha bosim.

Shunga o'xshash tarzda, idishdagi bosim atmosfera bosimidan past bo'lganida vakuum yoki siyraklashgan havo o'chanadi va bu holda mutlaq bosim quyidagiga teng bo'ladi:

$$p = p_{\text{bar}} - p_{\text{vak}}, \quad (1.6)$$

bu yerda p_{vak} – vakuummetrik bosim yoki havoning siyraklanishi deb nylladi.

Mutlaq harorat

Harorat jismning qiziganlik yoki sovuq darajasini tavsiflaydigan kattalikdir.

Bugungi kunda muhandislik hisob-kitoblari amaliyotida ikki xil harorat shkalasi keng tarqalgan:

1. Mutlaq harorat – suvning uchtalik nuqtasiga ega bo‘lgan haroratlarning termodinamik shkalasi (suv bir vaqtning o‘zida uchta fazaviy holatda bo‘ladi) $t = 0,01^{\circ}\text{C}$ ($T = 273,16^{\circ}\text{K}$) va $p = 610 \text{ Pa}$ bo‘lganida. Harorat Kelvin shkalasiga binoan o‘lchanadi, $^{\circ}\text{K}$. Hisobning boshlanishi $T = 0^{\circ}\text{K} = -273,15^{\circ}\text{C}$.

2. Xalqaro amaliy haroratlar shkalasi (MPShT) ikki xil emperik nuqtasiga ega: birinchi nuqta – muzning erish, suvning muzlash nuqtasi $t_1 = 0^{\circ}\text{C}$ va $p = 760 \text{ mm sim. ust.}$; ikkinchi nuqta – suvning qaynash nuqtasi $t_2 = 100^{\circ}\text{C}$ va bosim $p = 760 \text{ mm sim. ust teng bo‘lgani qabul qilingan}$. MPShT haroratni o‘lhash uchun Selsiy graduslari qo‘llanadi, $^{\circ}\text{C}$.

Haroratni termodinamik shkaladan haroratlarning amaliy shkalasiga o‘tkazish va ortga qaytarishni quyidagi formula orqali amalga oshirish mumkin:

$$T = t + 273,15^{\circ}\text{K}; \quad (1.7)$$

$$t = T - 273,15^{\circ}\text{C}. \quad (1.8)$$

Termodinamik parametr – mutlaq harorat, kelvinlarda ifodalanadi, $^{\circ}\text{K}$.

Solishtirma hajm

Jismning massa birligiga teng bo‘lgan hajmda solishtirma hajm deyilai:

$$\nu = \frac{1}{\rho}, \quad v = \frac{V}{m}; \quad (1.9)$$

bu yerda v – solishtirma hajm, m^3 / kg ;

V – hajm, m^3 ;

m – modda massasi, kg.

Zichlik ρ – solishtirma hajmga teskari bo‘lgan kattalikdir:

$$\rho = \frac{1}{v}, \quad \rho = \frac{m}{V}; \quad (1.10)$$

bu yerda ρ – modda zichligi, kg / m³;

m – modda massasi, kg;

V – hajm, m³.

Solishtirma hajm va modda zichligi o'rtasidagi nisbat

$$\rho \cdot v = 1. \quad (1.11)$$

Solishtirma og'irlik quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi,
N/m³

$$\gamma = g \cdot \rho \quad (1.12)$$

XIX asrda eksperimentlar yordamida ideal gazga yaqin bo'lgan gazlar uchun termik parametrlar orasidagi quyidagi nisbatlar belgilab olindi:

– izobarik jarayon uchun $p = \text{const}$, $v/T = \text{const}$ – Gey-Lyussak qonuni;

– izoxorik jarayon uchun $v = \text{const}$, $p/T = \text{const}$ – Sharl qonuni;

– izotermik jarayon uchun $T = \text{const}$, $p/\rho = \text{const}$ yoki $\rho \cdot v = \text{const} = p$

• $v = 1$ Boyl – Mariott qonuni nisbatini hisobga olgan holda.

1834-yilda fransuz olimi Klapeyron ana shu qonunlarni birlashtirib, barcha uchta termodinamik (termik) parametr p , v va T larni o'zaro bog'lagan xarakteristik tenglamaga ega bo'ldi. Ushbu tenglama ideal gaz holat tenglamasi deb nomlanadi.

1 kg gaz uchun ideal gaz holat tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$p \cdot v = R \cdot T, \quad (1.13)$$

bu yerda p – mutlaq bosim, Pa;

v – solishtirma hajm, m³ / kg;

T – mutlaq harorat, °K;

R – universal gaz doimiysi yoki gaz doimiysi, J / (kg · °K).

Ushbu tenglamaning chap va o'ng tarafini gaz massasiga ko'paytirib, m massali gaz uchun holat tenglamasini olamiz:

$$p \cdot m \cdot v = m \cdot R \cdot T \text{ yoki } p \cdot V = m \cdot R \cdot T, \quad (1.14)$$

bu yerda $V = m \cdot v$ – gaz hajmi, m³.

SI tizimida modda miqdori mol va kilomollarda o'lchanadi:

$$1 \text{ kmol} = 10^3 \text{ mol.}$$

Gaz (modda) kmoli kilogrammlardagi massasi molyar (nisbiy molekulyar) massaga teng bo'lgan gaz (modda) miqdoriga teng.

Molyar gaz massasi μ – bu gazning 1 kmol miqdorida olingan kilogrammlardagi massasi (moddaning).

Masalan, kislorodda (O_2) 1 kmol 32 kg ga va molyar massa $\mu_{O_2} = 32$ kg/kmolga teng.

Kilomollar soni orqali ifodalangan gaz massasi m , quyidagiga teng

$$m = n \cdot \mu, \quad (1.15)$$

bu yerda m – gaz massasi, kg;

μ – molyar massa, kg / kmol;

n – kilomollar soni, kmol.

Yuqorida berilgan qonunlardan tashqari, gazlar Avogadro qonuniga ham bo'ysunib, unda belgilanishicha, barcha gazlar bir xil harorat va bosimda teng hajmdagi bir xil miqdordagi molekulalarga ega bo'ladilar.

Bundan gaz zichligi uning molyar massasiga to'g'ri proporsional ekanligi kelib chiqadi:

$$\frac{\rho_1}{\rho_2} = \frac{\mu_1}{\mu_2} \quad (1.16)$$

yoki, $\rho \cdot v = 1$ nisbatini hisobga olib, quyidagini olamiz:

$$\frac{v_1}{v_2} = \frac{\mu_1}{\mu_2} \quad (1.17)$$

bundan quyidagi nisbat kelib chiqadi:

$$\mu_1 \cdot v_1 = \mu_2 \cdot v_2 = \mu \cdot v = V_\mu = \text{const}, \quad (1.18)$$

bu yerda V_μ – kilomol hajmi, m^3 / kmol .

Shunday qilib, barcha ideal gazlar uchun bir xil harorat T va bosimda p bir kilomol hajmi ham bir xil bo'ldi.

Normal sharoitlarda ($p_0 = 760$ mm. sim. ust. = 101,3 kPa va $T_0 = 273,15$ °K) har qanday 1 kmol gazning hajmi $V_0 = 22,4146 \text{ m}^3 / \text{kmol}$ ga teng.

D. I. Mendeleyev 1874-yilda μ , kg ideal gaz holati uchun (1 kilomol uchun) universal tenglamasini oldi:

$$p \cdot \mu \cdot v = \mu \cdot R \cdot T \text{ yoki } p \cdot V_\mu = R_\mu \cdot T, \quad (1.19)$$

bu yerda $V_\mu = \mu \cdot v - 1 \text{ kmol hajmi, m}^3 / \text{kmol};$

$R_\mu = \mu \cdot R = 8314,3 \text{ J} / (\text{kmol} \cdot ^\circ\text{K})$ – universal yoki molyar gaz doimiysi.

1.2-jadvalda turli gazlarning molyar massalari keltirilgan.

1.2-jadval

Gazlarning molyar massalari

Gaz	$\mu, \text{kg} / \text{kmol}$
Vodorod H_2	2,016
Azot N_2	28,03
Kislorod O_2	32,00
Havo 21% $O_2 + 79\% N_2$	28,96
Metan CH_4	16,03
Uglerod oksidi CO	28,01
Karbonat angidrid CO_2	44,01
Geliy He	4,003
Argon Ag	39,94

1.1-masala. 1,2 m³ hajmli idishda 2,5 kg uglerod oksidi (CO) bor. Uglerod oksidining solishtirma hajmi va zichligi aniqlansin.

Yechim: Solishtirma hajmi

$$v = \frac{V}{m} = \frac{1,2}{4,8} \frac{m^3}{kg}.$$

Zichligi

$$\rho = \frac{1}{v} = \frac{1}{0,48} \frac{kg}{m^3}.$$

Javob: $v = 0,48 \text{ m}^3 / \text{kg}; \rho = 2,08 \text{ kg} / \text{m}^3.$

1.2-masala. Agar manometr $p_m = 0,18 \text{ MPa}$ ni ko'rsatayotgan bo'lsa, qozondagi bug'ning mutlaq bosimi topilsin. Simobli barometr ko'rsatkichlari bo'yicha atmosfera bosimi $t = 30^\circ\text{C}$ haroratda $P_{bar} = 740 \text{ mm sim. ust.}$ ni tashkil qiladi.

Yechim: Barometr ko'rsatkichlari simobning $t = 30^{\circ}\text{C}$ haroratida olingan. Bu ko'rsatmani quyidagi formula bo'yicha 0°C ga keltirish shart:

$$P_{\text{bar}0} = P_{\text{bar}} \cdot (1 - 0,000172 \cdot t) = 740 \cdot (1 - 0,000172 \cdot 30) = 736,1816 \text{ mm sim.ust.} = 736,1816 \cdot 133,3 = 98133,01 \text{ Pa.}$$

Qozondagi bug'ning mutlaq bosimi:

$$p = p_{\text{bar}} + p_m = 98133,01 + 0,18 \cdot 10^6 = 278133,01 \text{ Pa} = 0,278 \text{ MPa}$$

Javob: $p = 0,228 \text{ MPa.}$

1.3-masala. $0,75 \text{ m}^3$ havo 140°C haroratda idish ichida joylashgan. Idishga ulangan vakuummetr 695 mm suv. ust. siyraklashini ko'rsatadi. Barometrik bosim 745 mm sim. ust. bo'lganida idishdagi gaz massasi aniqlansin.

Yechim: Gazning mutlaq bosimi

$$p = p_{\text{bar}} - p_{\text{vak}} = 745 \cdot 133,3 - 695 \cdot 9,81 = 92490,55 \text{ Pa.}$$

Havoning mutlaq harorati

$$T = t + 273,15 = 140 + 273,15 = 413,15^{\circ}\text{K.}$$

$$R = \frac{R_\mu}{\mu} = \frac{8314}{28,96} = 287,09 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot ^{\circ}\text{K}}$$

Gaz doimiysi

$p \cdot V = m \cdot R \cdot T$ ko'rinishida yozib olingan ideal gaz holatining tenglamasidan gaz massasini ifodalaymiz:

$$m = \frac{p \cdot V}{R \cdot T} = \frac{92490,55 \cdot 0,75}{287,09 \cdot 413,15} = 0,585 \text{ kg.}$$

Javob: $m = 0,585 \text{ kg.}$

1.4-masala. Agar normal fizik sharoitlarda kislorod 5 m^3 hajmni egallasa, u 170°C harorat va $0,5 \text{ MPa}$ bosimda qanday hajm egallyaydi?

Yechim: Normal fizik sharoitlar deganda $p = 760 \text{ mm sim. ust.}$ va $t = 0^{\circ}\text{C}$ bo'lgandagi gaz holati tushuniladi. Normal fizik sharoitlar va mazkur masala fizik sharoitlari uchun ideal gaz holatining tenglamasi:

$$m = \frac{p_1 V_1}{R T_1} = \frac{p_{n.sh} V_{n.sh}}{R T_{n.sh}} \Rightarrow V_1 = \frac{T_1 p_{n.sh} V_{n.sh}}{p_1 T_{n.sh}}$$

Mutlaq bosim:

$$p_{n.sh} = 760 \cdot 133,3 = 101308 \text{ Pa} = 1,013 \cdot 10^5 \text{ Pa};$$

$$p_1 = 0,5 \text{ MPa} = 0,5 \cdot 10^6 \text{ Pa}.$$

Mutlaq harorat:

$$T_{n.sh} = 273,15 \text{ }^{\circ}\text{K};$$

$$T_1 = 170 + 273,15 = 443,15 \text{ }^{\circ}\text{K}$$

Berilgan sharoitlarda hajmni hisoblab topish uchun $p_{n.sh}$, p_1 , $T_{n.sh}$, T_1 qiymatlarini formulaga qo'yib ko'ramiz:

$$V_1 = \frac{443,15 \cdot 1,013 \cdot 10^5 \cdot 5}{0,5 \cdot 10^6 \cdot 273,15} = 1,643 \text{ m}^3$$

Javob: $V = 1,643 \text{ m}^3$.

1.5-masala. Azot harorati $70 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'lganida 5 kg azot 2 m^3 hajmni egallaydigan bosim aniqlansin?

Javob: $0,25 \text{ MPa}$.

1.6-masala. $0,5 \text{ m}^3$ sig'imli ballonda $30 \text{ }^{\circ}\text{C}$ harorat va $0,5 \text{ MPa}$ ortiqcha bosimda azot bor. Agar ortiqcha bosim $0,2 \text{ MPa}$ gacha, harorat esa – $20 \text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha pasaygan bo'lsa, ballondan chiqarib yuborilgan azot massasi aniqlansin. Barometrik bosim 750 mm simob ust. ga teng.

Javob: $1,61 \text{ kg}$.

1.7-masala. Havo hajmi $0,6 \text{ MPa}$ bosim va $100 \text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda 3 m^3 ni tashkil qiladi. Normal fizik sharoitlarda havo qanday hajm egallaydi?

Javob: 13 m^3 .

1.8-masala. Agar vodorod $50 \text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda idish ichida joylashib, barometrik bosim 760 mm sim. ust. ga teng bo'lganida, uning ortiqcha bosimi 50 mm suv ust. ga teng bo'lsa, vodorod zichligi aniqlansin.

Javob: $0,079 \text{ kg / m}^3$.

1.9-masala. Qo'zg'aluvchan porshenli silindrda $0,1 \text{ MPa}$ bosim ostidagi $0,2 \text{ m}^3$ bor. Bosim $0,2 \text{ MPa}$ gacha oshganida havo harorati o'zgarmasligi uchun hajm qay darajada o'zgarishi kerak?

Javob: Hajmi 2 marotaba kamayadi.

1.10-masala. $0,6 \text{ m}$ diametrli silindr ichida $0,25 \text{ MPa}$ bosim va $t_1 = 35 \text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda $0,4 \text{ m}^3$ havo mavjud. Ishqalanishsiz harakatlanayotgan porshen $0,4 \text{ m}$ ga ko'tarilishi uchun havo doimiy bosimda qanday haroratga (t_2) qadar isitilishi kerak?

Javob: $t_2 = 122 \text{ }^{\circ}\text{C}$.

1.2. Gaz aralashmaları. Gazlar va gaz aralashmalarining issiqlik sig‘imlari

Issiqlik sig‘imi tushunchasini fanga birinchi bo‘lib ingliz fizigi Blek 1760-yilda quyidagi ko‘rinishda kiritgan: «Moddaning issiqlik sig‘imi jismni 1°C (1°K) ga isitish yoki sovutish uchun zarur bo‘lgan issiqlik miqdoriga teng»

$$C = \frac{\delta Q}{dT} = \frac{\delta Q}{dt}, \quad (1.20)$$

bu yerda C – moddaning issiqlik sig‘imi, $\text{J} / {}^{\circ}\text{K} = \text{J} / {}^{\circ}\text{C}$;

δQ – issiqliknинг elementar miqdori, J ;

dT – jism haroratining o‘zgarishi, ${}^{\circ}\text{K}$;

dt – jism haroratining o‘zgarishi, ${}^{\circ}\text{C}$.

Zamonaviy izoh bilan aytganda, issiqlik sig‘imi harorat o‘zgarishi va ana shu o‘zgarishni keltirib chiqargan issiqlik miqdori o‘rtasidagi mutanosiblik (proporsionallilik) koeffitsiyentidir

$$\delta Q = C \cdot dT = C \cdot dt. \quad (1.21)$$

Eslatib o‘tamiz, haroratlarning termodinamik shkalasida harorat o‘zgarishi va haroratlarning xalqaro amaliy shkalasi bo‘yicha o‘zaro teng: $dT = dt$.

Issiqlik sig‘imi – haroratga bog‘liq holda tajribalar yordamida aniqlanadigan moddaning fizik tavsifi.

Termodinamik jarayonda ishchi jismga berilgan issiqlik miqdori shu jismning solishtirma issiqlik sig‘imi orqali aniqlanadi:

c – solishtirma massa issiqlik sig‘imi, $\text{J} / (\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K})$

$$c = \frac{C}{m}. \quad (1.22)$$

bu yerda C – moddaning issiqlik sig‘imi, $\text{J} / {}^{\circ}\text{K}$;

m – modda massasi, kg ;

c' – solishtirma hajmiy issiqlik sig‘imi, $\text{J} / (\text{m}^3 \cdot {}^{\circ}\text{K})$

$$c' = \frac{C}{V}, \quad (1.23)$$

bu yerda C – moddaning issiqlik sig‘imi, $\text{J} / {}^{\circ}\text{K}$;

V – moddaning hajmi, m^3 ;

c_{μ} – solishtirma mollardagi yoki molyar issiqlik sig‘imi, $\text{J} / (\text{kmol} \cdot {}^{\circ}\text{K})$

$$c_{\mu} = \frac{C}{n}, \quad (1.24)$$

bu yerda C – issiqlik sig‘imi, $J / {}^{\circ}\text{K}$;
 n – modda miqdori, kmol.

Izoh. Molyar issiqlik sig‘imini belgilash uchun shuningdek $\mu c \equiv c_{\mu}$ belgisidan ham foydalanadilar.

Modda massasi quyidagiga teng ekanligini hisobga olib,

$$m = \rho \cdot V = \mu \cdot n \quad (1.25)$$

Solishtirma issiqlik sig‘imlari uchun quyidagi nisbatlarga ega bo‘lamiz:

$$c = \frac{c'}{\rho} = \frac{c_{\mu}}{\mu}, \quad (1.26)$$

bu yerda c – solishtirma massa issiqlik sig‘imi, $J / (\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K})$;
 c' – solishtirma hajmiy issiqlik sig‘imi, $J / (\text{m}^3 \cdot {}^{\circ}\text{K})$;
 c_{μ} – molyar issiqlik sig‘imi, $J / (\text{kmol} \cdot {}^{\circ}\text{K})$;
 ρ – moddaning zichligi, kg / m^3 ;
 μ – molyar massa, kg / kmol ;
 n – moddaning miqdori, kmol.

Issiqlik sig‘imi termodynamik jarayonning kechish xarakteriga bog‘liq bo‘lib, umumiy holda, $u - \infty$ dan $+ \infty$ gacha oraliqda o‘zgarishi mumkin.

Termodynamik hisob – kitoblarda doimiy hajm c_v va doimiy bosim c_p dagi solishtirma issiqlik sig‘imlari eng ko‘p qo‘llagan holda hisoblab topish mumkin.

Ideal gazning issiqlik sig‘imi harorat va bosimga bog‘liq emas va uni gazlarning molekulyar-kinetik nazariyasini qo‘llagan holda hisoblab topish mumkin.

Molekulyar – kinetik nazariyasiga muvofiq ideal gazlarning solishtirma molyar, massa va hajmiy izoxorik izobarik issiqlik sig‘imlari doimiy bo‘lib, quyidagi formulalarga binoan hisoblab topiladi:

$$\mu c_v = \frac{R_{\mu}}{2} \cdot i, \frac{J}{\text{kmol} \cdot {}^{\circ}\text{K}};$$

$$\mu c_p = \frac{R_{\mu}}{2} \cdot (i + 2), \frac{J}{\text{kmol} \cdot {}^{\circ}\text{K}};$$

$$c_v = \frac{\mu c_v}{\mu} = \frac{R}{2} \cdot i, \frac{J}{\text{kmol} \cdot {}^{\circ}\text{K}};$$

$$c_p = \frac{\mu c_p}{\mu} = (i + 2) \frac{J}{kmol \cdot {}^{\circ}K};$$

$$c'_v = \frac{\mu c_v}{v_\mu} = \frac{J}{m^3 \cdot {}^{\circ}K}; \quad (1.27)$$

$$c'_p = \frac{\mu c_p}{v_\mu} = \frac{J}{m^3 \cdot {}^{\circ}K};$$

$$c'_{v_{n,sh}} = \frac{\mu c_v}{22,4} = \frac{J}{Nm^3 \cdot {}^{\circ}K};$$

$$c'_{v_{n,sh}} = \frac{\mu c_p}{22,4} = \frac{J}{Nm^3 \cdot {}^{\circ}K}.$$

bu yerda i – ushbu gaz molekulasi erkinlik darajalari soni;

V_u – kmol gaz hajmi, m / kmol;

R – gaz doimiysi, J / (kg · {}^{\circ}K);

R_μ – universal gaz doimiysi, $R_\mu = 8314$ J / (kmol · {}^{\circ}K).

Bir atomli gaz uchun $i = 3$, ikki atomli gazlar uchun $i = 5$, uch va ko‘p atomli gazlar uchun esa $i = 6$.

Ideal gazlarning izobarik va izoxorik issiqlik sig‘imlari o‘zaro Mayer tenglamasi yordamida bog‘langan:

$$c_p - c_v = R$$

yoki:

$$\mu c_p - \mu c_v = R_\mu. \quad (1.28)$$

Puasson koeffitsiyenti yoki adiabata ko‘rsatkichi quyidagiga teng:

$$k = \frac{c_p}{c_v} = \frac{\mu c_p}{\mu c_v} \quad (1.29)$$

Real moddalarning issiqlik sig‘imi

Real gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlarning issiqlik sig‘imi haroratga bog‘liq holda eksperiment (tajriba) orqali topilib, spravochniklarda keltiradilar. 1-2 jarayonlardagi o‘rtacha solishtirma issiqlik sig‘imi quyidagiga teng:

$$\bar{c} = \frac{q_{12}}{T_2 - T_1} = \frac{q_{12}}{t_2 - t_1} \quad (1.30)$$

bu yerda \bar{c} - o'rtacha massa issiqlik sig'imi, $J / (\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K})$.

Spravochniklarda izobarik issiqlik sig'implari qiymatlari keltiriladi. Bunda, agar haqiqiy issiqlik sig'imi $c(t)$ ma'lum bo'lsa, u holda o'rtacha issiqlik sig'imiini quyidagi formulalar bo'yicha hisoblab topish mumkin:

$$\bar{c}_p = \frac{q_{12}}{t_2 - t_1} = \frac{1}{t_2 - t_1} \int_{t_1}^{t_2} c_p(t) dt \quad (1.31)$$

yoki:

$$\bar{c}_p = c_p|_{t_1}^{t_2} = \frac{c_p|_{t_1}^{t_2} \cdot t_2 - c_p|_{t_1}^{t_2} \cdot t_1}{t_2 - t_1}, \quad (1.32)$$

$c_p|_{t_1}^{t_2} = \frac{1}{t_2 - t_1} \int_{t_1}^{t_2} c_p(t) dt$ – bu yerda $-0 \div t$ haroratlar intervalidagi o'rtacha issiqlik sig'imi.

Ideal gaz aralashmalari

Ideal gaz aralashmalari ideal gaz holati tenglamasiga bo'y sunadilar:

$$P_{\text{aral}} \cdot v_{\text{aral}} = R_{\text{aral}} \cdot T_{\text{aral}} - 1 \text{ kg gaz aralashmasi uchun,} \quad (1.33)$$

bu yerda R_{aral} – aralashmaning gaz doimiysi.

$$R_{\text{aral}} = \frac{R_\mu}{\mu_{\text{aral}}} \quad (1.33')$$

Ideal gazlar aralashmasi tarkibi massa yoki hajmiy ulushlar bilan berilishi ham mumkin. Aralashmaning massa ulushi quyidagiga teng:

$$g_i = \frac{m_i}{m_{\text{aral}}} \quad (1.34)$$

bu yerda m_i – gazlar aralashmasi i – nchi komponenti massasi, kg;

m_{aral} – aralashma massasi, kg.

Aralashmaning hajmiy ulushi quyidagiga teng:

$$r_i = \frac{v_i}{v_{\text{aral}}} = \frac{p_i}{p_{\text{aral}}} \quad (1.35)$$

bu yerda V_i, p_i – gazlar aralashmasi i – nchi komponentining parsial hajmi va parsial bosimi;

$V_{\text{aral}}, p_{\text{aral}}$ – gazlar aralashmasining hajmi va bosimi.

Gazlar aralashmasining massa va hajmiy ulushlari summasi birga teng:

$$\sum_{i=1}^n g_i = 1, \quad \sum_{i=1}^n r_i = 1. \quad (1.36)$$

Gaz aralashmasining massa va hajmiy ulushlari orasida quyidagi nisbatlar mavjud:

$$g_i = r_i \frac{\mu_i}{\mu_{aral}} = r_i \frac{R_{aral}}{R_i};$$

$$r_i = g_i \frac{\mu_{aral}}{\mu_i} = g_i \frac{R_i}{R_{aral}} \quad (1.37)$$

bu yerda μ_{aral} – kilomol aralashmaning massasi, kg / kmol;
 R_{aral} – aralashmaning gaz doimiysi, J / (kg ·°K).

Aralashmaning molyar massasi va gaz doimiysi ideal gazlar aralashmasi n quyidagi formulalar bo'yicha hisoblab topiladi:

$$\mu_{aral} = \sum_{i=1}^n r_i \cdot \mu_i;$$

$$R_{aral} = \sum_{i=1}^n g_i \cdot R_i \quad (1.38)$$

Termodynamik hisob-kitoblarda quyidagilar hisobga olinishi shart:

$$R_{aral} = \frac{R_\mu}{\mu_{aral}} = \frac{8314}{\mu_{aral}} \quad (1.38')$$

Ideal gazlar aralashmasi n ning massa, molyar va hajmiy issiqlik sig'imi quyidagi formulalar bo'yicha hisoblab topiladi:

$$c_{aral} = \sum_{i=1}^n g_i \cdot c_i;$$

$$\mu c_{aral} = \sum_{i=1}^n r_i \cdot \mu c_i$$

$$c'_{aral} = \sum_{i=1}^n r_i \cdot c'_i \quad (1.39)$$

Puasson koeffitsiyenti (adiabata ko'rsatkichi) ideal gazlar aralashmasi uchun quyidagiga teng:

$$k_{aral} = \frac{\mu c_{p.aral}}{\mu c_{v.aral}} = \frac{c_{p.aral}}{c_{v.aral}} \quad (1.40)$$

1.11-masala. Gaz aralashmasi tarkibiga quyidagilar kiradi: 2,5 kg azot, 6 kg kislorod va 1,5 kg ikki oksidli uglerod (dvuokis). Barcha gazlar ideal deb hisoblanib, aralashma 4 bar bosim va 189 °C haroratda qanday hajmni egallashi aniqlansin.

Yechim: Aralashmaning massasi:

$$m_{\text{aral}} = m_{\text{N}_2} + m_{\text{O}_2} + m_{\text{CO}_2} = 2,5 + 6 + 1,5 = 10 \text{ kg.}$$

Aralashmaning massaviy ulushlari:

$$g_{\text{O}_2} = 0,6; g_{\text{N}_2} = 0,25; g_{\text{CO}_2} = 0,15.$$

Aralashmaning gaz doimiysi:

$$R_{\text{aral}} = \sum_{i=1}^m g_i R_i = 0,6 \cdot \frac{8314}{32} + 0,25 \cdot \frac{8314}{28} + 0,15 \cdot \frac{8314}{44} = 258,463 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot {}^\circ\text{K}}.$$

Aralashmaning hajmi:

$$V_{\text{aral}} = \frac{m_{\text{aral}} \cdot R_{\text{aral}} \cdot T_{\text{aral}}}{p_{\text{aral}}} = \frac{10 \cdot 258,463 \cdot (189 + 273,15)}{4 \cdot 10^5} = 2,986 \text{ m}^3$$

Javob: $V_{\text{aral}} = 2,986 \text{ m}^3$.

1.12-masala. Havo atmosferasidagi azotning solishtirma izobarali va izoxorali issiqlik sig‘imlari aniqlansin.

Yechim: Havo atmosferasidagi azot – ikki atomli gaz. Erkinlik darajalari soni $i = 5$, atmosfera azotining molyar massasi $\mu = 28,16 \text{ kg / kmol}$.

- Havo atmosferasi tarkibidagi azotning solishtirma molyar izoxorali issiqlik sig‘imi:

$$\mu c_v = R_\mu \frac{i}{2} = 8314 \frac{5}{2} = 20780 \frac{\text{J}}{\text{kmol} \cdot {}^\circ\text{K}}.$$

Mayer tenglamasiga ko‘ra atmosfera havo tarkibidagi azotning solishtirma molyar izobarali issiqlik sig‘imini aniqlash mumkin:

$$\mu c_p = \mu c_v + R_\mu = 29099 \frac{\text{J}}{\text{kmol} \cdot {}^\circ\text{K}}.$$

Solishtirma issiqlik sig‘imlari orasidagi nisbatlardan foydalanib quyidagilarni olamiz:

- massa issiqlik sig‘imlari:

$$c_p = \frac{\mu c_p}{\mu} = \frac{29099}{28,16} = 1033,345 \frac{J}{kg \cdot ^\circ K};$$

$$c_v = \frac{\mu c_v}{\mu} = \frac{20780}{28,16} = 737,926 \frac{J}{kg \cdot ^\circ K}.$$

- ($V_{\mu n.sh} = 22,4 \text{ Nm}^3/\text{kmol}$) bo‘lganida normal fizik sharoitlardagi hajmiy issiqlik sig‘imlari:

$$c'_{v n.sh} = \frac{\mu c_v}{V_{\mu n.sh}} = \frac{20780}{22,4} = 927,618 \frac{J}{Nm^3 \cdot ^\circ K},$$

$$c'_{p n.sh} = \frac{\mu c_p}{V_{\mu n.sh}} = \frac{29099}{22,4} = 1299,06 \frac{J}{Nm^3 \cdot ^\circ K}.$$

1.13-masala. O‘rtacha issiqlik sig‘imlari jadvallari bo‘yicha [3] harorat $200^\circ C$ dan $1200^\circ C$ gacha o‘zgarishida normal sharoitlardagi gazlar aralashmasi uchun o‘rtacha hajmiy izobarik issiqlik sig‘imi aniqlansin. Aralashmaning hajmiy tarkibi: 13,5 % karbonat angidrid, 7,5 % kislород, 79 % azot.

Yechim: O‘rtacha issiqlik sig‘imlari jadvallari bo‘yicha molyar issiqlik sig‘imlari haroratning $0^\circ C$ dan $t^\circ C$ gacha interval oraliq‘ida quyidagiga teng bo‘ladi:

- karbonat angidrid:

$$\mu c_{pm \mid_0^{200}} = 40,06 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K};$$

$$\mu c_{pm \mid_0^{1200}} = 50,74 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K}.$$

- kislород:

$$\mu c_{pm \mid_0^{200}} = 29,93 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K};$$

$$\mu c_{pm \mid_0^{1200}} = 33,63 \frac{kDj}{kmol \cdot K};$$

- azot:

$$\mu c_{pm \mid_0^{200}} = 29,29 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K};$$

$$\mu c_{pm \mid_0^{1200}} = 31,82 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K}.$$

Aralashma komponentlari haroratning $t_1 \div t_2$ intervalidagi o'rtacha molyar issiqlik sig'iimlarini quyidagi formula bo'yicha hisoblab topamiz:

$$\mu c_{pm} \Big|_{t_1}^{t_2} = \frac{\mu c_{pm} \Big|_{t_0}^{t_2} - \mu c_{pm} \Big|_{t_0}^{t_1}}{t_2 - t_1}$$

Aralashma komponentlari $t_1 \div t_2$ harorat intervalidagi o'rtacha molyar issiqlik sig'iimlari:

- karbonat angidrid:

$$\mu c_{pm} \Big|_{200}^{1200} = \frac{50,74 \cdot 1200 - 29,93 \cdot 200}{1200 - 200} = 52,876 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K},$$

- kislород:

$$\mu c_{pm} \Big|_{200}^{1200} = \frac{33,63 \cdot 1200 - 29,93 \cdot 200}{1200 - 200} = 34,37 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K},$$

- azot:

$$\mu c_{pm} \Big|_{200}^{1200} = \frac{31,82 \cdot 1200 - 29,29 \cdot 200}{1200 - 200} = 32,326 \frac{kJ}{kmol \cdot ^\circ K}.$$

Normal sharoitlarda gaz aralashmasi komponentlari o'rtacha hajmiy izobarik issiqlik sig'iimlari:

- karbonat angidrid:

$$c'_{pm,n.sh} = \frac{\mu c_{pm}}{V_{\mu n.sh}},$$

$$c'_{pm,n.sh} = \frac{52,876}{22,4} = 2,36 \frac{J}{Nm^3 \cdot ^\circ K},$$

- kislород:

$$c'_{pm,n.sh} = \frac{34,37}{22,4} = 1,534 \frac{J}{Nm^3 \cdot ^\circ K},$$

- azot:

$$c'_{pm,n.sh} = \frac{32,326}{22,4} = 1,44 \frac{J}{Nm^3 \cdot ^\circ K},$$

Gaz aralashmasi komponentlari o'rtacha molyar issiqlik sig'implari:

$$c'_{pm,aral} = \sum_{i=1}^m r_i \cdot c'_{pm_i} = 0,135 \cdot 2,36 + 0,075 \cdot 1,534 + 0,79 \cdot 1,44 =$$

$$1,57 \frac{\text{J}}{\text{Nm}^3 \cdot {}^\circ\text{K}}$$

Javob: $c'_{pm,n.sh} = 1,57 \text{ J / Nm}^3 \cdot {}^\circ\text{K}$

1.14-masala. $\mu = 42 \text{ kg / kmol}$ bo'lgan gaz aralashmasining haqiqiy molyar izobarik issiqlik sig'imi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\mu c_p = 40 + 0,003 \cdot t + 0,000001t^2, \frac{\text{J}}{\text{Nm}^3 \cdot {}^\circ\text{K}}$$

Izoxorik jarayonda aralashma $90 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $900 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha qiziydi. 8 kg aralashmani qizdirishga ketadigan issiqlik sarfi aniqlansin.

Yechim: Izoxorik jarayon issiqligi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$Q_v = m \cdot q_v,$$

bu yerda $q_v = \int_{t_1}^{t_2} c_v \cdot dt,$

$$c_v = \frac{\mu c_p}{\mu} = \frac{\mu c_p - R_\mu}{\mu} = \frac{40 + 0,003 \cdot t + 0,000001 \cdot t^2 - 8,314}{42} = \\ = \frac{31,686 + 0,003 \cdot t + 0,000001 \cdot t^2}{42}.$$

$$q_v = \int_{90}^{900} \frac{31,686 + 0,003 \cdot t + 0,000001 \cdot t^2}{42} \cdot dt$$

$$= \frac{1}{42} \left[31,686 \cdot t + 0,003 \frac{t^2}{2} + 0,000001 \cdot \frac{t^3}{3} \right]_{90}^{900} = 645,5 \frac{\text{kJ}}{\text{kg}}$$

$$Q_v = 8 \cdot 645,5 = 5164 \text{ kJ.}$$

Javob: $Q_v = 5164 \text{ kJ.}$

1.15-masala. Vodorod va metan aralashmasining gaz doimiysi $2520 \text{ J / (kg } {}^\circ\text{K)}$ ga teng. Aralashmaning massasi va hajmi bo'yicha tarkibi aniqlansin.

Javob: $r_{H_2} = 0,907; \quad r_{CH_4} = 0,093;$
 $g_{H_2} = 0,55; \quad g_{CH_4} = 0,45.$

1.16-masala. Aralashma azot va uglerod ikki oksididan iborat. 27°C haroratda va manometrik bosim 2 bar bo‘lganida 4 kg aralashma $0,96 \text{ m}^3$ hajmni egallaydi. Gazlarni ideal deb hisoblab, agar simobli barometr 27°C haroratda atmosfera havosining 730 mm sim. ust. bosimini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, aralashma uchun gaz doimiysi, molyar massasi, zichlik va solishtirma hajm, shuningdek, aralashma komponentlari parsial bosimlari aniqlansin.

Javob: $R = 237 \text{ J / kg} \cdot ^{\circ}\text{K}$; $\mu = 35 \text{ kg / kmol}$; $v = 0,24 \text{ m}^3 / \text{kg}$;
 $\rho = 4,16 \text{ kg / m}^3$; $p_{\text{N}_2} = 1,67 \text{ bar}$; $p_{\text{CO}_2} = 1,33 \text{ bar}$.

1.17-masala. Ideal gazlar aralashmasi massasi bo‘yicha 20 % ga SO_2 , 15 % SO , 10 % O_2 , 55 % N_2 lardan tashkil topgan. Agar aralashmaning bosimi 0,5 MPa bo‘lsa, aralashmaning hajmiy tarkibi, aralashma tarkibiga kirgan gazlarning parsial bosimlari, molyar va massa izoxorali issiqlik sig‘imlari aniqlansin.

Javob: $r_{\text{CO}_2} = 0,139$; $p_{\text{CO}_2} = 0,0695 \text{ MPa}$;
 $r_{\text{CO}} = 0,164$; $p_{\text{CO}} = 0,082 \text{ MPa}$;
 $r_{\text{O}_2} = 0,096$; $r_{\text{O}_2} = 0,048 \text{ MPa}$;
 $r_{\text{N}_2} = 0,601$; $p_{\text{N}_2} = 0,3005 \text{ MPa}$;
 $c_{u_{\text{ara}}} = 0,7216 \text{ kJ / kg} \cdot ^{\circ}\text{K}$; $\mu_{u_{\text{ara}}} = 23,87 \text{ kJ / kmol} \cdot ^{\circ}\text{K}$.

1.18-masala. Ideal gazlar aralashmasi 6 kg SO_2 , 4 kg O_2 va 10 kg N_2 dan tashkil topgan. Aralashmaning gaz doimiysi, aralashmaning molyar massasi va aralashmaning massa izobarali issiqlik sig‘imi aniqlansin.

Javob: $R_{\text{ara}} = 256,35 \text{ J / (kg} \cdot ^{\circ}\text{K)}$; $\mu_{\text{ara}} = 32,43 \text{ kg / kmol}$;
 $c_{p_{\text{ara}}} = 0,5906 \text{ kJ / (kg} \cdot ^{\circ}\text{K)}$;

1.19-masala. Agar aralashmaning hajmiy tarkibi: 10 % vodorod, 10 % uglerod oksidi, 40 % karbonat angidrid, 40 % azot sifatida berilgan bo‘lsa, ideal gazlar aralashmasining massa izoxora va izobara issiqlik sig‘imlari aniqlansin.

Javob: $c_o = 0,706 \text{ kJ / (kg} \cdot ^{\circ}\text{K)}$; $c_p = 0,976 \text{ kJ / (kg} \cdot ^{\circ}\text{K)}$.

1.20-masala. Agar quyidagicha bo‘lsa, havoning o‘rtacha haroratlari $200^{\circ}\text{C} \div 800^{\circ}\text{C}$ intervalida havoning doimiy bosimidagi massa issiqlik sig‘imi hisoblab aniqlansin:

a) o‘rtacha massa izobaralni issiqlik sig‘imlari berilgan:

$$c_{pm} |^{200} = 1,0115 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot ^{\circ}\text{K}}$$

$$c_{pm} |^{800} = 1,0710 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot ^{\circ}\text{K}}$$

b) havoning o‘rtacha molyar izobarali issiqlik sig‘imi berilgan bo‘lib, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\mu c_{pm} = 28,827 + 0,0027080 \cdot t.$$

Javob:

$$a) c_{pm} + \frac{800}{200} = 1,09 \frac{kJ}{kg \cdot ^\circ K};$$

$$b) c_{pm} + \frac{800}{200} = 1,088 \frac{kJ}{kg \cdot ^\circ K}.$$

1.3. Ideal gazlar holatining o‘zgarishiga doir termodinamik jarayonlar

Gazlarning termodinamik jarayonlari politrop va izotrop jarayonlarga (izojarayonlar) bo‘linadilar. Politrop jarayonlarda bir vaqtning o‘zida barcha holat parametrlar o‘zgaradi. Izotrop jarayonlarda parametrlardan biri o‘zgarmay qoladi.

Ideal gaz holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq asosiy izojarayonlar (izobarali, izoxorali, izotermik, adiabatali) politrop jarayonning xususiy holati bo‘lib, uning tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$p \cdot v^n = \text{const}, \quad (1.41)$$

bu yerda n - politropa ko‘rsatkichi.

Politropa ko‘rsatkichi quyidagi formula bo‘yicha hisoblab topiladi:

$$n = \frac{c_p - c_v}{c_p - c_v} \quad (1.42)$$

bu yerda c – politrop jarayonning massasi bo‘yicha solishtirma issiqlik sig‘imi, $J / (kg \cdot ^\circ K)$;

c_p – doimiy bosimdagи massasi bo‘yicha solishtirma issiqlik sig‘imi (izobarik issiqlik sig‘imi), $J / (kg \cdot ^\circ K)$;

c_v – doimiy hajmdagi solishtirma yalpi issiqlik sig‘imi (izoxorali issiqlik sig‘imi), $J / (kg \cdot ^\circ K)$.

Politrop jarayon issiqlik sig‘imining hisob-kitobi uchun mo‘ljallangan ifoda:

$$c = c_v \frac{k-n}{1-n} \quad (1.43)$$

bu yerda $k = c_p / c_v$ - adiabata ko'rsatkichi (Puasson koeffitsiyenti).

Asosiy termodynamik jarayonlar va ana shu jarayonlar uchun issiqlik sig'imi qiymati politropa ko'rsatkichining quyidagi qiyatlarida olinadi:

- izobarik jarayon $p = \text{const}$, $n = 0$.

$$p \cdot v^0 = p = \text{const}, \quad (1.44)$$

izobarali jarayon issiqlik sig'imi quyidagiga teng $c = c_p$;

- izoxorik jarayon $v = \text{const}$, $n = \pm\infty$.

$$p \cdot v^n = p^{\frac{1}{n}} \cdot v = v = \text{const} \quad (1.45)$$

izoxora jarayonning issiqlik sig'imi quyidagiga teng $c = c_v$;

- izotermik jarayoni $T = \text{const}$, $n = 1$.

$$p \cdot v^1 = p \cdot v = \text{const}, \quad (1.46)$$

izotermik jarayonning issiqlik sig'imi gaz kengayganida $c = +\infty$ ga va gaz torayganida $c = -\infty$ ga teng;

- adiabatali jarayon $\delta q = 0$, $n = k$.

$$p \cdot v^n = \text{const}, \quad (1.47)$$

adiabata jarayonining issiqlik sig'imi quyidagiga teng $c = 0$.

Ideal gazlar politrop jarayonlarining tahlili va hisobi termodinamika tenglamalari va qonunlari asosida o'tkazilib, o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- jarayon boshlang'ich va so'nggi nuqtalari uchun p , v va T termik parametrlar hisobi;

- q jarayonda solishtirma iliqlik hisobi;

- hajm o'zgarganda ℓ ishining hisobi;

- ichki energiya Δu , entalpiya Δi va entropiya Δs o'zgarishining hisobi.

Yuqorida keltirilgan kattaliklarning hisobiy formulalari 1.3-jadvalda keltirilgan.

**Ideal gazlar holati o'zgarishlari termodinamik
jarayonlarining hisobiy formulalari**



Jarayon	s	n	α	p, v, T	ℓ
$p = \text{const}$	c_p	0	$\frac{1}{k}$	$\frac{v}{T} = \text{const}$	$p \cdot \Delta v = R \cdot \Delta t$
$v = \text{const}$	c_v	$\pm\infty$	1	$\frac{p}{T} = \text{const}$	0
$T = \text{const}$	∞	1	0	$p \cdot v = \text{const}$	$RT \ln \frac{p_1}{p_2}$
$dq = 0$	0	k	∞	$p \cdot v^k = \text{const}$ $T \cdot v^{k-1} = \text{const}$ $T \cdot p^{\frac{1-k}{k}} = \text{const}$	$u_1 - u_2 = c_v \cdot (T_1 - T_2) = (p_1 v_1 - p_2 v_2)/(k-1)$
Politropoli			$\frac{1-n}{k-n}$	$p \cdot v^n = \text{const}$ $T \cdot v^{n-1} = \text{const}$ $T \cdot p^{\frac{1-n}{n}} = \text{const}$	

1.3-jadv. davomi

Jarayon	Δs	Q	$\Delta u, \Delta i$
$p = \text{const}$	$c_p \ln \frac{T_2}{T_1}$	$c_p \cdot \Delta t$	
$v = \text{const}$	$c_v \ln \frac{T_2}{T_1}$	$c_v \cdot \Delta t$	
$T = \text{const}$	$R \ln \frac{P_1}{P_2}$	$RT \ln \frac{P_1}{P_2}$	
$dq = 0$	0	0	
Politropoli	$c \cdot \ln(T_2/T_1)$	$c \cdot \Delta t$	$\Delta u = c_p \cdot \Delta t$ $\Delta i = c_v \cdot \Delta t$

Ideal gaz holati o'zgarishining termik va energetik parametrlari hisobi
 p, v - va T, s - diagrammalarda jarayon grafigini qurish bilan to'ldirilishi lozim.



p, v - va T, s - diagrammalardagi 1,1 va 1.2-rasmlarda termodinamik jarayonlar tasvirlangan.



**1.1-rasm. p, v - diagrammalarida
ideal gazlar holati
o'zgarishining politropli
jarayonlari**

**1.2-rasm.
 T, s - diagrammadagi ideal
gazlar holati o'zgarishining
politropli jarayonlari**

Ideal gazning kengayishi 1-2 va siqilishining 1-2 (1.3-rasm) izotermik jarayonini ko'rib chiqamiz.



1.3-rasm. Ideal gaz kengayishi va siqilishining izotermik jarayoni

Ideal gazning izotermik kengayishida ($v \uparrow \Rightarrow dv > 0$) musbat ish sodir etiladi, chunki bu holda $dv > 0$ ga teng va bu holda $\delta\ell > 0$ (mexanik ish topilishidan $\delta\ell = pdv$) ekanligi kelib chiqadi. Bunda Boyl - Mariott $p \cdot v = \text{const}$ qonunidan ko'rinib turibdiki, gaz hajmi kattalashishi bilan bosim tushib ketadi ($p \downarrow \Rightarrow dp < 0$). Izotermik jarayon shartidan kelib chiqib turibdiki ($T = \text{const} \Rightarrow dT = 0$), gazning ichki energiyasi va entalpiyalari o'zgarmaydil ($u = \text{const} \Rightarrow du = 0$ va $i = \text{const} \Rightarrow di = 0$). $du = 0$ ekanligini

hisobga olib, termodinamikaning birinchi qonuni $\delta q = \delta l$ ko‘rinishga ega bo‘ladi, buning asosida hajm o‘zgarishining musbat ishi ($\delta l > 0$ kengayish ishi) issiqlik keltirilganida $\delta q > 0$, hamda mos ravishda, entropiya ortishi ($s \uparrow \Rightarrow ds > 0$) bilan yuz beradi deb xulosa qilish mumkin. Qisqacha qilib, izotermik kengayishda holat funksiyalari doimiy bo‘lib, termodinamik parametrlar, ish va issiqlik esa quyidagi tarzda o‘zgaradilar deb yozib olish mumkin:

$$T = \text{const}; v \uparrow; p \downarrow; u = i = \text{const}; s \uparrow \quad (1.48)$$

yoki:

$$\begin{aligned} dT = 0; dv > 0; dp < 0; du = 0; di = 0; ds > 0; \\ \delta l > 0; \delta q > 0; \delta q = \delta l. \end{aligned} \quad (1.49)$$

Ideal gazning izotermik siqilishida ($v \downarrow \Rightarrow dv < 0$) jarayon yo‘nalishi qarama-qarshi tomonga o‘zgaradi (1-2 jarayon), termodinamik parametrlar, ish va issiqlik o‘zgarishi esa bir-biriga teng bo‘ladi:

$$T = \text{const}; v \downarrow; p \uparrow; u = i = \text{const}; s \downarrow \quad (1.50)$$

yoki:

$$\begin{aligned} dT = 0; dv < 0; dp > 0; du = 0; di = 0; ds < 0; \\ \delta l < 0; \delta q < 0; \delta q = \delta l. \end{aligned} \quad (1.51)$$

Ideal gazlar holati o‘zgarish politrop jarayonining tahlili



Sharoitlar. Ideal ikki atomli gaz politropa ko‘rsatkichi $n = 0,4$ bo‘lgani holda politrop tarzda kengayib boradi.

Analiz. $p v^n = p v^{0.4} = \text{const}$ tenglamasidan politropa bo‘yicha $n = 0,4$ dan kengayishida gaz bosimi pasayishini ko‘rsatadi, chunki shartga ko‘ra $v_2 > v_1$.

Harorat o‘zgarishi $T v^{n-1} = T v^{-0.6} = T / v^{0.6} = \text{const}$ tenglamasi bo‘yicha aniqlanadi. Shartga binoan $v_2 > v_1$ bo‘lgani sababli, bu holda jarayon harorat oshishi bilan oqib o‘tadi $T_2 > T_1$, shuning uchun ichki energiya $u_2 > u_1$ ($\Delta u > 0$) va entalpiya $i_2 > i_1$ ($\Delta i > 0$) oshgan holda kechadi.

Termodinamikaning birinchi qonuni tenglamasiga muvofiq $dq = du + d\ell$, chunki $du > 0$ va $d\ell > 0$ (shartga binoan), $du > 0$, bu holda $dq > 0$. Tadqiq etilayotgan jarayonda issiqlik keltirilishda davom etadi, bundan kelib chiqib, entropiya kattalashaveradi.

Ideal gaz kengayishining politropa ko'rsatkichi $n = 0,4$ bo'lgan politrop jarayonini p, v - va T, s - diagrammalarda 1.4-rasmida tasvirlaymiz.



1.4-rasm. Ideal gazning p, v - va T, s - diagrammalardagi politrop kengayish jarayoni ($n=0,4$).

1.21-masala. Boshlang'ich parametrlari $p_0 = 10$ bar va $t_0 = 350$ °C bo'lgan 1 kg azot ($\mu = 28$ kg / kmol) kengayadi. Bunda gaz hajmi 4,5 marta kattalashadi.



Gazning kengayish jarayonlari:

- izobarli;
- izotermik;
- adiabatali.

Issiqlik miqdori, hajmning o'zgarish ishi va ichki energiya o'zgarishi va entropiya o'zgarishi aniqlansin.

Jarayonlar p, v - va T, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Yechim: p, v - va T, s - diagrammalardagi jarayonlar 1.5-rasmida tasvirlangan.



1.5-rasm. Gazning kengayish jarayoni:

0-1 - ideal gaz kengayishining izobarali jarayoni;

0-2 - ideal gaz kengayishining izotermik jarayoni;

0-3 - ideal gaz kengayishining adiabatali jarayoni.

a) Izobarali jarayon $p = \text{const}$

Shartga ko'ra $p_0 = 10 \text{ bar}$, $T_0 = 350 + 273 = 623 \text{ }^{\circ}\text{K}$.

$P = \text{const} - T_1 / T_0 = v_1 / v_0 = 4,5$ bo'lganida.

Gazning oxirgi harorati

$$T_1 = 4,5 \cdot T_0 = 4,5 \cdot 623 = 2803 \text{ }^{\circ}\text{K} \approx 2530 \text{ }^{\circ}\text{C}.$$

Izobarali jarayondagi issiqlik miqdori

$$q = c_p \cdot (t_1 - t_0) = 1,04 \cdot (2530 - 350) = 2267 \text{ kJ/kg},$$

bu yerda yalpi izobarali issiqlik sig'imi:

$$c_p = 4,157 \cdot \frac{(i+2)}{\mu} = 4157 \cdot \frac{7}{28} = 1,04 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K}}$$

Hajm o'zgarganda bajarilayotgan ish:

$$\ell = R \cdot (t_1 - t_0) = 0,2969 \cdot (2530 - 350) = 647 \text{ kJ/kg},$$

bu yerda gaz doimiysi:

$$R = \frac{R_{\mu}}{\mu} = \frac{8314}{28} = 296,9 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K}} = 0,2969 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K}}$$

Izobarali jarayon uchun hajm o'zgarganda bajarilayotgan ish quyidagi formula bo'yicha ham aniqlanishi mumkin:

$$\ell = p \cdot (v_1 - v_0) = 10^3 \cdot (0,8323 - 0,1850) = 647 \text{ kJ / kg},$$

bu yerda shartga binoan $v_0 = R T_0 / p_0, v_1 = 4,5 v_0,$
 $v_0 = 296,9 \cdot 623 / 10^6 = 0,1850 \text{ m}^3 / \text{kg}$
 $v_1 = 4,5 \cdot 0,1850 = 0,8323 \text{ m}^3 / \text{kg}$

Ichki energiya o'zgarishi

$$u_1 - u_0 = c_v \cdot (t_1 - t_0) = 0,742 \cdot (2530 - 350) = 1618 \text{ kJ / kg},$$

$$c_v = 4,157 \cdot \frac{i}{\mu} = 4157 \cdot \frac{5}{28} = 0,742 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot ^\circ\text{K}}.$$

bu yerda

Tekshirish:

$$q - \Delta u + \ell = 1618 + 647 = 2265 \text{ kJ / kg. (xatolik taxminan 0,09 foizni tashkil etadi)}$$

Entropiya o'zgarishi

$$\Delta s = c_p \cdot \ln \frac{T_1}{T_0} = 1,04 \cdot \ln \frac{2803}{623} = 1,56 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot ^\circ\text{K}}.$$

Yakuniy bosim: $p_1 = p_0 = 10 \text{ bar.}$

b) **Izotermik jarayon** $T = \text{const}$

Shartga ko'ra $p_0 = 10 \text{ bar}, T_2 = T_0 = 623 \text{ }^\circ\text{K}, v_2 / v_0 = 4,5.$

$T = \text{const}$ $p v = \text{const}$ va $p_0 / p_2 = 4,5$ bo'lganida.

Yakuniy bosim $p_2 = p_0 / 4,5 = 10 / 4,5 = 2,22 \text{ bar.}$

$T = \text{const}$ bo'lganida $u = \text{const}$ va $\Delta u = 0$, ya'ni gazning ichki energiyasi o'zgarmaydi.

Izotermik jarayondagi issiqlik miqdori hajm o'zgarishiga teng.

$$q = l = R \cdot T \cdot \ln \frac{p_2}{p_0} = R \cdot T \cdot \ln \frac{v_2}{v_0} = 0,2969 \cdot 623 \cdot \ln 4,5 = 278,2 \text{ kJ/kg}$$

Entropiya o'zgarishi

$$\Delta s = q / T = 278,2 / 623 = 0,446 \text{ kJ / (kg} \cdot ^\circ\text{K}).$$

c) **Adiabatik jarayon** $dq = 0$

$P_0 = 10 \text{ bar}, T_0 = 623 \text{ }^\circ\text{K}$ shartiga ko'ra, $v_1 / v_0 = 4,5.$

Adiabatik jarayon tenglamasi $p v^k = \text{const}$ bo'lib, unda ikki atomli gazlar uchun ($i = 5$) adiabata ko'rsatkichi:

$$k = \frac{c_p}{c_v} = \frac{i+2}{1} = 1,4$$

Yakuniy bosim $p_3 = p_0 (v_0 / v_3)^k = 10 (1 / 4,5)^{1,4} = 10 / 4,5^{1,4} = 1,22 \text{ bar.}$

Yakuniy harorat quyidagi tenglamaga ko'ra aniqlanadi $T v^{k-1} = \text{const.}$:

$$T_3 = T_0 (v_0 / v_3)^{k-1} = 623 (1 / 4,5)^{1,4-1} = 623 / 4,5^{0,4} = 327,2 \text{ }^{\circ}\text{K} = 54,2 \text{ }^{\circ}\text{C}.$$

Adiabatik jarayon uchun: $q = 0, \Delta s = 0, s = \text{const.}$

Hajmning o'zgarganda bajariladigan ish

$$\ell = -\Delta u = u_0 - u_3 = c_v \cdot (t_0 - t_3) = 0,742 \cdot (350 - 54,2) = 219,5 \text{ kJ / kg.}$$

Javob: a) $q = 2267 \text{ kJ / kg;}$

$$\ell = 647 \text{ kJ / kg;}$$

$$\Delta u = 1618 \text{ kJ/kg;}$$

$$\Delta s = 1,56 \text{ kJ/(kg} \cdot {^{\circ}\text{K}}).$$

b) $q = \ell = 278,2 \text{ kJ / kg;}$

$$\Delta u = 0;$$

$$\Delta s = 0,446 \text{ kJ / (kg} \cdot {^{\circ}\text{K}}).$$

c) $q = 0;$

$$\ell = -\Delta u = 219,5 \text{ kJ / kg;}$$

$$\Delta s = 0.$$

1.22-masala. 1 m^3 havo ($\mu = 28,96 \text{ kg / kmol}$) boshlang'ich parametrlari $p_1 = 10 \text{ bar}$ va $t_1 = 180 \text{ }^{\circ}\text{C}$ politropa bo'yicha $p_2 = 1 \text{ bar}$ gacha kengayadi va $t_2 = 72 \text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha isiydi. 1 m^3 havodan olingan issiqlik miqdori, hajmning o'zgarish ishi, ichki energiyaning o'zgarishi aniqlansin.

Yechim: Tenglamadan politropa ko'rsatkichini topamiz:

$$T_1 \cdot p_1^{\frac{1-n}{n}} = T_2 \cdot p_2^{\frac{1-n}{n}}; \quad \frac{T_1}{T_2} = \left(\frac{p_2}{p_1} \right)^{\frac{1-n}{n}};$$

$$\ln \left(\frac{T_1}{T_2} \right) = \frac{1-n}{n} \cdot \ln \left(\frac{p_2}{p_1} \right); \quad \frac{1-n}{n} = \frac{\ln \left(\frac{453}{345} \right)}{\ln \left(\frac{1}{10} \right)};$$

$$0,272 \cdot n = (1-n) \cdot (-2,08) \quad n = 1,15.$$

Havo massasi:

$$m = \frac{p_1 \cdot V_1}{R \cdot T_1} = \frac{10 \cdot 10^5}{287 \cdot (273 + 180)} = 7,69 \text{ kg},$$

bu yerda:

$$R = \frac{R_\mu}{\mu} = \frac{8314}{28,96} = 287 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot {}^\circ\text{K}},$$

Issiqlik miqdori:

$$Q := m \cdot q = m \cdot c \cdot (t_2 - t_1) = 7,69 \cdot (-1,0766) \cdot (72 - 180) = 894,14 \text{ kJ},$$

bu yerda

$$c = c_v \cdot \frac{n - k_1}{n - 1} = R \cdot \frac{i}{2} \cdot \frac{n - k}{n - 1} = \frac{8,314}{28,96} \cdot \frac{5}{2} \cdot \frac{1,15 - 1,4}{1,15 - 1} = -1,0766 \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot {}^\circ\text{K}}$$

Hajm o'zgarganda bajarilgan ish:

$$L = m \cdot \ell = m \cdot \frac{R}{n-1} \cdot (t_1 - t_2) = 7,69 \cdot \frac{0,287}{1,15-1} \cdot (180 - 72) = 1589,06 \text{ kJ}$$

Ichki energiya o'zgarishi:

$$\Delta U = m \cdot \Delta u = m \cdot c_v \cdot (t_2 - t_1) = 7,69 \cdot \frac{8,314}{28,96} \cdot \frac{5}{2} \cdot (72 - 180) = -596,07 \text{ kJ}$$

Javob: n = 1,15; Q = 894,14 kJ; L = 1589,06 kJ;

$\Delta U = -596,07 \text{ kJ}$.

1.23-masala. Havo politropa bo'yicha n = 1,2 dan p₁ = 6 bar va t₁ = 320 °C p₂ = 1 bar gacha ko'rsatkichi bilan kengayadi. Jarayon boshlang'ich va so'nggi nuqtalar parametrlari, issiqlik sarfi, 1 kg havoga hajmning o'zgarish ishi aniqlansin va jarayon p,v - va T,s - diagrammalarda ifodalansin.

Javob: v₁ = 0,284 m³ / kg; v₂ = 1,26 m³ / kg; T = 439 K;

q_{1,2} = 110,6 kJ / kg; $\ell = 220,6 \text{ kJ / kg}$.

1.24-masala. Gaz aralashmasi massasi bo'yicha quyidagi tarkibga ega: H₂ = 10%, CO₂ = 10 %, CH₄ = 30 %, N₂ = 50 %. Aralashmaning boshlang'ich parametrlari p₁ = 2 bar, t₁ = 27 °C. Agar aralashma adiabatik turzdu p₂ = 10 bar gacha siqilsa, oxirgi harorat va siqilish ishi aniqlansin. Jarayon p,v - va T, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $t_2 = 195 \text{ } ^\circ\text{C}$; $\ell = -325 \text{ kJ / kg}$.

1.25-masala. Massasi 1,5 kg bo‘lgan havo siqiladi politropno $p_1 = 0,09 \text{ MPa}$ dan va $t_1 = 18 \text{ } ^\circ\text{C}$ $p_2 = 1 \text{ MPa}$ gacha. Harorat bunda $t_2 = 125 \text{ } ^\circ\text{C}$ ga qadar ko‘tariladi. Politropa ko‘rsatkichi, yakuniy hajm, sarflangan ish va ajratilgan issiqlik miqdori aniqlansin. Jarayon p,v - va T, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $n = 1,149$; $V_2 = 0,171 \text{ m}^3$; $L = -309,2 \text{ kJ}$; $Q = -195,4 \text{ kJ}$.

1.26-masala. U uchun uch nuqta parametrlari quyidagi qiymatlarga ega bo‘lgan gazning siqilish jarayoni politropali bo‘la olish-olmasligi aniqlansin: $p_1 = 0,12 \text{ MPa}$, $t_1 = 30 \text{ } ^\circ\text{C}$; $p_2 = 0,36 \text{ MPa}$, $t_2 = 91 \text{ } ^\circ\text{C}$; $p_3 = 0,54 \text{ MPa}$, $t_3 = 116 \text{ } ^\circ\text{C}$. Jarayon p,v - va T, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: jarayon politropali $n = 1,2$.

1.27-masala. Massasi 1 kg bo‘lgan kislorod boshlang‘ich bosim 2 MPa va $300 \text{ } ^\circ\text{C}$ haroratda politrop tarzda $0,25 \text{ MPa}$ bosimga qadar kengayadi. Oxirgi hajm $0,35 \text{ m}^3 / \text{kg}$. Jarayonning issiqlik miqdori, hajm o‘zgarishdagi ishi, ichki energiya, entalpiya va entropiya o‘zgarishi aniqlansin. Jarayon p,v - va T, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $q = 28,1 \text{ kJ / kg}$; $\Delta u = -153,4 \text{ kJ / kg}$;

$\ell = 181,5 \text{ kJ / kg}$; $\Delta i = -224,2 \text{ kJ / kg}$;

$\Delta s = 0,066 \text{ kJ / (kg} \cdot {^\circ}\text{K)}$.

1.28-masala. 4 m^3 hajjni egallagan va boshlang‘ich harorat $20 \text{ } ^\circ\text{C}$ ga ega bo‘lgan karbonat angidrid, doimiy hajmda kengayib boradi. Bunda uning bosimi $0,1 \text{ MPa}$ dan $0,3 \text{ MPa}$ gacha oshadi. Shundan so‘ng gaz adiabata bo‘yicha $0,15 \text{ MPa}$ gacha kengayadi. Har bir jarayon uchun issiqlik miqdori, hajmning o‘zgarish ishi, ichki energiya o‘zgarishi, entropiya va entalpiya o‘zgarishi aniqlansin. Jarayonlar p,v - va T, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: a) $L = 0$; $Q = 2398,9 \text{ kJ}$;

$\Delta I = 3198,5 \text{ kJ}$;

$\Delta S = 4,498 \text{ kJ / K}$;

$\Delta U = Q = 2398,9 \text{ kJ}$.

b) $Q = 0$; $L = 570 \text{ kJ}$;

$\Delta U = -570 \text{ kJ}$;

$\Delta I = -758 \text{ kJ}$; $\Delta S = 0$.

1.4. Suv va suv bug'i xossalari.

Suv bug'i jarayonlari

Suv uch xil faza holatida bo'lishi mumkin: qattiq – muz, suyuq – suv va gazsimon – bug'.

Suv bug'i – real gaz, uning holat parametrlari va funksiyalari orasidagi bog'liqlik faqat tajriba yo'li bilan topilgan. Eksperimentlar natijalari jadvallar va diagrammalar ko'rinishida taqdim etilgan. Suyuqlik bug'lanish va qaynash ko'rinishida bug'ga aylanishi mumkin.

Bug'lanish – qattiq yoki suyuq faza yuzasida bug' hosil bo'lishi.

Qaynash – suyuqlik hajmida bug' hosil bo'lishi – hajmiy qaynash, yoki suyuqlik qatlami ostida qattiq yuzada – yuzada qaynash.

Suv bug'inining uch holati mavjud:

- nam to'yingan suv bug'i;
- quruq to'yingan suv bug'i;
- ortiqcha qizdirilgan suv bug'i.

Ikki fazali aralashma suyuqlik – to'yingan holatdagi bug' to'yingan holdagi nam suv bug'i deb nomlanadi.

To'yingan nam suv bug'inining massasi suyuqlik va quruq bug' yig'indisiga teng bo'ladi:

$$m = m_s + m_b, \quad (1.52)$$

bu yerda m_s – suyuqlik massasi, kg;

m_b – bug' massasi, kg.

Tarkibida suyuqlik bo'limgan to'yingan suv bug'i quruq to'yingan suv bug'i deb ataladi ($m_s = 0$).

Suyuqlik qaynashi va suv bug'inining kondensatsiyalanishi ro'y beradigan harorat va bosim to'inish harorati va to'inish bosimi deb nomlanadi. Shu bosimda to'inish bosimi haroratidan yuqori haroratli bug' ortiqcha qizdirilgan (qizdirib yuborilgan) suv bug'i deb ataladi.

To'yingan nam suv bug'iga tavsif berish uchun bug'ning quruqlik darajasi tushunchasi kiritilib, u to'yingan quruq bug' massasining m_b suyuqlik – bug' ikki fazali aralashmasining massasi nisbatiga teng:

$$x = \frac{m_b}{m} \quad (1.53)$$

bu yerda $m = m_s + m_b$ – nam bug' massasi, kg.

Quruqlik darjasini noldan birgacha bo‘lgan oraliqda $0 \leq x \leq 1$. $x = 0$ bo‘lganida suv qaynayotgan suyuqlik, $x = 1 -$ bo‘lganida esa quruq to‘yingan suv bug‘i holatida bo‘ladi.

Suyuqlik massasining to‘yingan nam suv bug‘ining massasiga nisbatini namlik darjasini deb ataydilar:

$$1 - x = \frac{m_s}{m} \quad (1.54)$$

Fazaviy holatni va holat parametrlari qiymatlarini suv va suv bug‘ining termodinamik xossalari jadvallari bo‘yicha aniqlanadi [8,14].

Suv va suv bug‘i xossalaring jadvallari p-t diagrammasidagi nuqtalari uchun olingan tajriba ma‘lumotlarini approksimatsiyalash yo‘li bilan olingan. 1 va 2-jadvallarda [8,14] to‘yinish chizig‘idagi suyuqlik va bug‘ solishtirma hajmlari, entalpiya va entropiyasi hamda bug‘ hosil bo‘lishi solishtirma issiqligining qiymatlari keltirilgan. Keltirilgan kattaliklar haroratga [8, 1-jadv.] hamda bosimga [8, 2-jadv.] bog‘liq holda berilgan.

Suyuqliklar va ortiqcha qizdirilgan bug‘ uchun solishtirma hajmlar, entalpiya va entropiya qiymatlari haroratga bog‘liq holda izobaralar bo‘yicha 3-jadvalda berilgan [8,14].

Jadvallarda ichki energiya qiymati berilmagan, shu sababli ichki energiya formula bo‘yicha hisoblab topiladi:

$$u = i - p * v, \quad (1.55)$$

bu yerda i – entalpiya, kJ / kg ;

p – bosim, kPa ;

v – solishtirma hajm, m^3 / kg .

Suv va suv bug‘ining tajribalar orqali topilgan xossalari oltita jadval ko‘rinishida keltirilgan.

1-jadval. Suvning termodinamik xossalari i suv bug‘ining to‘yingan holatdagi (argument - harorat);

2-jadval. Suvning termodinamik xossalari i suv bug‘ining to‘yingan holatdagi (argument - bosim);

3-jadval. Suv va ortiqcha qizdirilgan bug‘ning termodinamik xossalari;


4-jadval. Suv va suv bug‘ining massasining haqiqiy izobarik issiqlik sig‘imi;

5-jadval. Suv va suv bug‘ining dinamik qovushqoqligi;

6-jadval. Suv va suv bug'ining issiqlik o'tkazuvchanligi.

Suv va suv bug'ining termodinamik xossalari jadvallarida keltirilgan ma'lumotlar asosida diagrammalar qurilgan bo'lib, ular suv, to'yingan nam suv bug'ining va ortiqcha qizigan bug' holatlarini yaqqol ko'rsatadilar. Bundan tashqari diagrammalar yordamida suv va suv bug'i holatining o'zgarish jarayonlarini tasvirlash va issiqlik - energetika uskunalarini sikllarining muhandislik hisoblarini amalga oshirish mumkin.

Termodinamik hisob - kitoblarda eng ko'p qo'llanadigan suv va suv bug'ining koordinatalarda qurilgan diagrammalarini ko'rib chiqamiz: bosim - solishtirma hajm ($p-v$), mutlaq harorat - solishtirma entropiya ($T-s$) va solishtirma entalpiya - solishtirma entropiya ($i-s$). Fazaviy diagrammalar p,v -, T,s - va i,s - mos ravishda 1.6, 1.7 va 1.8-rasmlarda tasvirlangan.



1.6-rasm. Suv bug'ining fazaviy (p, v) - diagrammasi

Diagrammalarda kritik nuqta K quyidagi parametrlarga ega:

- kritik bosim $r_{kr} = 22,129 \text{ MPa}$;
- kritik harorat $t_{kr} = 374,16 \text{ }^{\circ}\text{C}$;
- kritik solishtirma hajm $v_{kr} = 0,00326 \text{ m}^3 / \text{kg}$.

Bu nuqtada suvning suyuq va bug‘ holatidagi fazalar orasidagi farqlar yo‘qoladi.

Kritik nuqtada quyi chegaraviy nuqta KL va yuqori chegaraviy nuqta KD birlashadilar. Chegaraviy egri chiziqlar diagramma ko‘rinishini 3 qismga ajratib turadilar:

– KL egri chizig‘idan chaproqda tomchili suyuqlik holatidagi suv joylashgan;

– KD egri chizig‘idan o‘ngroqda ortiqcha qizigan bug‘ holati joylashgan;

– KL va KD egri chiziqlari orasida to‘yingan nam suv bug‘i joylashgan.

Quyi chegaraviy egri chiziqning barcha nuqtalarida suv to‘yinish haroratida qaynash holatida bo‘ladi, shu sababli KL chizig‘ini, shuningdek, qaynayotgan suyuqlik egri chizig‘i deb ham ataladi.

Yuqori chegara egri chiziqning barcha nuqtasida modda to‘yingan quruq suv bug‘i holatida bo‘lib, shu sababli KD chizig‘ini quruq to‘yingan bug‘ chizig‘i ham deb ataladi.

Chegaraviy egri chiziqlardan yuqorida joylashgan soha paytida suyuqlik va bug‘ o‘rtasida yaqqol farq mavjud bo‘lmagan suvning o‘ta kritik holatini aks ettiradi.

Diagrammalarda izobara, izoxora, izoterma, adiabatalar va quruqlik darajasining doimiysi chiziqlari tasvirlangan. Moddaning qaynayotgan suyuqlik chizig‘idagi quruqlik darjasasi $x = 0$ bo‘lganidagi parametrlari $x = 0$ «bitta shtrix» yuqori indeksi bilan belgilanadi. Masalan, v^*, s^*, i^* va sh.k. To‘yingan quruq suv bug‘i chizig‘ida modda parametrlari quruqlik darjasasi $x = 1$ bo‘lganida «ikki shtrix» yuqori indeksi bilan belgilanadi. Masalan, v'', s'', i'' va sh.k.

To‘yingan nam suv bug‘i parametrlari x quruqlik darajasiga to‘g‘ri proporsional bog‘liqlik formulalari bo‘yicha hisoblab topiladi. Masalan, to‘yingan nam bug‘ining solishtirma hajmini hisob - kitob qilish uchun formula quydagi ko‘rinishga ega:


$$v_x = x \cdot v^* + (1 - x) \cdot v'' \quad (1.56)$$

yoki:

$$v_x = v^* + x \cdot (v'' - v^*), \quad (1.57)$$

bu yerda $v - x = 0$ chizig‘idagi qaynayotgan suyuqlik egri chizig‘idagi solishtirma hajmning parametrlari, $v - x = 1$ chizig‘idagi to‘yingan quruq suv bug‘ining solishtirma hajmining parametrlari.


O‘ta qizigan bug‘ parametrlari va holati funksiyalari indekssiz belgilanadi. Masalan, v, s, i va sh.k.



1.7-rasm. Suv bug‘ining fazaviy (T, s) – diagrammasi

Suvning fazaviy holatining o‘zgarishini tahlil qilish uchun barcha uchta diagrammada (1.6-rasm, 1.7-rasm va 1.8-rasm) suvning izobarali isitilish jarayoni ABEVG tasvirlangan. AB uchastkasida suvning tomchili suyuqlik holatida shu bosim t_n da to‘yinish haroratiga qadar isishi yuz

beradi. Egri chiziqning quyi chegarasida joylashgan V nuqtasida, suv to‘yinish haroratida qaynaydi. BV uchastkasi – to‘yingan nam suv bug‘i uchastkasida – tomchili suyuqlikning (B n.) quruq to‘yingan suv bug‘ining holatiga (V n.) o‘tishi ro‘y beradi. V nuqtasi egri chiziqning yuqori chegarasida joylashadi. Bug‘ hosil bo‘lish jarayoni doimiy to‘yinish bosimida p_n va doimiy to‘yinish haroratida t_n ro‘y beradi. Issiqlik kelib tushishda davom etganida suv bug‘ining bu bosimda qizib ketishi – ya’ni VG jarayoni yuz beradi.



1.8-rasm. Suv bug‘ining fazaviy (i, s) – diagrammasi

T,s – diagrammada AB egri chiziq ostidagi maydon suvni to‘yinish holati q_v ga qadar isitishga sarflanadigan issiqlikka teng. BV egri chizig‘i ostidagi maydon fazaviy o‘tish r issiqligiga teng. VG egri chizig‘i ostidagi maydon q_{per} bug‘ni ortiqcha isitishga sarflanadigan issiqlikka teng.

p,v - diagrammada LM izoterma $t = 0^{\circ}\text{C}$ suvning deyarli siqilmasligi hisobiga bir vaqtning o‘zida izoxora ham bo‘lib keladi.

Fransuz muhandisi R. Molye tomonidan 1904-yilda taklif etilgan i,s - diagrammasi issiqlik energetika uskunalarini sikllarini tahlil va hisob - kitob qilish uchun keng qo‘llanadigan bo‘ldi. i,s - diagrammaning ustun jihatni izobarali jarayonda sarflanadigan, diagrammadagi ordinatalar farqiga teng bo‘lgan issiqlik miqdorining hisob-kitob qilish qulayligida.

Suv bug‘ining jarayonlarini hisob - kitob qilishda quyidagi harakatlar bajariladi:

- suv va suv bug‘ining boshlang‘ich va so‘nggi parametrlari topiladi;
- issiqlik miqdori va hajmnинг o‘zgarish ishi hisoblab topiladi;
- T,s - va i,s - diagrammalarda masshtabsiz, ammo berilgan shartlarga muvofiq jarayonlar quriladi.

Suv va suv bug‘ining parametrlari esa suv va suv bug‘ining termodynamik xossalari jadvallari va i,s - diagrammasi bo‘yicha aniqlanadi.

Suv bug‘i holating asosiy o‘zgarish jarayonlarini hisob-kitob qilish formulalari 1.4-jadvalda keltirilgan.

1.4-jadval

Suv bug‘i holati o‘zgarish jarayonlarining hisobi

Jarayon	Q	ℓ
$p = \text{const}$	$q = i_2 - i_1$	$\ell = p \cdot (v_2 - v_1)$
$v = \text{const}$	$q = u_2 - u_1 = (i_2 - i_1) - v \cdot (p_2 - p_1)$	$\ell = 0$
$T = \text{const}$	$q = T \cdot (s_2 - s_1)$	$\ell = q - \Delta u = q - (u_2 - u_1)$, $u_2 - u_1 = (i_2 - i_1) - (p_2 \cdot v_2 - p_1 \cdot v_1)$
$dq = \text{const}$ $s = \text{const}$	$q = 0$	$\ell = u_1 - u_2 = (i_1 - i_2) - (p_1 \cdot v_1 - p_2 \cdot v_2)$

1.29-masala. 1,5 MPa bosimda to‘yingan quruq suv bug‘ining harorati, solishtirma hajmi, zichligi, entropiyasi, entalpiyasi aniqlansin.

Yechim: $p = 1,5 \text{ MPa} = 1,5 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ [8, 2-jadv.] bo‘lganida to‘yingan quruq bug‘ning parametrlari:

$$\text{solishtirma hajm } v'' = 0,13170 \text{ m}^3 / \text{kg};$$

$$\text{entalpiya } i'' = 2791,0 \text{ kJ / kg};$$

$$\text{entropiya } s'' = 6,4431 \text{ kJ / (kg} \cdot {^\circ}\text{K}).$$

To‘yingan quruq bug‘ning harorati to‘yinish haroratiga teng va $198,30$ $^\circ\text{C}$ ni tashkil qiladi.

To‘yingan quruq bug‘ning zichligi

$$P = 1 / v = 1 / 0,13170 = 7,633 \text{ kg / m}^3.$$

1.30-masala. Suvning fazaviy holati va uning $p = 2,5 \text{ MPa}$ va $t = 120$ $^\circ\text{C}$ bo‘lganidagi parametrlari aniqlansin.

Yechim: $p = 2,5 \text{ MPa}$ bo‘lganida suvning qaynash harorati $t = t_n = 223,96$ $^\circ\text{C}$. Shartga ko‘ra $t < t_n$ bo‘lganligi sababli, bu holda suvning fazaviy holati – qaynashgacha isitilmagan suyuqlik. [8; 3-jadv.] ga binoan $p = 2,5 \text{ MPa}$ va $t = 120$ $^\circ\text{C}$ bo‘lganida suv parametrlari:

$$v = 0,0010590 \text{ m}^3 / \text{kg};$$

$$i = 505,4 \text{ kJ / kg};$$

$$s = 1,5257 \text{ kJ / (kg} \cdot {^\circ}\text{K}).$$

1.31-masala. 4 m^3 hajmli idishda $0,3 \text{ MPa}$ bosimda 8 kg suv bug‘i bor. Bug‘ parametrlari aniqlansin.

Yechim: Bug‘ning solishtirma hajmi $v = V / m = 0,5 \text{ m}^3 / \text{kg}$.

$P = 0,3 \text{ MPa} = 3 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bo‘lganida suv va suv bug‘ining termodinamik xossalari jadvallariga ko‘ra [8; 2-jadv.]:

qaynayotgan suyuqlikning solishtirma hajmi $v' = 0,0010732 \text{ m}^3 / \text{kg}$,

to‘yingan quruq bug‘ning solishtirma hajmi $v'' = 0,060579 \text{ m}^3 / \text{kg}$.

$v = 0,5 \text{ m}^3 / \text{kg}$, ya’ni $v' < v < v''$ bo‘lganligi sababli, suv bug‘ining fazaviy holati – nam to‘yingan bug‘.

Quruqlik darajasi

$$x = \frac{v_x - v'}{v'' - v'} = \frac{0,5 - 0,0010732}{0,060579 - 0,0010732} = 0,825$$

$p = 3 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimda [8, 2-jadv.] ga binoan:

$$i' = 561,5 \text{ kJ / kg};$$

$$i'' = 2724,9 \text{ kJ / kg};$$

$$s' = 1,6718 \text{ kJ / kg} \cdot {^\circ}\text{K};$$

$$s'' = 6,9916 \text{ kJ / kg} \cdot {^\circ}\text{K}.$$

Bug‘ entalpiyasi

$$i_x = i' + x \cdot (i'' - i') = 561,5 + 0,825 \cdot (2724,9 - 561,5) = 2346,3 \text{ kJ / kg.}$$

Bug‘ entropiyasi

$$s_x = s' + x \cdot (s'' - s') = 1,6718 + 0,825 \cdot (6,9916 - 1,6718) = 6,06 \text{ kJ / kg } ^\circ\text{K.}$$

$$p = 0,3 \text{ MPa bo‘lganida to‘yinish harorati } t_n = 133,53^\circ\text{C.}$$

Javob: $i_x = 2346,3 \text{ kJ / kg;}$

$$s_x = 6,06 \text{ kJ / kg;}$$

$$t_n = 133,53^\circ\text{C.}$$

1.32-masala. $P = 8 \text{ MPa}$ va $t = 410^\circ\text{C}$ bo‘lganida suv bug‘ining ichki energiyasi aniqlansin.

$$\text{Yechim: } P = 8 \text{ MPa bo‘lganida to‘yinish harorati } t_n = 295,01^\circ\text{C.}$$

$P = 8 \text{ MPa} = 8 \cdot 10^3 \text{ kPa}$ va $t = 410^\circ\text{C}$ bo‘lganida qizib ketgan suv bug‘ini [8, 3-jadv.] quyidagicha aniqlaymiz:

$$i = 3167 \text{ kJ / kg;}$$

$$v = 0,03515 \text{ m}^3 / \text{kg.}$$

$$\text{Ichki energiya } u = i - pv.$$

$$u = 3167 - 8 \cdot 10^3 \cdot 0,03515 = 2885,8 \text{ kJ / kg.}$$

Javob: $u = 2885,8 \text{ kJ / kg.}$

1.33-masala. Harorati 120°C bo‘lgan 1 kg suv 5 MPa doimiy bosim bilan isitilib, 440°C harorat bilan bug‘ga aylanadi. Suvni qaynashga qadar, bug‘ hosil qilish jarayoniga, bug‘ni ortiqcha qizdirishga, jarayonning umumiy issiqligiga, bug‘ning ortiqcha qizdirilish darajasiga va hajmni o‘zgartirish ishiga sarflanadigan issiqlik miqdori, boshlang‘ich va oxirgi parametrlari aniqlansin.

Yechim: $P = 5 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ bo‘lganida to‘yinish harorati $t_n = 263,94^\circ\text{C}$ ga teng. [8, 3-jadv.] ga binoan $p_1 = 5 \text{ MPa}$ va $t_1 = 120^\circ\text{C}$ bo‘lganida suvning boshlang‘ich parametrlari:

$$i_1 = 507,2 \text{ kJ / kg; } s_1 = 1,5235 \text{ kJ / kg } ^\circ\text{K; } v_1 = 0,0010588 \text{ m}^3 / \text{kg.}$$

$$u_1 = i_1 - p_1 \cdot v_1 = 507,2 - 5 \cdot 10^3 \cdot 0,0010588 = 501,906 \text{ kJ / kg}$$

$p_2 = p_1 = 5 \text{ MPa}$ va $t_2 = 440^\circ\text{C}$ bo‘lganida ortiqcha qizigan suv bug‘ining so‘nggi parametrlari:

$$i_2 = 3293,3 \text{ kJ / kg; } s_2 = 6,7877 \text{ kJ / kg } ^\circ\text{K; } v_2 = 0,06225 \text{ m}^3 / \text{kg.}$$

$$u_2 = i_2 - p_2 \cdot v_2 = 3293,3 - 5 \cdot 10^3 \cdot 0,06225 = 2982,05 \text{ kJ / kg}$$

1 kg suvni 5 MPa doimiy bosimda $t_1 = 120$ °C suvdan $t_2 = 440$ °C ga ega bo‘lgan ortiqcha qizigan bug‘ga aylantirishga sarflanadigan issiqlik miqdori:

$$q_{1-2} = i_2 - i_1 = 3293,6 - 507,2 = 2786,1 \text{ kJ / kg.}$$

$P = 5 \cdot 10^6$ Pa bosimda:

qaynayotgan suyuqlik entalpiyasi $i' = 1154,4$ kJ / kg;

bug‘ hosil bo‘lishining solishtirma issiqligi $p = 1639,7$ kJ / kg;
entalpiya to‘yingan quruq bug‘ning $i'' = 2794,2$ kJ / kg.

Quyidagilarga sarflanadigan issiqlik miqdori:

- suvni qaynashga qadar isitishga

$$q_v = i' - i_1 = 1154,5 - 507,2 = 653,3 \text{ kJ / kg.}$$

- bug‘ hosil bo‘lish jarayoniga

$$r = i'' - i' = 2794,2 - 1154,5 = 1639,7 \text{ kJ/kg.}$$

- bug‘ni qizdirishga

$$q_{per} = i_2 - i'' = 3293,3 - 2794,2 = 499,1 \text{ kJ / kg.}$$

Bug‘ning ortiqcha qizish darajasiga

$$\Delta t = t_2 - t_n = 440 - 263,94 = 176,06 \text{ °C.}$$

Hajmning o‘zgarish ishiga

$$\ell = p \cdot (v_2 - v_1) = 5 \cdot 10^3 \cdot (0,06225 - 0,0010588) = 306 \text{ kJ / kg.}$$

Javob:	$q_{1-2} = 2786,1 \text{ kJ / kg;}$	$q_{per} = 499,1 \text{ kJ / kg;}$
	$q_v = 653,3 \text{ kJ / kg;}$	$\Delta t = 176,06 \text{ °C;}$
	$r = 1639,7 \text{ kJ / kg;}$	$\ell = 306 \text{ kJ / kg.}$

1.34-masala. Bosimi 700 kPa va quruqlik darajasi 0,75 bo‘lgan 1 m suv bug‘ining massasi aniqlansin.

Javob: $m = 4,9 \text{ kg.}$

1.35-masala. To‘yingan quruq bug‘ning 10 bar bosimdagi ichki energiyasi aniqlansin.

Javob: $i = 2582,7 \text{ kJ / kg.}$

1.36-masala. Sig‘imi 5m^3 bo‘lgan idishda bosimi 150 bar va quruqlik darajasi 0,3 bo‘lgan to‘yingan nam bug‘ bor. Nam bug‘ massasi va qaynayotgan suv va to‘yingan quruq bug‘ egallagan hajm aniqlansin.

Javob: $m = 1,17 \text{ t}$; $v' = 1,36 \text{ m}^3$; $v'' = 3,64 \text{ m}^3$.

1.37-masala. Boshlang‘ich parametrlari $p_1 = 60 \text{ bar}$ va $t_1 = 430 \text{ }^\circ\text{C}$ bo‘lgan $0,2 \text{ m}^3$ suv bug‘i izobaralı tarzda shunday siqiladiki, uning hajmi 5 marta kamayadi. Ketkazilgan issiqlik miqdori aniqlansin. Jarayon p, v, T, s - va i, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $Q = -6,36 \text{ MJ}$.

1.38-masala. 500 kPa bosimda va quruqlik darajasi $0,75$ bo‘lganida 2 kg suv bug‘i izotermik ravishda 100 kPa bosimga qadar kengayadi. Keltirilgan issiqlik miqdori aniqlansin.

Javob: $Q = 1,7 \text{ MJ}$.

1.39-masala. Doimiy harorat $300 \text{ }^\circ\text{C}$ bo‘lganida 1 kg to‘yingan quruq bug‘dan 165 kJ issiqlik olib ketiladi. Jarayon tugashidagi entalpiya qiymati aniqlansin.

Javob: $i = 2583,4 \text{ kJ/kg}$.

1.40-masala. 1 kg suv doimiy bosim 1 MPa va boshlang‘ich harorat $100 \text{ }^\circ\text{C}$ bo‘lganida 2100 kJ/kg issiqlik olib, so‘ng adiabatali tarzda $0,1 \text{ MPa}$ bosimga qadar kengayadi. Jarayonlar hisoblanib, p, v, T, s - va i, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $\ell_{1-2} = 167,96 \text{ kJ/kg}$; $\ell_{2-3} = 308,22 \text{ kJ/kg}$;
 $q_{1-2} = 2100 \text{ kJ/kg}$; $q_{2-3} = 0 \text{ kJ/kg}$;
 $\Delta u_{1-2} = 1932,04 \text{ kJ/kg}$; $\Delta u_{2-3} = -308,22 \text{ kJ/kg}$.

1.41-masala. $t_1 = 350 \text{ }^\circ\text{C}$ va $p_1 = 8 \text{ bar}$ bo‘lgan suv bug‘i doimiy hajmda sovutiladi. Chekli holatda $i_2 = 2400 \text{ kJ/kg}$. Jarayon hisoblanib, p, v, T, s - va i, s - diagrammalarda tasvirlansin.

Javob: $q = \Delta u = -632,2 \text{ kJ/kg}$; $\ell = 0$;

$\Delta s = -1,35 \text{ kJ/(kg} \cdot {^\circ}\text{K})$; $\Delta i = -760 \text{ kJ/kg}$.

1.5. Nam havo

Nam havo quruq havo va suv bug‘ining aralashmasidan iborat.

Nam havo nam havodagi suv bug‘ining fazaviy holatiga bog‘liq holda to‘yingan, to‘yinmagan va o‘ta to‘yingan bo‘lishi mumkin.

To‘yinmagan nam havo deb quruq havo va ortiqcha qizdirilgan suv bug‘ining aralashmasiga aytildi.

To‘yingan nam havo deb quruq havo va quruq to‘yingan bug‘ aralashmasiga aytildi.

O‘ta to‘yingan nam havo deb quruq havo va to‘yingan nam suv bug‘ining aralashmasiga aytildi.

Nam havo holati nam havodagi suv bug‘ining parsial bosimi kattaligiga ko‘ra aniqlanadi.

Suv bug‘ining nam havodagi parsial bosimi kichik, shu sababli bug‘ga, ayniqsa, ortiqcha qizigan bug‘ga nisbatan ideal gazlar qonunlari qo‘llanishi mumkin.

Dalton qonuniga binoan, nam havo p bosimi quruq havo va suv bug‘ining parsial bosimlari yig‘indisiga teng:

$$p = p_{\text{havo}} + p_b, \quad (1.58)$$

bu yerda p_{havo} – quruq havoning parsial bosimi;

p_b – suv bug‘ining parsial bosimi.

Nam havoning asosiy tavsiflari:

– havoning mutlaq namligi (ρ) – 1 m^3 nam havodagi bug‘ning massa miqdori;

– havoning nisbiy namligi (φ) – havo mutlaq namligining mumkin bo‘lgan maksimal nam havo haroratiga nisbati:

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho_{\text{max}}} = \frac{\rho}{\rho''} = \frac{p_b}{p_n} \quad (1.59)$$

bu yerda ρ'' – nam havo haroratida quruq to‘yingan bug‘ning zichligi;

p_b – nam havo haroratida to‘yingan suv bug‘ining parsial bosimi;

shudring nuqtasi harorati – bug‘ning parsial bosimida to‘yinsh holatiga erishiladigan harorat.

Nam havoning nam saqlami deb, nam havo tarkibidagi bug‘ massasining quruq havo massasining nisbatiga aytildi:

$$d = \frac{m_b}{m_x} = \frac{\rho_b}{\rho_x} \quad (1.60)$$

Nam saqlami (d) g/kg da hisoblanadi. Nam saqlami quyidagicha aniqlanadi:

$$d = 0,622 \cdot \frac{p_b}{p - p_b} = 0,622 \cdot \frac{p_b}{p_{\text{havo}}} \cdot \frac{g}{kg \text{ g}^{-1}} \quad (1.61)$$

– nam havo entalpiyasi (I) 1 kg quruq havoga nisbatan aniqlanib, 1 kg quruq havodagi mavjud komponentlar entalpiyasi yig‘indisidan iborat:


$$I = c_p \cdot t + d \cdot i_b, \text{ kJ / kg g.h.}, \quad (1.62)$$

bu yerda c_p – havoning izobarali massaviy issiqlik sig‘imi ($\text{kJ / kg}^{\circ}\text{K}$),
 t – havo harorati, $^{\circ}\text{C}$,

d – tarkibdagi namlik miqdori, g / kg g.h. ,
 i_b – suv bug‘ining entalpiyasi, kJ / kg .

Nam havoning holatini tavsiflab keladigan kattaliklarni aniqlash uchun, suv va suv bug‘ining termodinamik xossalarining jadvallari va nam havoning I,d - diagrammalari qo‘llanadi.

Nam havoning I,d - diagrammasi 1.9-rasmda taqdim etilgan.



1.9-rasm. $R = 745 \text{ mm. sim. ust. bo‘lganida nam atmosfera havosining } I,d \text{ - diagrammasi}$

Diagramma qiya burchakli koordinatalar tizimida quriladi. Tarkibdag'i namlik miqdori o'qi (d) va entalpiyalar (I) orasidagi burchak 135° ni tashkil etadi.

Havoning nisbiy namlik chizig'i $\varphi = 100\%$ diagrammani 2 sohaga bo'lib turadi: chiziqdan yuqorida – to'yinmagan nam havo holati, chiziqdan pastda - o'ta to'yingan nam havo holati.

$\varphi = 100\%$ egri chizig'i to'yingan nam havoga to'g'ri keladi.

I,d - diagrammadagi izotermalar to'g'ri chiziqlardan iborat. Harorat ortishi bilan izotermalarning yotiqlik burchagi ham kattalashib boradi.

Diagrammada nam termometr izotermalari uzuq chiziq ko'rinishida tushirilgan. $\varphi = 100\%$ bo'lganida nam va quruq termometrlar haroratlari o'zaro teng $t_n = t_{g,h}$.

Diagrammaning quyi qismida koordinatalarning to'g'riburchakli tizimida suv bug'i parsial bosimining havodagi namlik miqdoriga bog'liqligini tavsiflab keladigan chiziq berilgan.

1.42-masala. Nam havo 50°C haroratda joylashgan. Barometrdagi bosim $p = 745 \text{ mm sim. ust. bo'lganida}$ nam havodagi suv bug'ining parsial bosimi $37,5 \text{ mm sim. ust.}$ Nam havo holati, shudring nuqtasi harorati, havoning mutlaq namligi, havoning nisbiy namligi, nam havo tarkibidagi namlik miqdori va uning entalpiyasi aniqlansin.

Yechim: Masalaning suv va suv bug'ining issiqlik-fizik xossalari jadvallaridan foydalangan holdagi yechilishini ko'rib chiqamiz [8,14].

Nam havo holati bug'ning parsial bosimiga $p_b = 37,5 \text{ mm sim. ust.}$ To'yinish harorati to'g'ri keladi $t_b = 32,88^{\circ}\text{C}$ [8, 2-jadv.].

Masala shartiga ko'ra nam havodagi suv bug'i harorati $t = 50^{\circ}\text{C}$, ya'ni to'yinish haroratidan baland, demak bug' o'ta qizigan bo'ladi.

Quruq havoning ortiqcha qizigan suv bug'i bilan aralashmasi to'yinmagan nam havo deb nomlanadi.

Shunday qilib, $p_b = 37,5 \text{ mm sim. ust.}$ va $t = 50^{\circ}\text{C}$ bo'lganida nam havo to'yinmagan.

Shudring nuqtasi harorati

Suv bug'ining parsial bosimida uning to'yinish harorati $32,88^{\circ}\text{C}$ ga teng.

$$t_b = 32,88^{\circ}\text{C}.$$

Havoning mutlaq namligi

$$\rho = \frac{1}{v}$$

bu yerda v – bug‘ning solishtirma hajmi.

$P_b = 37,5$ mm sim. ust. bo‘lganida $p_b = 0,05$ bar va $t = 50^{\circ}\text{C}$ [8, 3-jadv.]
 $v = 29,78 \text{ m}^3 / \text{kg}$,

$$\rho = \frac{1}{v} = \frac{1}{29,78} = 0,0336 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$$

Havoning nisbiy namligi

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho^*} = \frac{p_b}{p_n}$$

$t = 50^{\circ}\text{C}$ bo‘lganida [8, 1-jadv.]:

$v'' = 12,028 \text{ m}^3 / \text{kg}$; $p_n = 0,1235$ bar.

$$\rho'' = \frac{1}{v''} = \frac{1}{12,028} = 0,083 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$$

$$\varphi = \frac{\rho}{\rho''} = \frac{0,0336}{0,083} = 0,4048 = 40,48\%$$

$$\varphi = \frac{p_b}{p_n} = \frac{0,05}{0,1235} = 0,4048 = 40,48\%$$

1 kg quruq havodagi olingan namlik miqdori

$$d = \frac{622 \cdot p_b}{(p - p_b)} = \frac{622 \cdot 37,5}{745 - 37,5} = 32,97 \frac{\text{g}}{\text{kg}}$$

1 kg quruq havodagi nam havo entalpiyasi


$$I = c_p \cdot t + d \cdot i_{pb}; c_p = 1 \text{ kJ} / (\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{K})$$

$p_b = 0,05$ bar va $t = 50^{\circ}\text{C}$ [8, 3-jadv.] bo‘lganida;

$i_b = 2593,4 \text{ kJ} / \text{kg}$;

$$I = 50 + 32,97 \cdot 10^{-3} \cdot 2593,4 = 135,5 \text{ kJ} / \text{kg g.h.}$$

Masalaning nam havoning I,d – diagrammasidan foydalanim yechilishini ko'rib chiqamiz (1.10-rasm).



1.10-rasm. Nam havo parametrlarini I,d - diagramma bo'yicha aniqlash

10-rasmda strelkalar bilan I,d - diagramma bo'yicha berilgan parametrli A nuqtani aniqlash yo'li ko'rsatilgan: $p_b = 37,5 \text{ mm sim. ust.}$ bo'lganida chiziqdan parsial bosimlar chizig'idan 50°C izotermasi bilan kesishishga qadar vertikal chiziq o'tkazamiz.

Nam havo holati

A nuqta nisbiy namlik egri chizig‘idan $\phi = 100\%$ yuqoriroq joylashgan.
Demak, nam havo - to‘yinmagan.

Shudring nuqtasi harorati

Shudring nuqtasi haroratining qiymati A nuqtadan $\phi = 100\%$ chiziqqa tushirilgan vertikalni kesib o‘tishda izoterma bo‘yicha aniqlanadi.

$$t_r = 32,88 \text{ } ^\circ\text{C}.$$

Havoning mutlaq namligi

Havoning mutlaq namligi I,d - diagramma bo‘yicha aniqlanmaydi.

Havoning nisbiy namligi

A nuqta $\phi = 40\%$ va $\phi = 50\%$ egri chiziqlari orasida joylashgan. Grafik interpolatsiya havoning nisbiy namligi qiymatini beradi $\phi_A = 40,48\%$.

1 kg quruq havodagi namlik miqdori


Namlik miqdori ushbu nuqtada abssissalar o‘qi bo‘yicha aniqlanadi d_A – $32,97 \text{ g / kg g.h.}$

1 kg quruq havodagi nam havo entalpiyasi

Nam havo entalpiyasi qiymati ordinatalar o‘qi bo‘yicha aniqlanadi. A nuqta $I = 130 \text{ kJ / kg g.h.}$ va $I = 140 \text{ kJ / kg g.h.}$ chiziqlari orasida joylashadi. Grafik interpolatsiya $I_A = 135,5 \text{ kJ / kg g.h.}$ qiymatini beradi.

1.43-masala. Agar psixrometr bo‘yicha quruq va nam termometrlar haroratlari teng, ya’ni $t_s = 40 \text{ } ^\circ\text{C}$, $t_m = 30 \text{ } ^\circ\text{C}$ bo‘lsa, havoning holati, uning nisbiy namligi, namlik miqdori, nam havo entalpiyasi, shuningdek nam havodagi suv bug‘larining parsial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim $p = 745 \text{ mm sim. ust.}$

Yechim: I,d – diagramma bo‘yicha bizga berilgan nam havo holatini aniqlaymiz (1.11-rasm).



1.11-rasm. Nam havo parametrlarini I,d - diagramma bo'yicha aniqlash

Nisbiy namlik egri chizig'ida $\varphi = 100\%$ nam termometr harorati $t_m = 30^\circ\text{C}$ ga to'g'ri keladigan nuqtani belgilaymiz. Nam termometr

izotermasining (uzuq chiziq) quruq termometr $t = 40^{\circ}\text{C}$ izotermasi bilan kesishish nuqtasini topamiz. Olingan V nuqta nam havo holatini aniqlab beradi.

V nuqtasi holati bo'yicha (1.42-masaladagi kabi):
nam havo holati - to'yinmagan nam havo;

$$\begin{aligned}\varphi_v &= 40\%; \\ d_v &= 13,7 \text{ g / kg g.h.}; \\ I_v &= 81,76 \text{ kJ / kg g.h.}\end{aligned}$$

Diagramma o'ng qismi ordinatalar o'qi bo'yicha, dastlab V nuqtadan parzial bosimlar chizig'iga qadar vertikal tushirib, suv bug'i parzial bosimi qiyimatini topamiz.

$$p_b = 13,21 \text{ mm sim. ust.}$$

1.44-masala. Nam havo barometrik bosim $p = 745 \text{ mm sim. ust. bo'lganida } 50^{\circ}\text{C}$ haroratga ega. Nam havodagi suv bug'ining parzial bosimi 45 mm sim. ust. ni tashkil qiladi. Nam havoning mutlaq va nisbiy namligi, namlik miqdori va entalpiyasi aniqlansin.

Suv va suv bug'ining issiqlik - fizik xossalari jadvallari va nam havoning I, d - diagrammasidan foydalananib masalani yeching.

Javob: $\rho = 0,04 \text{ kg / m}^3$; $\varphi = 48,6\%$; $d = 40 \text{ g / kg g.h.}$;
 $I = 153,73 \text{ kJ / kg.}$

1.45-masala. 40°C haroratdagi mavjud nam havoning nisbiy namligi **50 % ga teng**. Nam havodagi suv bug'larining namlik miqdori nam ~~usqlash~~, entalpiyasi, shudring nuqtasi harorati va parzial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim 750 mm sim. ust.

Javob: $d = 23,9 \text{ g / kg g.h.}$; $I = 101,5 \text{ kJ / kg.}$
 $p_b = 27,75 \text{ mm sim. ust.}$; $t_r = 27,7^{\circ}\text{C.}$

1.46-masala. Agar nam havo harorati 25°C , shudring nuqtasi **harorati esa $17,5^{\circ}\text{C}$ bo'lsa**, havoning nisbiy namligi, entalpiyasi, havodagi namlik miqdori va nam havodagi suv bug'ining parzial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim $p = 750 \text{ mm sim. ust.}$

Javob: $\varphi = 63,1\%$; $d = 12,72 \text{ g / kg g.h.}$
 $I = 57,4 \text{ kJ / kg.}$
 $p_b = 1,9986 \text{ kPa.}$

1.47-masala. Nam havoning holatini aniqlash uchun quruq termometri 40°C ni, nam termometri esa -30°C ni ko'rsatayotgan psixrometr qo'llanadi. Nam havoning I,d - diagrammasidan foydalananib havoning mutlaq va nisbiy namligi, entalpiyasi, havodagi namlik miqdori, shudring nuqtasi va nam havodagi suv bug'larining parsial bosimi aniqlansin.

Javob: $\varphi = 50\%$; $d = 23 \text{ g / kg g.h.}$;

$$I = 102 \text{ kJ / kg}; p_b = 26 \text{ mm sim. ust.};$$
$$t_r = 27,3^{\circ}\text{C}.$$

1.48-masala. Nam havoning shudring nuqtasi harorati gigrometr bo'yicha aniqlangan bo'lib, 25°C ni tashkil qiladi. Nam havo 40°C haroratga ega. Havoning mutlaq va nisbiy namligi, undagi namlik miqdori, entalpiyasi va nam havodagi suv bug'ining parsial bosimi aniqlansin. Barometrik bosim $p = 745 \text{ mm sim. ust.}$

Javob: $p = 0,0221 \text{ kg / m}^3$; $\varphi = 43,39\%$;

$$d = 20,71 \text{ g / kg g.h.};$$

$$I = 93,33 \text{ kJ / kg}; p_b = 3,2 \text{ kPa}.$$

1.6. Bug'-kuch uskunasi (BKU) sikli.


Bug'ni qizdirish bilan kechadigan Renkin sikli

Bug'-kuch uskunasida (BKU) ishchi jism holatini o'zgartirish bo'yicha yopiq jarayon sodir etadi. BKU ideal sikli ikkita izobara va ikkita adiabatadan iborat. Ishchi jism quyi bosim sohasidan yuqori bosim sohasiga minimal solishtirma hajmda suyuqlik holatida o'tkaziladi. Issiqlik haydar keltirish va ketkazish jarayonlari $p = \text{const}$ da yuz beradilar. Turbinadagi kengayish va nasosdagi bosim ko'tarilishi jarayonlari tez yuz bergani sababli ularni adiabatil deb hisoblash mumkin. Siklning minimal harorati kondensatordagи sovituvchi suvning haroratiga teng bo'lib, maksimal harorat esa po'latning issiqqa chidamliligi va mexanik mustahkamligi bilan cheklanadi.

Bug'-kuch uskunasining principial sxemasi (BKU) 1.12-rasmda, p, v, T, s , va i, s - diagrammalardagi Renkin sikli esa 1.13-rasmda tasvirlangan. Diagrammalardagi nuqtalar bug'-kuch uskunasining sxemasidagi nuqtalarga muvofiq keladi.

Sikl quyidagi tarzda ro'y beradi. p_0 bosimli va $i_A = c \cdot t_{p_0}$ (A.n.) entalpiyali ta'minot suvi bug' qozoniga kelib tushib, bu yerda u qozonning suv

ekonomayzerida to‘yinish haroratiga t_n (B n.) qadar qizdirilib, so‘ng quruq to‘yingan suv bug‘iga (V n.) aylanadi va bug‘ni ortiqcha qizdirgichida t_0 ga qadar ortiqcha qizdiriladi (G n.). Issiqlikni ABVG ishchi jismiga keltirish jarayoni $p_0 = \text{const}$ doimiy bosimda yuz beradi.



1.12-rasm. Bug‘-kuch uskunasining principial sxemasi:

VE – suv ekonomayzeri; PI – bug‘lanish yuzasi;



PP – bug‘ qayta isitgich; PG – bug‘ generatori; PT – bug‘ turbinasi;

K – kondensator; N – nasos; EG – elektr generator

G nuqtasidagi bug‘ parametrlari bug‘ qizdirgichdan so‘ng p_0 , t_0 , i_0 qiymatlarga ega bo‘ladilar. Bug‘ qizdirgichdan bug‘ turbinaga kelib tushib, unda adiabata jarayonida kondensatordagi bosim r_k ga qadar kengayadi - GD jarayoni. D. nuqtadagi bug‘ parametrlari turbinadan so‘ng p_k , t_k , i_k qiymatlariga ega bo‘ladilar. Turbina ishi ℓ , elektrogeneratororda elektr ishga aylanib, iste’molchilarga uzatiladi.

Kondensatorda bug‘ issiqlik q_2 ningsovutgichga o‘tishi hisobiga kondensatsiya lanadi. Bug‘ning kondensatorda kondensatsiya lanish jarayoni DE doimiy bosim p_k va doimi harorat t_k da ro‘y beradi.

Tomchili suyuqlik (kondensat) kondensatordan so‘ng minimal hajm v_k bilan nasos yordamida bug‘ qozoniga uzatilib, bunda ishchi jism bosimi p_1 dan p_0 gacha o‘zgaradi. Ta’minot suvi EA ning gacha adiabatali siqilish jarayoni bir vaqtning o‘zida suvning kam siqiluvchanlik xususiyati tufayli izoxorali bo‘lib ham hisoblanadi.



1.13-rasm. Bug'ni ortiqcha qizitish bilan kechadigan Renkin sikli

Muhandislik hisob-kitoblarida BKU siklining asosiy ko'rsatkichlarini i, s - diagrammadan foydalanib hisoblash (aniqlash) qulay. I, s - diagrammadan (1.13,b-rasm) foydalanib quyidagilarni osonlik bilan olish mumkin:

- ishchi jismga keltirilgan issiqlik miqdori

$$q_1 = i_G - i_A = i_0 - ct_{p_0}; \quad (1.63)$$

– kondensatordagi issiqlik chiqindisi (teplovoy otbros)

$$q_2 = i_D - i_E = i_k - ct_k; \quad (1.64)$$

– turbinadagi ish

$$\ell_t = i_g - i_d = i_o - i_k; \quad (1.65)$$

– nasosning ish

$$\ell_n = i_A - i_E = ct_{pv} - ct_k = v'_k (p_o - p_k). \quad (1.66)$$

q_1 , ℓ_t va ℓ_n lar uchun ifodalarni hisobga olib, siklning termik f.i.k. ini hisob - kitob qilish formulasi quyidagi ko‘rnishiga ega:

$$\eta_t = \frac{\ell_t - \ell_n}{q_1} = \frac{i_o - i_k - v'_k (p_o - p_k)}{i_o - st_m}. \quad (1.67)$$

Turbinadagi ish ℓ_t va siklning termik f.i.k. ini η_t lardan tashqari Renkin sikli samaradorligini tavsiflab keladigan ko‘rsatkichlarga bug‘ning solishtirma sarfi d_t va $1 \text{ kVt·s} = 3600 \text{ kJ}$ ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan turbinaning elektr ishi issiqlikning solishtirma sarfi q_t oid deb hisoblaydilar. Bug‘ning solishtirma sarfi

$$d_t = \frac{1}{l_t}, \frac{kJ}{kg} \quad (1.68)$$

yoki $1 \text{ kJ} = 1/3600 \text{ kVt·s}$ nisbatini hisobga olib

$$d_t = \frac{3600}{l_t} = \frac{3600}{i_o - i_k}, \frac{kg}{kVt·s} \quad (1.69)$$

Solishtirma issiqlik sarfi formula bo‘yicha hisoblab topiladi

$$d_t = \frac{q_1}{l_t} = q_1 \cdot d_t = \frac{1}{\eta''_t}, \frac{kJissiqlik}{kJelektr ishi}. \quad (1.70)$$

yoki $1 \text{ kJ} = 1/3600 \text{ kVt·s}$ nisbatini hisobga olib


$$q_t = \frac{3600 \cdot q_1}{l_t} = \frac{3600}{\eta''_t}, \frac{kg}{kVt·s} \quad (1.71)$$

bu yerda η''_t - termik f.i.k. ini, nasos ishini hisobga olmaganda.

1.49-masala. BKU oddiy sikli quyidagi parametrleriga ega: turbina oldidagi bug‘ bosimi va harorati $p_0 = 150$ bar va $t_0 = 530^\circ\text{C}$, kondensatordagi bug‘ bosimi $r_k = 0,045$ bar. Siklning termik f.i.k. ini, bug‘ va issiqlik ishlab chiqilgan kVt·s ga solishtirma sarflari aniqlansin.

Yechim: p_0 va t_0 qiymatlari bo'yicha [14; 3-jadv.] bug'ning qozondan chiqishdagi entalpiyasi va entropiyasini aniqlaymiz: $i_0 = 3395,7 \text{ kJ / kg}$; $s_0 = 6,4556 \text{ kJ / (kg} \cdot {^\circ}\text{K})$.

Nasosdagi ta'minot suvining adiabatali siqilish jarayoni bir vaqtning o'zida izoxorali bo'lib keladi (1.14-rasm).



1.14-rasm. I,s - diagrammaga BKU sikli

Nasosdagi suvning siqilish ishi

$$\ell_n = i_A - i_E = ct_{pv} - ct_k' = v'_k (p_0 - p_k),$$

bu yerda ct_{pv} – ta'minot suvining nasosda siqilganidan keyingi entalpiyasi;

$ct_k' - p_k$ bosimda to'yingan holatdagi suv entalpiyasi $ct_k' = 129,98 \text{ kJ / kg}$ [8,14; 2-jadv.].

$$\ell_n = v'_k (p_0 - p_k) \cdot 100 = 0,0010047 \cdot (150 - 0,045) \cdot 100 = 15,066 \text{ kJ / kg};$$

$$ct_{pv} = ct_k' + \ell_n = 129,98 + 15,066 = 145,046 \text{ kJ/kg.}$$

$P_0 = 150 \text{ bar} = 15 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ bosimda [14; 2-jadv.]:

- qaynayotgan suyuqlik entalpiyasi $ct'_0 = 1610,2 \text{ kJ / kg}$;
- bug' hosil bo'lishining solishtirma issiqligi $r = 1000,7 \text{ kJ / kg}$;
- to'yingan quruq bug'ning entalpiyasi $i''_0 = 2610,9 \text{ kJ / kg}$.

Quyidagilarga sarflanadigan issiqlik miqdori:

- suvni qaynashga qadar isitishga

$$q_{\text{u}} = i_B - i_A = ct'_0 - ct_{p_0} = 1610,2 - 145,046 = 1465,15 \text{ kJ / kg};$$

- bug‘ hosil bo‘lish jarayoniga

$$r = i_v - i_B = i''_0 - ct'_0 = 2610,9 - 1610,2 = 1000,7 \text{ kJ / kg};$$

- bug‘ni o‘ta qizdirishga

$$q_{\text{per}} = i_G - i_v = i_0 - i''_0 = 3395,7,4 - 2610,9 = 784,8 \text{ kJ / kg}.$$

Ishchi jismiga keltirilgan issiqlik miqdori

$$q_l = i_G - i_A = i_0 - ct_{p_0} = 3395,7 - 145,046 = 3250,65 \text{ kJ / kg}.$$

Kondensatordagi bug‘ bosimi $p_k = 0,045 \text{ bar} = 4,5 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ bo‘lganida [14; 2-jadv.]:

- to‘yingan holatdagi suv entalpiyasi

$$ct'_0 = 129,98 \text{ kJ / kg};$$

- to‘yingan holatdagi suv entropiyasi

$$s'_k = 0,4507 \text{ kJ / (kg} \cdot {^{\circ}\text{K}});$$

- to‘yingan holatdagi suv bug‘ining entalpiyasi

$$i''_0 = 2557,4 \text{ kJ / kg};$$

- suv bug‘ining to‘yingan holatdagi entropiyasi

$$s''_k = 8,4314 \text{ kJ / (kg} \cdot {^{\circ}\text{K}}).$$

P_k va $s_k = s_0$ bo‘lganida turbinadan chiqishdagi bug‘ parametrlari:

- bug‘ning quruqlik darajasi

$$x_k = \frac{s_k - s' - 6,4556 - 0,4507}{s'' - s' - 8,4314 - 0,4507} = 0,7516$$

- bug‘ entalpiyasi

$$i_k = ct'_k + x_k (i''_k - ct'_k) = 129,98 + 0,7516 (2557,4 - 129,98) = 1954,43 \text{ kJ / kg}.$$

Bug'ning turbinadagi adiabatali kengayishining texnik ishi

$$\ell_t = i_G - i_D = i_b - i_k = 3395,7 - 1954,43 = 1441,27 \text{ kJ / kg.}$$

Kondensatordagi ishchi jismdan haydalgan issiqlik

$$q_2 = i_D - i_E = i_k - ct' = 1954,43 - 129,98 = 1824,45 \text{ kJ / kg.}$$

Siklning termik f.i.k. ini

$$\eta_t = \frac{\ell_t - l_n}{q_t} = \frac{1441,27 - 15,066}{3250,65} = 0,4387$$

Turbina tomonidan amalga oshirilgan 1 kVt·s ish hisobiga bug'ning solishtirma sarfi:

$$d_t = \frac{3600}{l_t} = \frac{3600}{1441,27} = 2,4978, \frac{\text{kg}}{\text{kVt} \cdot \text{s}}$$

Turbina tomonidan amalga oshirilgan 1 kVt·s ish hisobiga issiqlikning solishtirma sarfi

$$q_t = \frac{3600}{l_t} = \frac{3600 \cdot 3250,65}{1441,27} = 8119,464, \frac{\text{kJ}}{\text{kVt} \cdot \text{s}}$$

Javob: $\eta_t = 43,87 \%$; $d_t = 2,4978 \text{ kg / (kVt} \cdot \text{s)}$; $q_t = 8119,464 \text{ kJ / (kVt} \cdot \text{s)}$

1.50-masala. Oddiy BKU sikli quyidagi parametrlarga ega: turbina oldidagi bug' bosimi va bug' harorati $p_0 = 110 \text{ bar}$, $t_0 = 490 \text{ }^{\circ}\text{C}$, kondensatordagi bug' bosimi $p_k = 0,05 \text{ bar}$. Siklning termik f.i.k. ini aniqlansin.

Javob: $\eta_t = 42,074 \%$.

1.51-masala. Agar 1-masala shartlarida kondensatordagi bug' bosimi 120 bar ($p_0 = 120 \text{ bar}$) gacha, masala shartlarida turbina oldidagi 1 bug' bosimi 120 bar ($p_0 = 120 \text{ bar}$) gacha ko'tarilib, barcha qolgan shartlar o'zgarishsiz qolsa, siklning termik FIKI qanchaga o'zgarishi aniqlansin.

Javob: $\eta_t = 42,329 \%$ (0,255 % ga kattalashadi).

1.52-masala. Agar 1-masala shartlarida bug'ning turbina oldidagi harorati 520 °C ($t_0 = 520 \text{ }^{\circ}\text{C}$) deb olinsa, siklning termik FIK ini qanchaga o'zgarishi aniqlansin, barcha qolgan shartlar o'zgarishsiz qoladi.

Javob: $\eta_t = 44,16 \%$ (2,09 % ga kattalashadi).

1.53-masala. Agar 1-masala shartlarida kondensatordagi bug' bosimi 0,03 bar ($p_k = 0,03 \text{ bar}$) deb olinsa, siklning termik f.i.k. ini qanchaga o'zgarishi aniqlansin, barcha qolgan shartlar o'zgarishsiz qoladi.

Javob: $\eta_t = 43,258 \%$ (1,184 % ga kattalashadi).

2-BOB. ISSIQLIK VA MASSA ALMASHINUV ASOSLARI

2.1. Statsionar issiqlik uzatish jarayoni

Yassi devor orqali issiqlik uzatish

Yassi devor orqali issiqlik uzatilish hisob - kitobini issiqlik oqimining yuza zichligini qo'llagan holda bajarish qulay:

$$q = \frac{Q}{F}, \quad (2.1)$$

bu yerda Q – issiqlik oqimi, Vt ;

F – devor maydoni, m^2 .

Bu holda

$$q = \frac{\Delta T}{R}, \quad (2.2)$$

bu yerda ΔT – issiqlik almashinuvining berilgan uchastkasida harorat farqi (ko'tarilib tushishi), $^{\circ}K$ ($^{\circ}C$), u issiqlik almashinuvining bitta yoki bir nechta qo'shni elementar uchastkalaridan tashkil topishi mumkin: issiqlik uzatish va issiqlik o'tkazuvchanlik;

R – ana shu uchastka yoki qo'shni uchastkalar birligining issiqlik almashinuvi termik qarshiligi, $(m^2 \cdot {}^{\circ}K) / Vt$.

Issiqlik uzatishning termik qarshiligi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$R_{\text{t,a}} = \frac{1}{\alpha}, \quad (2.3)$$

bu yerda α – issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt / (m^2 \cdot {}^{\circ}K)$.

Yassi devorning i -nchi qatlami orqali issiqlik o'tkazish termik qarshiligini hisob-kitob qilish uchun formula quyidagi ko'rnishga ega:

$$R_{\text{t,i}} = \frac{\delta_i}{\lambda_i}, \quad (2.4)$$

bu yerda δ – i -nchi qatlam qaliligi, m;

λ_i – ko‘p qatlamlari devor i -nchi qatlamining issiqlik o‘tkazish koefitsiyenti, $Vt / (m \cdot {}^{\circ}K)$.

Issiqlik uzatishning termik qarshiligi barcha issiqlik almashinuv elementar uchastkalarining termik qarshililiklari yig‘indisiga teng.

Tavsiya etilgan yechish ketma-ketligi:

a) barcha elementar uchastkalarning termik qarshiligi aniqlanadi;

b) issiqlik almashinuv tizimida ikkita berilgan harorat bo‘yicha issiqlik oqimining zichligi topiladi;

c) q ning topilgan qiymati va ma’lum haroratlardan biri bo‘yicha qatlamlar va suyuqliklarning qolgan noma’lum haroratlari hisoblab topiladi.

Silindrsimon devor orqali issiqlik uzatish

Silindrsimon shakldagi devor orqali issiqlik uzatilishini hisob-kitob qilish uchun issiqlik oqimining chiziqli zichligi deb ataladigan solishtirma issiqlik oqimidan foydalananadilar:

$$q_r = \frac{Q}{\ell}, \quad (2.5)$$

bu yerda Q – issiqlik oqimi, Vt ;

ℓ – silindrsimon devor uzunligi, m.

$$q_r = \frac{\pi \cdot \Delta T}{R_r}, \quad (2.6)$$

bu yerda ΔT – berilgan issiqlik almashinuv uchastkasida harorat ko‘tarilib – tushishi, K (${}^{\circ}C$), issiqlik almashinuvining qator elementar uchastkalaridan tashkil topishi mumkin bo‘lgan: issiqlik berishi va issiqlik o‘tkazuvchanligi;

R_r – ana shu uchastka issiqlik almashinuvining chiziqli termik qarshiligi, $(m \cdot {}^{\circ}K) / Vt$.

Issiqlik uzatishning chiziqli termik qarshiligi formula bo‘yicha hisoblab topiladi:

$$R_{r,a} = \frac{1}{\alpha \cdot d}, \quad (2.7)$$

bu yerda α – issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt / (m^2 \cdot {}^\circ K)$;

d – silindrsimon devorning yuvilayotgan yuzasi diametri, m.

Silindrsimon devorning i -nchi qatlami issiqlik o'tkazuvchanligining chiziqli termik qarshiligi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$R_i = \frac{1}{2 \cdot \lambda} \cdot \ln \frac{d_{+1}}{d_1}, \quad (2.8)$$

bu yerda λ – silindrsimon devor i -nchi qatlamining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $Vt / (m \cdot {}^\circ K)$;

d_1 va d_{+1} – silindrsimon devor i -nchi qatlamining ichki va tashqi diametrlari, m.

Masalani silindrsimon devor orqali issiqlik uzatilishi orqali hal qilishning tavsiya etilgan tartibi yuqorida ko'rib chiqilgan yassi devor uchun yechim algoritmi bilan to'liq mos keladi.

2.1-masala. Agar uning yuzalarini haroratlaridagi farq $\Delta T = T_{w2} - T_{w1} = 95 {}^\circ C$ bo'lganida u orqali issiqlik o'tkazuvchanlik bo'lgan statsionar issiqlik oqimi o'tsa, termik qarshiligi R_i va yassi bir qavatli devor qalinligi δ aniqlansin. Devorning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda = 4 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ \text{K})$.

Yechim: Issiqlik oqimining bir qavatli devor orqali yuza zichligi $q = \Delta T / R_i$,

bu yerda $R_i = \delta / \lambda$.

$$R_i = \Delta T / q \text{ va } \delta = \lambda \cdot R_i \text{ larni aniqlaymiz.}$$

Masala vazifasiga ko'ra $q = 5 \text{ kVt} / \text{m}^2 = 5000 \text{ Vt} / \text{m}^2$, shunda

$$R_i = \Delta T / q = 95 / 5000 = 0,019 \text{ (m}^2 \cdot {}^\circ \text{K}) / \text{Vt},$$
$$\delta = \lambda \cdot R_i = 4 \cdot 0,019 = 0,076 \text{ m.}$$

Javob: $R_i = 0,019 \text{ (m}^2 \cdot {}^\circ \text{K}) / \text{Vt}; \delta = 0,076 \text{ m.}$

2.2-masala. Issiqlik koeffitsiyenti $\lambda = 3 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ \text{K})$, qalinligi $\delta = 90 \text{ mm}$ bo'lgan yassi devor yuza zichligi $q = 4 \text{ kVt} / \text{m}^2$ bo'lgan statsionar issiqlik oqimini o'tkazadi. Devor issiqliknini qabul qiladigan yuzasining harorati $T_{d1} = 140 {}^\circ C$. Devor issiqlik o'tkazuvchanligining termik qarshiligi R_i va issiqlik uzatuvchi (beruvchi) yuza harorati T_{d2} aniqlansin.

Yechim: Issiqlik oqimining yuza zichligi

$$q = \Delta T / R_t = (T_{d1} - T_{d2}) / R_t$$

bu yerda $R_t = \delta / \lambda = 0,09 / 3 = 0,03 \text{ (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K) / Vt}$.

$T_{d1} - T_{d2} = q \cdot R_t$, bundan kelib chiqib,

$$T_{d2} = T_{d1} - q \cdot R_t = 140 - 4000 \cdot 0,03 = 20 \text{ } {^\circ}\text{C}.$$

Javob: $R_t = 0,03 \text{ (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K) / Vt}$; $T_{d2} = 20 \text{ } {^\circ}\text{C}$.

2.3-masala. Yassi devor qalinliklari $\delta_1 = 120 \text{ mm}$, $\delta_2 = 90 \text{ mm}$ va $\delta_3 = 50 \text{ mm}$ bo'lgan uch qatlardan iborat, qatlarning issiqlik o'tkazish koefitsiyentlari mos ravishda quyidagilarga teng $\lambda_1 = 4 \text{ Vt / (m} \cdot {^\circ}\text{K)}$, $\lambda_2 = 9 \text{ Vt / (m} \cdot {^\circ}\text{K)}$ va $\lambda_3 = 12 \text{ Vt/(m} \cdot {^\circ}\text{K)}$. Ikkinci qatlam yuzalarining haroratlari $T_{1-2} = 125 \text{ } {^\circ}\text{C}$ va $T_{2-3} = 50 \text{ } {^\circ}\text{C}$. Tashqi yuzalarning T_{d1} va T_{d2} haroratlari aniqlansin.

Yechim: Uch qatlamli devor issiqlik o'tkazuvchanligining to'liq termik qarshiligi qatlarning termik qarshiliklari summasiga teng:

$$R_{t1} = \delta_1 / \lambda_1 = 0,12 / 4 = 0,03 \text{ (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K) / Vt};$$

$$R_{t2} = \delta_2 / \lambda_2 = 0,09 / 9 = 0,01 \text{ (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K) / Vt};$$

$$R_{t3} = \delta_3 / \lambda_3 = 0,06 / 12 = 0,005 \text{ (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K) / Vt}.$$

$$R_t = R_{t1} + R_{t2} + R_{t3} = 0,03 + 0,01 + 0,005 = 0,045 \text{ (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K) / Vt}.$$

Issiqlik almashinuvining statsionar rejimida issiqlik oqimining yuza usti zichligi har bir qatlam uchun doimiy bo'lib, istalgan qatlamning parametrlari orqali ifodalanadi:

$$q = \frac{T_{d1} - T_{1-2}}{R_{t1}} = \frac{T_{1-2} - T_{2-3}}{R_{t2}} = \frac{T_{2-3} - T_{d2}}{R_{t3}}; \text{ Vt/m}^2.$$

$$q = \frac{T_{1-2} - T_{2-3}}{R_{t2}} = \frac{125 - 50}{0,01} = 7500 \text{ Vt/m}^2.$$

Devorlar tashqi yuzalarining izlanayotgan haroratlarini ifodalaymiz:

$$T_{d1} = T_{1-2} + q \cdot R_{t1} = 125 + 7500 \cdot 0,03 = 350 \text{ } {^\circ}\text{C};$$

$$T_{d2} = T_{2-3} - q \cdot R_{t3} = 50 - 7500 \cdot 0,005 = 12,5 \text{ } {^\circ}\text{C}.$$

q kattaligini, shuningdek, devorning umumiy termik qarshiligi orqali ifodalash mumkin:

$$q = \frac{T_{d1} - T_{d2}}{R_{t1} + R_{t2} + R_{t3}} = \frac{T_{d1} - T_{d2}}{R_t}$$

Bu ifodadan hisob-kitoblarning to‘g‘riligini tekshirish uchun foydalanish mumkin

$$q = (350 - 12,5) / 0,045 = 7500 \text{ Vt/m}^2.$$

Javob: $T_{d1} = 350 \text{ }^{\circ}\text{C}$; $T_{d2} = 12,5 \text{ }^{\circ}\text{C}$.

2.4-masala. Qaliligi $\delta = 90 \text{ mm}$ bo‘lgan, issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda = 9 \text{ Vt / (m} \cdot {^{\circ}\text{K})}$ ga teng yassi, bir qavatli devor issiqlik uzatish jarayonida $T_{d1} = 125 \text{ }^{\circ}\text{C}$ va $T_{d2} = 50 \text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratlariiga ega. Agar issiqlik berish koeffitsiyentlari mos ravishda $\alpha_1 = 40 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K})}$ va $\alpha_2 = 250 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K})}$ ni tashkil qilsa, termik qarshiliklar, issiqlik uzatish koeffitsiyenti va devor yuzasini yuvadigan qaynoq va sovuq muhitlar haroratlari aniqlansin.

Yechim: Yassi bir qavatli devor orqali issiqlik uzatilishi jarayonining to‘liq termik qarshiligi quyidagi qatlamlar termik qarshiligi summasiga teng:

- qaynoq suyuqlikdan devorga issiqlik uzatishga

$$R_{t,\alpha 1} = 1 / \alpha_1 = 1 / 40 = 0,025 \text{ (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K}) / \text{Vt};$$

- devorning issiqlik o‘tkazuvchanligiga

$$R_{t,\alpha} = \delta / \lambda = 90 / 9 = 0,01 \text{ (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K}) / \text{Vt};$$

- devordan sovuq suyuqlikka issiqlik uzatilishiga

$$R_{t,\alpha 2} = 1 / \alpha_2 = 1 / 250 = 0,004 \text{ (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K}) / \text{Vt.}$$

To‘liq termik qarshilik

$$R_t = 1 / \alpha_1 + \delta / \lambda + 1 / \alpha_2 = 0,025 + 0,01 + 0,004 = 0,039 \text{ (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K}) / \text{Vt.}$$

Issiqlik uzatish koeffitsiyenti

$$k = 1 / R_t = 1 / 0,039 = 25,64 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^{\circ}\text{K})$$

Issiqlik oqimining statsionar issiqlik almashinuv rejimida yuza usti zichligi har bir uchastka (qatlam) uchun doimiy bo‘lib, istalgan qatlam parametrlari orqali ifodalanadi.

Masalan:

$$q = \frac{T_{f1} - T_{d1}}{R_{t,\alpha 1}} \quad \text{yoki} \quad q = \frac{T_{d2} - T_{f2}}{R_{t,\alpha 2}}$$

Qaynoq va sovuq muhitlar haroratlarini aniqlaymiz:

$$T_{f1} = T_{d1} + q \cdot R_{t,a1} = 125 + 7500 \cdot 0,025 = 312,5 \text{ } ^\circ\text{C};$$

$$T_{f2} = T_{d2} - q \cdot R_{t,a2} = 50 - 7500 \cdot 0,004 = 20 \text{ } ^\circ\text{C}.$$

Javob: $k = 25,64 \text{ } \text{Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{ } ^\circ\text{K})$; $T_{f1} = 312,5 \text{ } ^\circ\text{C}$; $T_{f2} = 20 \text{ } ^\circ\text{C}$.

2.5-masala. Agar truba ichidan o'rtacha harorati $T_{f1} = 120 \text{ } ^\circ\text{C}$ bo'lgan suv oqib, atrofdagi havo harorati esa $T_{f2} = -10 \text{ } ^\circ\text{C}$ bo'lsa, diametri $d_1/d_2 = 150 \text{ mm} / 170 \text{ mm}$ ga teng, ochiq havodan o'tkazilgan 1 m izolyatsiyalanmagan quvurdagi issiqlik yo'qotilishi hisoblab topilsin. Truba materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda = 75 \text{ } \text{Vt} / (\text{m} \cdot \text{ } ^\circ\text{K})$. Suvdan truba devoriga $\alpha_1 = 1000 \text{ } \text{Vt} / (\text{m}^2 \cdot \text{ } ^\circ\text{K})$ va trubadan o'rabi turgan havoga issiqlik berish koeffitsiyenti $\alpha_2 = 15 \text{ } \text{Vt} / (\text{m}^2 \cdot \text{ } ^\circ\text{K})$. Shuningdek trubaning ichki va tashqi yuzasidagi haroratlar aniqlansin.

Yechim: Issiq suyuqlikdan devorga issiqlik uzatilishining termik qarshiligi:

$$R_{t,a1} = 1/(d_1 \cdot \alpha_1) = 1/(0,15 \cdot 1000) = 0,00667 \text{ (m} \cdot \text{ } ^\circ\text{K}) / \text{Vt}.$$

Devor issiqlik o'tkazuvchanligining termik qarshiligi

$$R_{t,\lambda} = \frac{1}{2 \cdot \lambda} \cdot \ln \frac{d_2}{d_1} = \frac{1}{2 \cdot 75} \cdot \ln \frac{170}{150} = 0,000834 \text{ (m} \cdot \text{ } ^\circ\text{K}) / \text{Vt}.$$

Devordan havoga issiqlik uzatilishining termik qarshiligi

$$R_{t,a2} = 1/(d_2 \cdot \alpha_2) = 1/(0,170 \cdot 15) = 0,392157 \text{ (m} \cdot \text{ } ^\circ\text{K}) / \text{Vt}.$$

Chiziqli issiqlik oqimining zichligi

$$q_\ell = \frac{\pi \cdot (T_{f1} - T_{f2})}{R_{t,a1} + R_{t,\lambda} + R_{t,a2}} = \frac{3,14 \cdot [120 - (-10)]}{0,00667 + 0,000834 + 0,392157} = 1021,4 \text{ } \text{Vt/m}^2.$$

Trubaning ichki va tashqi yuzalaridagi haroratlar:

$$T_{d1} = T_{f1} - \frac{q_\ell \cdot R_{t,a1}}{\pi} = 120 - \frac{1021,4 \cdot 0,00667}{3,14} = 117,83 \text{ } ^\circ\text{C};$$

Javob: $q_\ell = 1021,4 \text{ } \text{Vt} / \text{m}$; $T_{d1} = 117,83 \text{ } ^\circ\text{C}$; $T_{d2} = 117,56 \text{ } ^\circ\text{C}$.

2.6-masala. Agar issiqlik o'tkazuvchanligi R_t va devor qalinligi δ , ichki diametri $d_1 = 8,5 \text{ mm}$ bo'lgan po'lat quvurning yuzalari harorati orasidagi farq $\Delta T = 0,02 \text{ } ^\circ\text{C}$ ga teng bo'lib, quvurning $\ell = 100 \text{ m}$ li

uchastkasidan atrof-muhitga bir soat davomida $Q_t = 4,45 \text{ MJ}$ issiqlik yo'qotilsa, uning chiziqli termik qarshiligi aniqlansin. Issiqlik almashinuv rejimi – statsionar. Truba materiali issiqlik o'tkazuvchanligi koeffitsiyenti $\lambda = 16 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$.

Javob: $R_t = 5,081 \cdot 10^{-3} (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K}) / \text{Vt}$; $\delta = 0,75 \text{ mm}$.

2.7-masala. Quritish kamerasi devorlari qalinligi $\delta_1 = 250 \text{ mm}$ bo'lgan qizil g'isht qatlamidan va qurilish namati qatlamidan bajarilgan. G'isht qatlaming ichki yuzasidagi harorat $T_{d1} = 130 {}^\circ\text{C}$, namat qatlaming tashqi yuzasida esa $T_{d2} = 40 {}^\circ\text{C}$. Qizil g'ishtning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $0,7 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$ va qurilish namatining o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $0,0465 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$. Kameraning 1 m^2 devori orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdori $q = 130 \text{ Vt} / \text{m}^2$ ga teng bo'lishi sharti bilan qatlamlarning o'zaro tegib turadigan sathdagi $T_{1,2}$ harorat va namat qatlami qalinligi hisoblab topilsin.

Javob: $T_{1,2} = 83,5 {}^\circ\text{C}$; $\delta \approx 15,6 \text{ mm}$.

2.8-masala. Agar qozon devorining qalinligi $\delta = 250 \text{ mm}$, gazlar harorati $T_n = 720 {}^\circ\text{C}$, qozonxonadagi havo harorati $T_p = 25 {}^\circ\text{C}$ bo'lsa, bug' qozoni g'isht obmurovkasi yuzasi birligi orqali issiqlik yo'qotilishi va devor yuzasidagi harorat hisoblab topilsin. Gazlardan devor yuzasiga issiqlik berish koeffitsiyenti $\alpha_1 = 23 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^\circ\text{K})$ va devordan havoga issiqlik uzatish koeffitsiyenti $\alpha_2 = 12 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^\circ\text{K})$. Devorning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda = 0,7 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$.

Javob: $q = 1436,25 \text{ Vt} / \text{m}^2$; $T_{d1} = 657,6 {}^\circ\text{C}$ va $T_{d2} = 169,7 {}^\circ\text{C}$.

2.9-masala. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda_1 = 50 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$ bo'lgan $d_1 / d_2 = 150 \text{ mm} / 160 \text{ mm}$ diametrali po'lat quvur usti bir xil qalinlikdagi $\delta_2 = \delta_3 = 60 \text{ mm}$ li ikki qavat izolyatsiya bilan qoplangan. Truba ichki yuzasining harorati $T_{d1} = 250 {}^\circ\text{C}$ va izolyatsiya tashqi yuzasining harorati $T_{d2} = 50 {}^\circ\text{C}$. Agar truba yuzasiga yotqiziladigan izolyatsiyaning birinchi qatlami issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti $\lambda_2 = 0,06 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$, ikkinchi qatlami koeffitsiyenti esa $\lambda_3 = 0,12 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^\circ\text{K})$ bo'lgan materiallardan ishlangan bo'lsa, 1 m quvur izolyatsiyasidan yo'qotiladigan issiqlik miqdori va izolyatsiya qatlamlari tegib turadigan chegaradagi harorat aniqlansin.

Javob: $q_t = 102,2 \text{ Vt} / \text{m}$; $T_{2,3} = 98,22 {}^\circ\text{C}$.

2.10-masala. Agar izolyatsiya qatlamlarining o'rni almashtirilsa, ya'ni kattaroq issiqlik o'tkazish koeffitsiyentiga ega bo'lgan qatlam bevosita

truba yuzasiga yotqizilsa, 1 m quvur yuzasidan yo‘qotilgan issiqlik miqdori qanday o‘zgaradi (4-masalaga qar.)? Barcha qolgan shartlar o‘zgarishsiz qoldirilsin.

Javob: $q_t = 118,39 \text{ Vt} / \text{m}$; $T_{2-3} = 162,1 \text{ }^{\circ}\text{C}$.

2.2. Konvektiv issiqlik almashinuv

Issiqlik almashinuv qurilmalarini hisob-kitob qilishda va loyiha-lashtirishda suyuqlikdan devorga yoki, aksincha, devordan suyuqlikka konvektiv issiqlik uzatilishidagi issiqlik oqimini hisoblab topish talab etiladi. Bu holda issiqlik oqimi issiqlik uzatish (berish) qonuni - Nyuton qonuniga binoan topiladi:

$$Q = \alpha \cdot (T_d - T) \cdot F, \quad (2.9)$$

bu yerda Q – issiqlik oqimi, Vt ;

$\Delta T = |T_d - T|$ – devor va flyuid orasidagi haroratlar farqi moduli, ${}^{\circ}\text{C}$ (${}^{\circ}\text{K}$);

T_d – issiqlik almashinuv yuzasi (devor) harorati, ${}^{\circ}\text{C}$ (${}^{\circ}\text{K}$);

T – devordan uzoqda oquvchan muhit (flyuid) harorati, ${}^{\circ}\text{C}$ (${}^{\circ}\text{K}$);

F – issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2 ; α – o‘rtacha issiqlik berish koefitsiyenti, $\text{Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^{\circ}\text{K})$.

Issiqlik almashinuv tizimining berilgan geometrik o‘lchamlari, devor va oquvchan muhit haroratida issiqlik oqimini hisob-kitob qilish masalasi issiqlik uzatish koefitsiyentini (α) aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Issiqlik uzatish koefitsiyentining kattaligini ayniyat tenglamasini yoki ko‘p sonli eksperimental ma’lumotlarga ishlov berish natijasida olinadigan kriterial tenglamani hal qilish yo‘li bilan oladilar. Kriterial (mezoniy) tenglama shakli konveksiya turi (erkin yoki majburiy) va suyuqlikning harakatlanish rejimiga (laminar, o‘tish yoki turbulent rejimlar) bog‘liq.

Umumiy holda ayniyat tenglamasi yoki mezonli (kriterial) tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Nu = f(Gr, Re, Pr, \dots), \quad (2.10)$$

bu yerda Nu , Gr , Re , Pr – mezonlar (kriteriyalar).

Mezonlar – fizik kattaliklardan tashkil topgan o‘lchamsiz kompleks, u fizik effektlarning nisbatini tavsiflab keladi.

Barcha kriterial mezonlarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: aniqlanadigan va aniqlaydigan. Noma'lum (izlanayotgan) kattaliklarga ega bo'lgan mezonlar aniqlanadigan mezonlar deb ataladi. Bir xil qiymatilik shartlari bilan berilgan fizik kattaliklardan tuzilgan (o'xhashlik) mezonlarini aniqlaydigan mezonlar deyildilar. Aniqlanadigan mezonlar eksperimentdan topilsa, aniqlaydigan mezonlarga esa eksperiment natijalari bog'liq bo'ladi. Mezonli tenglamasida aniqlanmish bo'lib, Nusselt mezoni (Nu) kelsa, aniqlovchi mezonlar sifatida - Grasgof mezoni (Gr), Reynolds mezoni (Re) va Prandtl mezoni (Pr) keladi.

Nusselt mezoni issiqlik oqimining konvektiv issiqlik berish bilan devor yaqinidagi oquvchan muhitning chegaraviy qatlqidagi konvektiv issiqlik oqimiga issiqlik berish nisbatini tavsiflab keladi.

$$Nu = \frac{\alpha \cdot R_0}{\lambda} \quad (2.11)$$

bu yerda α – issiqlik berish koeffitsiyenti, $Vt / (m^2 \cdot {}^\circ K)$;

R_0 – belgilovchi (xarakterli) o'lcham, m;

λ – oquvchan muhitning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $Vt / (m \cdot {}^\circ K)$.

Grasgof mezoni (kriteriysi) termogravitatsion kuchning qayishqoq ishqalanish kuchiga nisbatini tavsiflab keladi

$$Gr = \frac{g \cdot R_0^3}{\nu^2} \cdot \beta \cdot \Delta T, \quad (2.12)$$

bu yerda $g = 9,81 \text{ m/ik}^2$ – erkin tushish tezlashishi;

ΔT – devor va suyuklik orasidagi haroratlar farqi modeli, ${}^\circ C$ (${}^\circ K$);

β – suyuqlikning hajmiy kengayish koeffitsiyenti, $1/{}^\circ K$.

Tomchili suyuqliklarning hajmiy kengayish koeffitsiyenti spravochniklarda, masalan, [7,14] da suyuklik haroratiga bog'liq ravishda berilgan bo'lib, gazlar uchun quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$\beta = \frac{1}{T_0}, \quad (2.13)$$

bu yerda T_0 – belgilovchi harorat (Kelvin shkalasi bo'yicha).

Reynolds mezoni inersiya kuchining ishqalanish kuchiga bo'lgan nisbatini tavsiflab keladi:

$$Re = \frac{w_0 \cdot R_0}{\nu}, \quad (2.14)$$

bu yerda w_0 – belgilovchi yoki xarakterli tezlik, m/s;
 R_0 – belgilovchi yoki xarakterli o'lcham, m;
 v – oquvchan muhit qovushqoqligining kinematik koeffitsiyenti, m^2 / ik .

Re mezoni qiymatiga ko'ra suyuqlikning majburiy konveksiyadagi oqish rejimi to'g'risida fikr yuritadilar.

Prandtl mezoni molekulalar ko'chishining ikki tavsifi nisbatidan iborat: impuls (v) ko'chishi va issiqlik (a) ko'chishi.

$$Pr = \frac{v}{a}, \quad (2.15)$$

bu yerda v – oquvchan muhit qovushqoqligining kinematik koeffitsiyenti, m^2 / ik ;

a – suyuqlikning harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, m^2 / ik .

Harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti muhitning fizik parametri bo'lib, uning qiymati haroratga bog'liq holda ma'lumotnomalarda keltiriladi.

Funksional bog'liqlikning muayyan turi ayniyat tenglamalarida formula muallifi tomonidan beriladi. Aslini olganda, eksperiment ma'lumotlarini approksimatsiyalash uchun har qanday polinominal bog'liqlikdan foydalanish mumkin.

Mahalliy adabiyotlarda, odatda, approksimasiyalovchi tenglamalar sifatida quyidagi ko'rinishli daraja funksiyalarini qo'llaydilar:

$$Nu = c \cdot Gr^k \cdot Re^n \cdot Pr^m \cdot \varepsilon_t \cdot \varepsilon_c, \quad (2.16)$$

bu yerda c, n, m, k – empirik koeffitsiyentlar bo'lib, ular eksperiment ma'lumotlariga statistika ishlovi berish yo'li bilan topiladilar;

ε_t – suyuqlikning fizik xossalaringin haroratga bog'liqligini hisobga oladigan tuzatish;

ε_c – muayyan obyekt geometriyasini hisobga oladigan tuzatish.

Modelni qurish va eksperiment natijalariga mezonli formulalar ko'rinishida ishlov berishda to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ayniyat mezonlariga kiradigan belgilovchi parametrarni bilish talab etiladi. Konvektiv issiqlik almashinuvining statsionar masalalarida belgilovchi parametrarga quyidagilarni oid deb hisoblaydilar: belgilovchi o'lcham (R_0), belgilovchi harorat (T_0) va majburiy konveksiya masalalarida – belgilovchi tezlik (w_0).

Belgilovchi o'lcham (R_0) va belgilovchi harorat (T_0) formula muallifi tomonidan beriladi. Belgilovchi tezlik (w_0) esa uzviylik tenglamasidan topiladi.

$$w_0 = G / (\rho \cdot f), \quad (2.17)$$

bu yerda G – suyuqlik sarfi, kg / ik;

ρ – zichligi, kg / m³;

f – issiqlik tashuvchi o'tishi uchun ko'ndalang kesim maydoni, m².

Diqqat! Mezonli tenglamalarni qo'llashda belgilovchi parametrlar kriterial formulalarga berilgan sharhlarda ko'rsatilgan.

Issiqlik uzatish koeffitsiyentining hisob-kitobi uchun zarur mezonli tenglamalar [4,5,7,14] da keltirilgan.

Issiqlik uzatish koeffitsiyentining mezonli tenglamalar bo'yicha hisob-kitob algoritmi

1. Konvektiv issiqlik almashinuvining turi (erkin yoki majburiy konveksiya) va u ro'y berayotgan obyekt aniqlanadi. So'ng ma'lumot adabiyotlarida [4,5,7,14] ushbu konveksiya turiga oid mezonli formulalarni topadilar.

2. Mezonli formulalarga berilgan sharhlarda bayon etilgan talablarga muvofiq, muayyan parametrlar topiladi:

- o'lcham;
- oquvchan muhitning fizik xossalari (v , λ , Pr va h.k.) izlanadigan ma'lumot jadvallaridan [7] haroratni topadilar;

– quvurlar va kanallarda suyuqlik majburiy tarzda oqqaqida yoki trubalar va kanalga jamlangan truba tutamlari tashqi tarafdan yuvilganida suyuqlikning belgilovchi tezligini uzluksizlik integral tenglamasidan kelib chiqib hisoblab topadilar.

3. Muhitning oqim rejimini aniqlaydilar:

- majburiy harakatda Reynolds (Re) mezoniga (Re) ko'ra;
- erkin harakatda Reley (Ra) mezoniga (Ra) ko'ra. Oquvchan muhitning harakatlanish rejimiga bog'liq ravishda mezoniy formulaga aniqlik kiritiladi.

4. Mezonli tenglamaga ko'ra beo'lchov issiqlik berish koeffitsiyenti - Nusselt soni (Nu) topiladi.

5. Nusselt mezonini aniqlashdan foydalanib, konvektiv issiqlik uzatish koeffitsiyenti α hisoblab topiladi

$$\alpha = \text{Nu} \frac{\lambda}{R_0}, \quad (2.18)$$

2.11-masala. Diametri $d = 50$ mm va uzunligi $\ell = 0,75$ m li trubkadan bajarilgan isitgich $T_f = 30$ °C haroratlari suv solingan bak ichiga vertikal tarzda joylangan. Uning yuzasi haroratini butun uzunligi bo'ylab doimiy va $T_d = 45,5$ °C ga teng deb hisoblab, isitgich vaqt birligi davomida uzatiladigan issiqlik miqdori aniqlansin.

Yechim: Isitgich yuzasidagi va atrof-muhitning berilgan harorat qiymatlarida masala yechimi va issiqlik uzatish koeffitsiyentini aniqlashga borib taqaladi. Vertikal yuza yaqinidagi erkin konveksiya jarayonini hisob-kitob qilish uchun M.A. Mixeyev formulasini [7,9] qo'llaymiz. Unga ko'ra belgilovchi, hal qiluvchi harorat sifatida chegara qatlamning o'rtacha harorati olingan $T_m = (45,5 + 30) \cdot 0,5 = 37,75$ °C.

Ushbu haroratga ko'ra suv quyidagi xossalarga ega bo'ladi [5,7,14]:

$$\begin{aligned}\lambda &= 0,63 \text{ Vt / (m} \cdot {^0\text{K}}); c_p = 4187 \text{ J / (kg} \cdot {^0\text{K}}); \nu = 0,687 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2 / \text{ik}; \\ \rho &= 993,1 \text{ kg / m}^3; \beta = 0,36 \cdot 10^{-3} \text{ K}^{-1}; Pr_f = 4,52; Pr_d = 3,26.\end{aligned}$$

Belgilovchi o'lcham sifatida isitgich uzunligi qabul qilinadi $R_0 = \ell = 0,75$ m.

Grasgof mezoni

$$Gr = \left(\frac{g \cdot l^3}{\nu^2} \right) \cdot \beta \cdot (T_d - T_f) = \left(\frac{9,8 \cdot 0,75^3}{0,687 \cdot 10^{-6}} \right) \cdot 0,36 \cdot 10^{-3} \cdot (45,5 - 30) = 0,489 \cdot 10^{11}$$

$Ra = Gr \cdot Pr = 0,489 \cdot 10^{11} \cdot 4,52 = 2,21 \cdot 10^{11} > 2 \cdot 10^7$ bo'lganligi sababli, harakat rejimining turbulent va empirik koeffitsiyentlari quyidagi qiymatlarni oladilar:

$$c = 0,135; n = 0,33.$$

Nusselt mezoni

$$Nu = 0,135 \cdot (Gr \cdot Rg)^{0,33} = 0,135 \cdot (1,5 \cdot 10^{11})^{0,33} = 711,16.$$

Issiqlik berish koeffitsiyenti

$$\alpha = Nu \cdot \lambda / R_0 = 711,16 \cdot 0,63 / 0,75 = 597,37 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^0\text{K}})$$

Suvga vaqt birligi davomida uzatiladigan issiqlik miqdori

$$Q = \alpha \cdot (T_d - T_f) \cdot \pi \cdot d \cdot \ell = 597,37 \cdot (45,5 - 30) \cdot 3,14 \cdot 0,05 \cdot 0,75 = 1090,3 \text{ Vt.}$$

Javob: $Q = 1090,3 \text{ Vt}$.

2.12-masala. $d = 90 \text{ mm}$ li truba bo'ylab $w = 6 \text{ m}$ /ik tezlik bilan havo oqib o'tadi. Agar havoning o'rtacha harorati $\bar{T}_f = 100 \text{ }^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, issiqlik berish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati aniqlansin.

Yechim: Muayyan (aniq) harorat sifatida $T_0 = \bar{T}_f = 100 \text{ }^{\circ}\text{C}$ ni olamiz. Muayyan haroratda havo quyidagi xossalarga ega [7]:

$$\lambda = 0,0321 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^{\circ}\text{C}); v = 23,13 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2 / \text{ik}.$$

Ma'lum o'lcham sifatida truba diametrini olamiz $R_0 = d = 0,09 \text{ m}$.

Reynolds mezoni

$Re = \frac{w \cdot d}{v} = \frac{6 \cdot 0,009}{23,13 \cdot 10^{-6}} = 23346,3$, $Re > 10^4$ bo'lgani uchun, bu holda oqim rejimi turbulent bo'ladi.

Nusselt mezoni [4,5,7,14]

$$Nu = 0,018 \cdot Re^{0,8} = 0,018 \cdot 23346,3^{0,8} = 56,21.$$

$$\alpha = Nu \frac{\lambda}{R_0} = 56,21 \frac{0,0321}{0,09} = 20,05 \text{ Vt/m}^2 \cdot {}^{\circ}\text{K}$$

Javob: $\alpha = 20,05 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^{\circ}\text{K})$.

2.13-masala. $d = 80 \text{ mm}$ li va uzunligi $\ell = 4,4 \text{ m}$ bo'lgan truba bo'ylab $w = 1,2 \text{ m}$ / ik tezlik bilan suv oqmoqda. Agar suvning o'rtacha harorati $\bar{T}_f = 50 \text{ }^{\circ}\text{C}$, devor harorati esa $T_d = 70 \text{ }^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, issiqlik berish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati aniqlansin.

Yechim: Asosiy (hal qiluvchi) harorat $\bar{T}_f = 50 \text{ }^{\circ}\text{C}$ bo'lganida suvning fizik xossalari quyidagicha: $\lambda = 0,648 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^{\circ}\text{K})$; $v = 5,56 \cdot 10^{-7} \text{ m}^2 / \text{s}$; $Pr_f = 3,54$. $T_d = 70 \text{ }^{\circ}\text{C}$ bo'lganida suv uchun Prandtl mezoni $Pr_{wd} = 2,55$.

Suyuqlik truba ichidan majburiy harakatlanishida Reynolds mezoni asosiy (belgilovchi) bo'lib hisoblanadi:

$$Re = \frac{w \cdot d}{v} = \frac{1,2 \cdot 0,08}{5,56 \cdot 10^{-7}} = 17,27 \cdot 10^4$$

$Re = 17,27 \cdot 10^4 > Re = 10^4$ bo'lganligi sababli, bu holda oqim rejimi turbulent bo'ladi.

Bu holda mezoni formula quyidagi ko'rinishga ega [4,5,7,14]

$$Nu = 0,021 \cdot Re^{0,8} \cdot Pr_f^{0,43} \cdot \varepsilon_r \cdot \varepsilon_s;$$

$$\varepsilon_r = (Pr_f / Pr_w)^{0,25} = (3,54 / 2,55)^{0,25} = 1,09;$$

$$Nu = 0,021 \cdot (17,27 \cdot 10^4)^{0,8} \cdot 3,54^{0,43} \cdot 1,09 = 610,26.$$

$\ell/d = 55 > 50$ bo‘lgani sababli, gidrodinamik stabilizatsiyaning boshlang‘ich uchastkasiga tuzatish $\varepsilon_t = 1$ ga teng.

Nusselt sonini bilib, issiqlik berish koefitsiyentini topamiz:

$$\alpha = \text{Nu} \frac{\lambda}{d} = 610,26 \frac{0,648}{0,08} = 4393,1 \text{ Vt/m}^2 \cdot {}^\circ\text{K}$$

Javob: $\alpha = 4393,1 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {}^\circ\text{K)}$.

2.14-masala. $d = 20 \text{ mm}$ diametrli va uzunligi $\ell = 1,2 \text{ m}$ trubadan bajarilgan elektr isitgich, solishtirma elektr qarshiligi $\rho_p = 0,2 \text{ (Om} \cdot \text{mm}^2)/\text{m}$, $u_w = 0,75 \text{ m/ik}$ tezlikdagi ko‘ndalang havo oqimi va harorat $T = 20 \text{ }^\circ\text{C}$ bilan shamollatiladi. Agar isitgich yuzasi harorati $T_d = 95 \text{ }^\circ\text{C}$ dan oshmasa, isitgichning havoga vaqt birligida uzatayotgan issiqlik miqdori va undagi yo‘l qo‘yiladigan tok kattaligi aniqlansin.

Yechim: $T_f = 20 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratda havo quyidagi fizik xossalarga ega bo‘ladi [7]:

$$v = 15,06 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2/\text{ik}; \lambda = 0,0259 \text{ Vt / (m} \cdot {}^\circ\text{K)}; \text{Pr}_f = 0,703.$$

Reynolds mezoni

$$Re = w \cdot d/v = 0,75 \cdot 0,02/(15,06 \cdot 10^{-6}) = 996.$$

$Re = 996$ bo‘lganida issiqlik uzatilish hisobini trubani ko‘ndalang aylanib oqib o‘tishda [4,5,7,14] tenglama bo‘yicha amalga oshirish mumkin:

$$\text{Nu} = 0,52 \cdot Re^{0,5} \cdot \text{Pr}_f^{0,37} = 0,52 \cdot 996^{0,5} \cdot 0,703^{0,37} = 0,52 \cdot 31,56 \cdot 0,88 = 14,5.$$

Issiqlik berish koefitsiyenti

$$\alpha = \text{Nu} \cdot \lambda/d_0 = 14,5 \cdot 0,0259/0,02 = 18,8 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {}^\circ\text{K}).$$

Isitgichdan havoga uzatiladigan issiqlik miqdori

$$Q = \alpha \cdot (T_d - T_f) \cdot F = 18,8 \cdot (95 - 20) \cdot \pi \cdot 0,02 \cdot 1,2 = 106,26 \text{ Vt.}$$

Elektr toki isitgichdan o‘tganida ajralib chiqqan issiqlik miqdorini atrofdagi havoga uzatilgan issiqlik miqdoriga tenglashtirib, tokning yo‘l qo‘yiladigan kattaligini topamiz:

$$Q = I^2 \cdot R_{el};$$

$$I = \sqrt{\frac{Q}{R_{el}}} = \sqrt{\frac{Q}{[\rho_p \cdot l \cdot 4 \cdot (\pi \cdot d^2)]}} = \sqrt{\frac{106,26}{[0,2 \cdot 1,2 \cdot 4 \cdot (3,14 \cdot 20^2)]}} = 372,86 \text{ A.}$$

Javob: $Q = 106,26 \text{ Vt}; I = 372,86 \text{ A.}$

2.15-masala. Korpusi silindrsimon shaklga ega bo'lgan va erkin havo oqimi bilan sovutiladigan gorizontal issiqlik almashtirgichning 1 m^2 yuzasidan konveksiya orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdori hisoblab topilsin. Issiqlik almashtirgich korpusining tashqi diametri $d = 400 \text{ mm}$, yuzasining harorati $T_d = 160 \text{ }^\circ\text{C}$, xonadagi havo harorati $T_f = 20 \text{ }^\circ\text{C}$.

Javob: $\alpha = 7,3 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}$; $q = 1025 \text{ Vt / m}^2$.

2.16-masala. I-masala shartiga ko'ra kamroq issiqlik yo'qotish maqbulidu issiqlik almashgich korpusi issiqlik izolyatsiyasi qatlami bilan qoplangan. Agar qalinligi 50 mm li issiqlik izolyatsiyasi qatlami yotqizilganidan so'ng izolyatsiyaning tashqi yuzasidagi harorat T_d endi $40 \text{ }^\circ\text{C}$ ga yetib, xonadagi harorat T_f esa avvalgiday $+20 \text{ }^\circ\text{C}$ qolgan bo'lsa, izolyatsiyaning tashqi yuzasida issiqlik almashtirgich yuzasidan issiqlik yo'qotilishining zichligi q , Vt/m^2 topilsin.

Javob: $q = 86 \text{ Vt / m}^2$.

2.17-masala. Agar plita yuzasi harorati $T_d = 80 \text{ }^\circ\text{C}$, yuzadan uzoqdagi atrof muhit harorati $T_f = 20 \text{ }^\circ\text{C}$ ekanligi ma'lum bo'lsa, balandligi $H = 1,5 \text{ m}$ bo'lgan vertikal plitadan atrofidagi havoga issiqlik berish koeffitsiyenti uniqlansin.

Javob: $\alpha = 6 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}$.

2.18-masala. Agar 3-masala shartlariga ko'ra plita balandligi 4 marta ko'tarilib, qolgan boshqa shartlar esa vertikal plitaning atrofdagi havoga issiqlik berish koeffitsiyenti qanday o'zgaradi?

Javob: $\alpha_1 / \alpha_2 = 1$.

2.19-masala. Tashqi diametri $d = 16 \text{ mm}$ bo'lgan trubka shaklidagi suvli kalorimetrik havoning ko'ndalang oqimiga joylangan. Havo $w = 3 \text{ m / ik tezlik bilan}$ kalorimetrik o'qiga nisbatan 90° burchak ostida harakatlanib, o'r-tacha $T_f = 20 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratga ega. Statsionar issiqlik rejimida kalorimetring tashqi yuzasida quyidagi doimiy o'r-tacha harorat $T_d = 80 \text{ }^\circ\text{C}$ o'rnatiladi.

Trubkadan havoga issiqlik berish koeffitsiyenti va kalorimetrik uzunligining birligiga issiqlik oqimi hisoblab topilsin.

Javob: $\alpha = 46,9 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{K})$; $q_e = 141,37 \text{ Vt} / \text{m}$.

2.20-masala. Diametri $d = 25 \text{ mm}$ bo‘lgan silindrsimon trubka ko‘ndalang suv oqimi yordamida sovutiladi. Oqim tezligi $w = 1 \text{ m} / \text{ik}$. Suvning o‘rtacha harorati $\bar{T}_f = 10 \text{ }^\circ\text{C}$, trubka yuzasi harorati esa $T_d = 60 \text{ }^\circ\text{C}$. Trubka yuzasidan sovituvchi suvga issiqlik berish koeffitsiyenti aniqlansin.

Javob: $\alpha = 6807,7 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{K})$.

2.21-masala. Bir tomoni $a = 20 \text{ mm}$ va uzunligi $\ell = 1400 \text{ mm}$ bo‘lgan kvadrat kesimli kanaldan $w = 3,5 \text{ m} / \text{ik}$ tezlik bilan suv oqib o‘tmoxqda. Agar kanal uzunligi bo‘yicha o‘rtacha suv harorati $\bar{T}_f = 30 \text{ }^\circ\text{C}$, kanal ichki yuzasining harorati $T_d = 90 \text{ }^\circ\text{C}$ bo‘lsa, kanal devoridan issiqlik berish koeffitsiyenti hisoblab topilsin.

Javob: $\alpha = 15493 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{K})$.

2.22-masala. Agar kvadrat kesimli kanal teng tomonli uchburchak kesimli kanal bilan almashtirilsa, 7-masala shartiga binoan issiqlik berish koeffitsiyenti qanday o‘zgaradi? Bunda kanalning ko‘ndalang kesimi maydoni va suvning harakatlanish tezligi o‘zgarmay qoladi.

Javob: Issiqlik berish koeffitsiyenti 2,6 % ga kattalashadi.

2.3. Bug‘lar kondensatsiyalanib, suyuqliklar qaynashida konvektiv issiqlik almashinuv

Suyuqliknинг fazaviy holatiga bog‘liqravishda ajratishadi (различают), v bir fazali muhitdagi konvektiv issiqlik almashinuvi va fazaviy o‘zgarishlarda konvektiv issiqlik almashinuvini farqlaydilar. Moddaning agregat holati o‘zgarishidagi (kondensatsiyalanish va qaynashda) issiqlik almashinish jarayonini konvektiv issiqlik almashinuviga oid deb bilib, uni Nyuton issiqlik uzatish qonuniga binoan hisoblab topadilar:

$$Q = \alpha \cdot \Delta T \cdot F, \quad (2.19)$$

bu yerda α – kondensatsiyalanish yoki qaynashda issiqlik berish (uzatish) koeffitsiyenti, $\text{Vt} / (\text{m}^2 \cdot ^\circ\text{K})$;

F – issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2 ;

ΔT – suyuqlik va devor haroratlari o‘rtasidagi farq (harorat-dagi farqlanish), $^\circ\text{C} (^^\circ\text{K})$.

Kondensatsiyalanish jarayoni $T_d < T_n$ sharti bilan ro'y berib, shu sababli kondensatsiyalanishda haroratlar farqi quyidagiga teng:

$$\Delta T = T_n - T_d \quad (2.20)$$

Qaynashda, aksincha, devor harorati ana shu bosimdag'i to'yinish haroratiga nisbatan qizib ketishi lozim, bu holda:

$$\Delta T = T_d - T_n \quad (2.21)$$

Modda agregat holatining o'zgarishi doimiy haroratda ro'y berib, suznaviy o'tish solishtirma issiqligi r ning ajralib chiqishi (kondensatsiyulanishdu) yoki yutilishi (qaynashda) bilan tavsiflanadi, J / kg (suv uchun bug' hosil bo'lishining yashirin issiqligi) (2.1-rasmga qar.).


Fuznaviy o'tish r solishtirma issiqligi qiymatini to'yingan quruq bug'ning to'yinish haroratiga yoki berilgan bosimiga ko'ra suv va suv bug'ining termodinamik xossalari [8,14] jadvallari (bosim $p_n < 100$ kPa dan past bo'lganida) yoki 2.1-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib topish mumkin.

2.1-jadval

To'yinish harorati va bug' hosil bo'lishi issiqligining bosimga bog'liqligi

p , MPa	T_n , °C	r , kJ / kg	p , MPa	T_d , °C	r , kJ / kg
0,00123	10	2477,4	0,00737	40	2406,5
0,00234	20	2453,8	0,01234	50	2382,5
0,00424	30	2430,2	0,1000	99,63	2258,2

Aytish lozimki, kondensatsiya r da issiqlik berishning hisobiy formulalarini kilogrammga Joullarda (J / kg) qo'yish lozim



2.1-rasm. Suv bug‘ining fazaviy T, s - diagrammasi

Statsionar kondensatsiyalanish jarayonida yoki qaynashda fazaviy o‘tishning issiqlik oqimi

$$Q = G \cdot r, \quad (2.22)$$

bu yerda Q – kondensatsiyalanishda bug‘dan devorga yoki qaynashda devordan qaynayotgan suyuqlikka boradigan issiqlik oqimi, Vt ;

G – kondensat yoki bug‘ fazasi sarfi, kg/ik;

r – fazaviy o‘tish solishtirma issiqligi, J / kg.

Moddaning fazaviy o‘zgarishlarida issiqlik almashinuvining asosiy tenglamasi – issiqlik balansi (muvozanati) tenglamasi

$$Q = G \cdot r = \alpha \cdot \Delta T \cdot F. \quad (2.23)$$

bu yerda G – kondensat yoki bug‘ fazasi sarfi, kg / ik;

r – fazaviy o‘tish solishtirma issiqligi, J / kg;

α – kondensatsiyalanish yoki qaynashda issiqlik berish (uzatish) koeffitsiyenti, $Vt / (m^2 \cdot {}^\circ K)$;

ΔT – suyuqlik va devor haroratlari o‘rtasidagi farq (harorat-dagi farqlanish), ${}^\circ C$ (${}^\circ K$);

F – issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2 .

Bug‘lar kondensatsiyalanishida issiqlik berilishi

Kondensatsiya – bug‘ning (gazning) suyuq yoki qattiq holatga o‘tish jarayonidir (desublimatsiya). Bug‘ kondensatsiyalanganida fazaviy o‘tish

issiqligi (bug'lik hosil bo'lishining yashirin issiqligi) ajralib chiqib, shu sababli kondensatsiya jarayoni issiqlik almashinuvi bilan uzviy bog'liq.

Vertikal yuzadagi bug'lar kondensatsiyalanganida issiqlik uzatish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati Nusselt formulasi bo'yicha hisoblab topiladi:

$$\bar{\alpha} = 0,943 \cdot \sqrt{\frac{g \cdot r \cdot \rho_{pl}^2 \cdot \lambda_{pl}^3}{\mu_{pl} \cdot (T_n - T_d) \cdot H}} \quad (2.24)$$

bu yerda $g = 9,81 \text{ m / ik}^2$ – erkin tushish tezlashishi;

r – bug' hosil bo'lishining yashirin issiqligi, J / kg ;

λ_{pl} – kondensat plenkasingning issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti, $\text{Vt / (m} \cdot {^\circ}\text{K)}$;

μ_{pl} – kondensat qayishqoqligining dinamik koeffitsiyenti, $\text{Pa} \cdot \text{ik}$;

ρ_{pl} – plenka zichligi, kg / m^3 ;

H – vertikal yuza balandligi, m ;

T_n – to'ynish harorati, ${}^\circ\text{C} ({}^\circ\text{K})$;

T_d – issiqlik almashinuv yuzasi (devor) harorati, ${}^\circ\text{C} ({}^\circ\text{K})$.

Qiya yuzada kondensatsiyalanishdagi o'rtacha issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$\bar{\alpha}_{nukl} = \bar{\alpha}_{vertik} \cdot \sqrt{\cos \varphi}, \quad (2.25)$$

bu yerda $\bar{\alpha}_{vertik}$ – vertikal yuza uchun issiqlik berish koeffitsiyenti;

φ – og'irlilik kuchi va o'q yo'nalishi orasidagi, issiqlik almashtinuvi yuzasi bo'ylab yo'naltirilgan burchak.

Gorizontal trubada plenkali kondensatsiyalanishda o'rtacha issiqlik berish koeffitsiyenti laminar oqimda kondensat plenkalari Nusselt formulasiga binoan hisoblab topilib, u ushbu holda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\bar{\alpha} = 0,728 \cdot \sqrt{\frac{g \cdot r \cdot \rho_{pl}^2 \cdot \lambda_{pl}^3}{\mu_{pl} \cdot (T_n - T_d) \cdot d_{tr}}} \quad (2.26)$$

bu yerda $g = 9,81 \text{ m / ik}^2$ – erkin tushish tezlashishi;

r – bug' hosil bo'lishining yashirin issiqligi, J / kg ;

λ_{pl} – kondensat plenkasingning issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti, $\text{Vt / (m} \cdot {^\circ}\text{K)}$;

μ_{pl} – kondensat qayishqoqligining dinamik koeffitsiyenti,
Pa · ik;

ρ_{pl} – plenka zichligi, kg / m³;

T_n – t o‘yinish harorati, °C (°K);

T_d – issiqlik almashinuv yuzasi (devor) harorati, °C (°K);

d_{tr} – trubaning tashqi diametri, m.

Ushbu formula quyidagi shart bajarilganida plenkaning laminar oqish rejimi uchun to‘g‘ri keladi:

$$d_{tr} < 20 \cdot \sqrt{\frac{\sigma_{pl}}{g \cdot \rho_{pl}}}, \quad (2.27)$$

bu yerda σ_{pl} – plenka yuzasining taranglik kuchi, N / m;

ρ_{pl} – plenka zichligi, kg / m³.

Diqqat! Suyuq plenkaning fizik xossalari spravochnikdan [7] ushbu bosimdagи to‘yinish haroratiga ko‘ra topiladi.

Plenkaning issiqlik berishning lokal koeffitsiyentlari, to‘lqinli va turbulent oqimidagi issiqlik berish koeffitsiyentini, shuningdek kondensat plenkasining qalinligini hisoblab topish uchun formulalar [4,7,9,14] da keltirilgan.

Suyuqliklar qaynashida issiqlik uzatilishi

Qaynash – to‘yinish harorati yoki undan yuqori haroratda suyuqlik hajmi ichida intensiv (jadal) bug‘ hosil bo‘lish jarayonidir.

Qaynashda fazaviy o‘tish issiqligi yutilib, shuning uchun statsionar qaynash jarayonini amalga oshirish uchun issiqlik keltirish talab etiladi.

Katta hajmda pufakli va plenkali qaynashda issiqlik uzatilishi hisob-kitobi formulalarini keltiramiz.

Suvning katta hajmda qaynashida issiqlik berilishini hisob-kitob qilish maqsadida quyidagi formulalardan foydalanadilar:

$$\alpha = 38,7 \cdot \Delta T^{2,33} \cdot p_n^{0,5}, \quad (2.28)$$

$$\alpha = 3,0 \cdot q^{0,7} \cdot p_n^{0,15}, \quad (2.29)$$

(2.28) formulani pufakli qaynashga oid birinchi turdagи chekli sharoitlar hisob-kitob qilishda qo‘llaydilar. Bu holda rostlanadigan (berilgan) kattalik bo‘lib devor harorati keladi va bundan kelib chiqib, suyuqlikning qizib ketishi ($\Delta T = T_d - T_n$), formulani (2.29) esa ikkinchi turdagи chekli

sharoitlardagi qaynash hisob-kitoblarida ishlatalardilar (berilgan kattalik – devor yuzasidagi issiqlik oqimining zichligi (α)). (2.29) formula bo‘yicha α ni aniqlab, devorning qizib ketganligi (chegaraviy qatlamdagi suyuqlik) va devor haroratini osonlik bilan topish mumkin.

$$\Delta T = q/\alpha \Rightarrow T_d = T_i + q/\alpha \quad (2.30)$$

2.23-masala. Diametri $d = 40$ mm va uzunligi $\ell = 3$ m bo‘lgan gorizonttal truba tashqi yuzasida $p_n = 1,013 \cdot 10^5$ Pa bosimda quruq to‘yingan suv bug‘i kondensatsiyalanadi. Truba yuzasi harorati $T_d = 95,5$ °C. Bug‘dan trubaga o‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyenti va truba yuzasida kondensatsiyalanadigan bug‘ miqdori G aniqlansin.

Yechim: To‘yingan quruq bug‘ni goronttal trubada plenkali kondensatsiyalashda o‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyentini quyidagi formula bo‘yicha aniqlash mumkin

$$\bar{\alpha} = 0,728 \cdot \sqrt{\frac{g \cdot r \cdot \rho_{pl}^2 \cdot \lambda_{pl}^3}{\mu_{pl} \cdot (T_n - T_d) \cdot d_{tr}}}$$

u plenkaning laminar oqimi uchun to‘g‘ri keladi.

$p_n = 1,013 \cdot 10^5$ Pa [7, 14] bo‘lganida $T_n = 100$ °C.

To‘yinish harorati $T_n = 100$ °C bo‘lganida kondensatning fizik xossalari:

$$\rho_{pl} = 958,4 \frac{kg}{m^3}; \quad \lambda_{pl} = 68,3 \cdot 10^{-2} \frac{W}{m \cdot ^\circ C};$$

$$\mu_{pl} = 282,5 \cdot 10^{-6} Pa \cdot s;$$

$$r_p = 2256,8 \cdot 10^3 \frac{kg}{m^3}; \quad \sigma_{pl} = 588,6 \cdot 10^{-4} \frac{N}{m}.$$

Laminar plenkali oqish rejimi sharti

$$d < 20 \cdot \left(\frac{\sigma_{pl}}{g \cdot \rho_{tr}} \right) = 20 \cdot \left(\frac{588,6 \cdot 10^{-4}}{9,8 \cdot 958,4} \right)^{0,5} = 0,050 m = 50 mm,$$

$d_{tr} = 20$ mm < 50 mm, bundan kelib chiqib, plenkaning oqish rejimi laminar rejim bo‘ladi.

Issiqlik berish koeffitsiyenti

$$\alpha = 0,728 \cdot \sqrt[4]{\frac{9,8 \cdot 2256,8 \cdot 10^3 \cdot (68,3 \cdot 10^{-2})^3}{282,5 \cdot 10^{-6} \cdot (100 - 95,5) \cdot 0,04}} = 13751,5 \frac{W}{(m^2 \cdot ^\circ K)}$$

Issiqlik muvozanati tenglamasidan hosil bo'ladigan kondensat miqdorini aniqlaymiz:

$$G \cdot r = \alpha \cdot \Delta T \cdot F;$$

$$G = \frac{\alpha \cdot \Delta T}{r} \cdot \pi \cdot d \cdot l =$$

$$\frac{13751,5 \cdot (100 - 95,5)}{2256,8 \cdot 10^3} \cdot 3,14 \cdot 0,04 \cdot 3 = 10,33 \cdot 10^{-3} \text{ kg/ik}$$

Javob: $\alpha = 13751,5 \text{ Vt/(m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}$; $G = 10,33 \cdot 10^{-3} \text{ kg/ik}$.

2.24-masala. Katta hajmda pufakchali qaynash rejimida issiqlik berish koeffitsiyenti va qizish yuzasi harorati aniqlansin. Suv bosimi 2 MPa, issiqlik oqimi zichligi esa $q = 0,8 \text{ MVt/m}^2$.

Yechim: Suvning pufakchalar bilan qaynashida issiqlik uzatish koeffitsiyenti

$$\alpha = 3,0 \cdot q^{0,7} \cdot p_n^{0,15}$$

$$p_n = 2 \text{ MPa} = 2 \cdot 10^6 \text{ Pa} = 20 \text{ bar}; \quad T_n = 179,88 \text{ }{^\circ}\text{C};$$

$$\alpha = 3,0 \cdot (0,8 \cdot 10^6)^{0,7} \cdot 20^{0,15} = 63743,9 \text{ Vt/(m}^2 \cdot {^\circ}\text{K}).$$

Qizish (isish) yuzasi haroratini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$q = \alpha \cdot \Delta T = \alpha \cdot (T_d - T_n);$$

$$\Delta T = \frac{q}{\alpha} = \frac{8 \cdot 10^5}{63743,9} = 12,55 \text{ }{^\circ}\text{C}$$

$$T_d = T_n + \Delta T = 179,88 + 12,55 = 192,43 \text{ }{^\circ}\text{C}.$$

Javob: $\alpha = 63743,9 \text{ Vt/(m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}$; $T_d = 192,43 \text{ }{^\circ}\text{C}$.

2.25-masala. 40 mm diametrli gorizontal trubada 0,27 MPa bosimda suv plenkali qaynashi yuz bermoqda. Yuza harorati 160 $^{\circ}\text{C}$. Devordan suvga issiqlik berish koeffitsiyenti hisoblab topilsin.

Yechim: Issiqlik berish koeffitsiyentini quyidagi formula bo'yicha hisoblab topamiz

$$\bar{\alpha} = 0,728 \cdot \sqrt{\frac{g \cdot r \cdot \rho'' \cdot (\rho' - \rho'') \cdot \lambda_{pl}^3}{\mu_{pl} \cdot \Delta T \cdot d_{tr}}}$$

Hal qiluvchi harorat $T_0 = T_n = 130$ °C.

Suv bug‘ining ana shu haroratdagi va 0,27 MPa bosimdagи fizik xossalari [7,8]:

$$r = 2174,3 \text{ kJ / kg}; \rho'' = 1,496 \text{ kg / m}^3; \mu_{pl} = 13,24 \cdot 10^{-6} \text{ Pa} \cdot \text{ik};$$

$$\lambda_{pl} = 2,686 \cdot 10^{-2} \text{ Vt / (m} \cdot {^\circ}\text{K}); \rho' = 934,8 \text{ kg / m}^3.$$

$$\alpha = 0,728 \cdot \sqrt{\frac{9,8 \cdot 2174,3 \cdot 10^3 \cdot 1,496 \cdot (934,8 - 1,496) \cdot (2,686 \cdot 10^{-2})^3}{13,24 \cdot 10^{-6} \cdot (160 - 130) \cdot 0,04}} = \\ = 436,4 \text{ Vt / (m} \cdot {^\circ}\text{K)}$$

Javob: $\alpha = 436,4 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}.$

2.26-masala. Bug‘bosimi $p_n = 1,98 \cdot 10^5 \text{ Pa}$, barcha qolgan ma’lumotlar esa o‘zgarishsiz qolishi sharti bilan 2.23-masalani yeching. Hisob-kitob natijalarini 1-masala javobi bilan solishtiring.

Javob: $\alpha = 10950 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}; G = 0,0158 \text{ kg / ik.}$

2.27-masala. Agar truba diametri 3 martaga kattalashtirilib, biroq bug‘ bosimi, dam, oqim kuchi (napor) harorati va truba uzunligi o‘zgartirmay qoldirilsa, issiqlik berish koefitsiyenti va gorizontal truba yuzasida vaqt birligi davomida kondensasiyalanayotgan to‘yingan quruq suv bug‘i miqdori qanchaga o‘zgaradi?

Javob: Issiqlik berish koefitsiyenti 1,316 marta kichrayadi; vaqt birligi davomida kondensasiyalanadigan bug‘ miqdori 2,28 martaga ko‘payadi.

2.28-masala. 20 mm diametrali va balandligi $H = 2 \text{ m}$ vertikal trubaning tashqi yuzasida $p_n = 1,98 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimda to‘yingan quruq suv bug‘i kondensasiyalanadi. Truba yuzasi harorati $T_d = 115$ °C.

Balandligiga ko‘ra bug‘dan trubaga o‘rtacha issiqlik berish koefitsiyenti va truba yuzasida kondensasiyalanadigan bug‘ miqdori, G, kg / s, aniqlansin.

Javob: $\alpha = 6740 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K)}; G = 7 \text{ kg / s.}$

2.29-masala. Gorizontal kondensatorda $p = 1,013 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ bosimda 0,278 kg/i to‘yingan quruq suv bug‘ini kondensasiyalash talab etiladi. Kondensatorning tashqi diametri $d = 0,03 \text{ m}$ va uzunligi $\ell = 3,5 \text{ m}$ bo‘lgan trubalari soni aniqlansin. Trubalar devori harorat stenki trub $T_d = 80$ °C.

Javob: $n = 10$ dona (sht).

2.30-masala! Diametri $d = 0,034 \text{ m}$ bo‘lgan gorizontal truba yuzasida plenkaning laminar oqimida agar issiqlik oqimining zichligi

$q = 5,8 \cdot 10^4 \text{ Vt} / \text{m}^2$. Bug‘ bosimi $p_n = 1,013 \text{ bar}$ bo‘lsa, plenkali kondensasiyada to‘yingan quruq suv bug‘i damining qanday haroratini ta’minlash kerak?

Javob: $\Delta T = 3,9 \text{ }^\circ\text{C}$.

2.31-masala. Katta hajmdagi suv yuzasining harorati $200 \text{ }^\circ\text{C}$ bo‘lgan bug‘latgich trubkalarida qaynamoqda. Suv bosimi $1,255 \text{ MPa}$ ga teng. Trubalarning tashqi diametri 40 mm , uzunligi $1,5 \text{ m}$, trubalar soni 30 dona. Pufakchali qaynashdagi issiqlik berish koeffitsiyenti va trubalardan suvga boradigan issiqlik oqimi topilsin.

Javob: $\alpha = 29306 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^\circ\text{K})$; $Q = 1,66 \text{ MVt}$.

2.32-masala. Katta hajmda $1,98 \text{ bar}$ bosim ostida qaynayotgan suvdan 300 kg/s to‘yingan quruq suv bug‘i olish lozim. Agar yuza harorati $131 \text{ }^\circ\text{C}$ bo‘lsa, buning uchun talab etilgan qizish yuzasi maydoni aniqlansin.

Javob: $F = 1,15 \text{ m}^2$.

2.33-masala. Issiqlik oqimining suvning plenkali qaynashida $3,61 \text{ bar}$ bosimda tashqi diametri 30 mm va uzunligi $0,48 \text{ m}$ bo‘lgan vertikal truba yuzasidagi zichligi aniqlansin. Yuza harorati $155 \text{ }^\circ\text{C}$. Agar truba gorizontal joylashtirilsa, issiqlik berish koeffitsiyenti qanchaga o‘zgardi?

Javob: $q = 4297 \text{ Vt} / \text{m}^2$; issiqlik berish koeffitsiyenti 2 barobar kattalashadi.

2.4. Nurlanish orqali issiqlik almashinuv

Issiqlik nurlanishi (radiatsion issiqlik almashinuv) – tabiatda issiqlik tashish, ko‘chirish usuli bo‘lib, u energiyasi modda bilan o‘zarot ta’sir oqibatida issiqlikka o‘tadigan elektromagnit to‘lqinlar tarqalishi natijasida amalga oshiriladi. Radiatsion issiqlik almashinuvi energiyaning ikki marta o‘zgarishi bilan bog‘liq: dastlab jismning ichki energiyasi elektromagnit nurlanish energiyasiga aylanadi, shundan so‘ng, energiya makonda elektromagnit to‘lqinlari yordamida ko‘chirilganidan keyin, nurli energiyaning boshqa jism ichki energiyasiga ikkinchi marta aylanishi ro‘y beradi. Moddaning issiqlik nurlanishi jism haroratiga bog‘liq (moddaning isiganlik darajasiga).

Jismga tushayotgan issiqlik nurlanishi energiyasi jism tomonidan yutilishi, unda aks ettirilishi, yoki u orqali o‘tib ketishi mumkin. Unga tushgan nurli energiyani to‘liq yutadigan jism mutlaq qora jism (MQJ)

deb ataladi. Qayd etish lozimki, ushbu haroratda MQJ mumkin maksimal miqdordagi energiyani yutadi va tarqatadi.

Jismning o‘z nurlanish oqimi zichligiga uning nur chiqarish imkoniyati deb aytildi. Bu nurlarish parametri to‘lqinlar uzunligining elementar uchastkasi dλ me‘yorida o‘z nurlanish oqimining spektral zichligi yoki jismning spektral nur tarqatish imkoniyati deb nomlanadi. MQJning nur tarqatish imkoniyati haroratga bog‘liq ravishda Stefan-Bolsman qonuniga bo‘ysunadi:

$$E_0 = \sigma_0 \cdot T^4 = c_0 \cdot \left[\frac{T}{100} \right]^4, \quad (2.31)$$

bu yerda $\sigma_0 = 5,67 \cdot 10^{-8} \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K}^4)$ – Stefan - Bolsman doimiysi;

$C_0 = 5,67 \text{ Vt / (m}^2 \cdot {^\circ}\text{K}^4)$ – mutlaq qora jismning nurlanish koeffitsiyenti;

T – mutlaq qora jism yuzasining harorati, ${^\circ}\text{K}$.

Tabiatda mutlaq qora jismlarning o‘zi mavjud emas. Nurlanish spektri mutlaq qora jism spektriga o‘xshash bo‘lgan hamda nurlanish oqimining spektral zichligi (E_λ) mutlaq qora jism spektral zichligi ($E_{0,\lambda}$) dan bir xil ulush ε_λ ni tashkil etgan jism kulrang jism deb nomlanadi.

$$\frac{E_\lambda}{E_{0,\lambda}} = \varepsilon_\lambda = \text{const}, \quad (2.32)$$

bu yerda ε_λ – spektral qoralik darajasi.

So‘nggi ifoda integratsiyalanganidan keyin butun nurlanish spektri bo‘yicha ($0 \leq \lambda \leq \infty$) quyidagini olamiz

$$\frac{E}{E_0} = \varepsilon_\lambda, \quad (2.33)$$

bu yerda E – kulrang jismning nur chiqarish imkoniyati;

E_0 – MQJning nur chiqarish imkoniyati;

ε – kulrang jism qoraligining integral darajasi yoki qoralik darajasi.

Qoralik darajasi – jismning fizik xossalari, uning harorati va g‘adir-budurligiga bog‘liq ravishda eksperimentlar (tajribalar) yordamida aniqlanadigan kattalik, ma’lumotnomada keltirilgan [7,8].

Kulrang jismning o‘z nurlanish oqimi zichligini hisob-kitob qilish (nur tarqatish imkoniyati) uchun mo‘ljallangan ifoda:

$$E = \varepsilon \cdot E_0 = \varepsilon \cdot \sigma_0 \cdot T^4 = \varepsilon \cdot c_0 \cdot \left[\frac{T}{100} \right]^4 = c \cdot \left[\frac{T}{100} \right]^4, \quad (2.34)$$

bu yerda $c = \varepsilon \cdot c_0$ – kulrang jismning nurlanish koeffitsiyenti, $Vt / (m^2 \cdot ^\circ K^4)$;

T – jism harorati, $^\circ K$.

Nur o'tkazadigan shaffof muhit bilan ajratilgan kulrang yuzalardan tashkil topgan yopiq tizimdagi radiatsion issiqlik almashinuvining hisobkitobi bo'yicha nazariy qoidalar ilmiy adabiyotlarda batafsil keltirilgan [7,8].

Ikki kulrang yuzadan iborat bo'lib, diatermik muhit bilan ajratilgan yopiq tizimning natijaviy nurlanish oqimi quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi:

$$Q_{w,1} = \varepsilon_{kelt} \cdot \sigma_0 \cdot (T_2^4 - T_1^4) \cdot \varphi_{21} \cdot F_2, \quad (2.35)$$

yoki:

$$Q_{w,1} = c_0 \cdot ([\frac{T_2}{100}]^4 - [\frac{T_1}{100}]^4) \cdot \varphi_{21} \cdot F_2, \quad (2.36)$$

bu yerda T – issiqlik almashinuvining mutlaq harorat yuzalari, $^\circ K$;

F – issiqlik almashinish yuzasi maydoni, m^2 ;

φ_{12} va φ_{21} – mos ravishda birinchi jismdan ikkinchisiga va ikkinchi jismdan birinchisiga burchak nurlanish koeffitsiyentlari;

ε_{kelt} – ikki jismdan iborat tizimdagi keltirilgan qoralik darajasi;

$c_{kelt} = \sigma_0 \cdot \varepsilon_{kelt}$ – ikki jismdan iborat tizimda keltirilgan nurlanish koeffitsiyentlari.

Ikki kulrang jismdan iborat bo'lgan radiatsion issiqlik almashinuvining yopiq tizimidagi keltirilgan qoralik darajasi va keltirilgan nurlanish koeffitsiyenti quyidagi formulalar bo'yicha hisoblab topiladi:

$$\varepsilon_{kelt} = \frac{1}{1 + \left(\frac{1}{\varepsilon_1} - 1 \right) \cdot \varphi_{12} + \left(\frac{1}{\varepsilon_2} - 1 \right) \cdot \varphi_{21}}; \quad (2.37)$$

$$c_{kelt} = \varepsilon_{kelt} \cdot c_0 = \frac{1}{\frac{1}{c_0} + \left(\frac{1}{c_1} - \frac{1}{c_0} \right) \cdot \varphi_{12} + \left(\frac{1}{c_2} - \frac{1}{c_0} \right) \cdot \varphi_{21}}; \quad (2.38)$$

bu yerda $c_1 = \varepsilon_1 \cdot c_0$ va $c_2 = \varepsilon_2 \cdot c_0$.

Ikki yuzadan tashkil topgan tizimning nurlanishing burchak koeffitsiyentlarini burchak koeffitsiyentlari xossalardan foydalanib topish qulay:

a) yopiqlik xossasi

$$\sum_{k=1}^n \varphi_{ik} = 1; \quad (2.39)$$

b) birgalik (o'xhashlik) xossasi

$$\varphi_{ik} \cdot F_i = \varphi_{ki} \cdot F_k; \quad (2.40)$$

c) qavariqsizlik xossasi (yassi va qavariq yuzalar uchun)

$$\varphi_{ii} = 0. \quad (2.41)$$

Ikki jismdan iborat bo'lgan yopiq radiatsion issiqlik almashinuv tizimi uchun quyidagi tenglama to'g'ri:

$$Q_{w,2} = -Q_{w,1}. \quad (2.42)$$

